

B.Ibrohimov



MAKETLASH

0'2
743.1
1-14 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA

DIZAYN INSTITUTI

B.Ibrohimov

MAKETLASH

Tasviriy san'at fakultetining

Teatr bezagi rangtasviri kafedrasining

Talabalari uchun maketlashtirish bo'yicha

O'QUV QO'LLANMA

Maketlashtirish fani bo'yicha namunavly ishchi dastur

Bilim va ta'lim sohasi: 100000 – Gumanitar fanlar va san'ati

Ta'lim yo'nalishi: 5150800- Rangtasvir (Teatr bezagi rangtasvir)

(film tasviriy echimi)

Ta'lim sohasi: 150 000 – "San'at"

K. Behzod nomidagi
Milliy Rassomlik
va Dizayn Instituti

AXBOROT RESURS

N^o 30994

Toshkent - 2016

UDK 397.05.4/89

BBK 81.19

Ibrahimov Boltaboy « Maketlash » 2016y.

Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Kengashining 2014 yil 26 fevralda o'tkazilgan 7-sonli majlis bayonnomasidan

Maketlashtirish o'quv qo'llanma Teatr bezagi rangtasviri kafedrasida docenti B.Ibrahimov tomonidan taqdim etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma "Tetar bezagi rangtasvir" ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi kun talabalarini hisobga olgan holda tuzilgan. Unda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 2006 yil Oliy va O'rta mahsus ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va ta'lim standartlariga asoslangan holda mavzular bayon etilgan.

"Maketlash" dasturi 5150800 – "Tetar bezagi rangtasvir" ixtisosligi bo'yicha bakalavr darajasini oluvchi talabalar uchun tuzildi. Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Teatr bezagi rangtasvir" kafedrasida tayyorlangan.

Tuzuvchi: Docent B.Ibrahimov

Taqrizchilar: O'zbekiston halq rassomi, akademik. Teatr bezagi Rangtasvir kafedrasining professori J.Yu.Umarbekov
O'zbekiston davlat "san'at" instituti Televidenie va radio rejissyorligi kafedrasida katta o'qituvchisi.
O'zbekiston respublikasida xizmat kursatgan madaniyat xodimi rassom S.A.Rasulov

@ Ibrahimov Boltaboy « Maketlash »

UDK 397.05.4/89

BBK 81.19

Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bulmaydi. O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga qirayotgani bu sohaga ko'plab yosh istedod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz teatrlarida turli mavzu va janrlarda ko'plab spektakllar yaratishmoqda, o'ziga hos ijodiy izlanishlar davom etmoqda.

Islom Karimov

1. Kirish

“Maketlashtirish” fani bo'yicha tuzilgan ushbu ishchi dastur TIBR talablariga moslab ishlab chiqilgan bo'lib, Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor rassom ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishini topishda, ayniqsa, Teatr bezagi rangtasvir sohada ashyoda ishlashni o'rgatuvchi fan sifatida bu dasturga zarurat katta.

Fanni o'rganishdan maqsad - bulg'usi ijodkor mutaxassislarga tasviriy san'atning realistik maktab an'analari o'rgatish, saqlash hamda rivojlantirishda hozirgi zamon tasviriy san'atining yangi - yangi pog'onalarini egallash, yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar ta'sirchanligini anglash, his etish va uning badiiy g'oyasini oshirish, rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha amaliy bilimlarini shakllantirishdan iboratdir. Malakali rassomlarni tayyorlashda maketlashtirish fanining ahamiyati juda kattadir.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari.

“Maketlashtirish” kursi dasturining maqsadi, birinchi eskizlardan to Teatr bezagi rangtasvir asarlari yaratilguncha bo'lgan o'qitish, ya'ni o'rganish metodik ishlab chiqarish jarayonini yanada chuqurroq o'rgatishga qaratilgan.

“Maketlashtirish” kursini o'qitish processidagi asosiy maqsad - talabalarda ijodiy fikrlashni o'stirish, mutaxassis - raqobatdosh teatr bezagi rangtasviri rassomini tayorlash, teatr bezagi rangtasvir asrlarini yaratish jarayonida vujudga keladigan barcha savollarni mustaqil hal qila oladigan professional mahoratga ega bo'lish xislatlarini o'stirishdir.

Kursning asosiy maqsadi - bu egallangan bilimlarga tayanib, o'quv rejasidagi ihtisoslik bo'yicha dekorativ rasmning turli usul va uslublarni chuqur o'zlashtirish,

bularning dekorativ va plastik imkoniyatlarini o'rganish va shu bilan birga zamonaviy talabalarga javob bera oladigan va yuksak did bilan bajarilgan teatr bezagi rangtasvir asarlarini yaratishdir .

Fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar.

Bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun talabalar quyidagilarni o'zlashtirishi lozim: kompozicion asar yaratishda tasviriy san'atning o'ziga hos xususiyatlarini anglash, xomaki chizgilar, obraz, tanlangan mavzuga doir bajariladigan chizgilar, mavzu doirasida kompozicion ifodalilikka hizmat qiluvchi tasviriy material chizgilar, kompozicion muhitni tashkil etuvchi materiallarni tasviriy materiallar jamlash va o'z o'rnida qullash, rassom tomonidan bajariladigan badiiy asar yaratishning barcha qonun- qoidalarini o'rganish va ijodkor sifatida unga buysinish, rassom sifatida esa voqelikka bo'lgan dunyoqarashni belgilovchi falsafiy mushohadani o'stirish, unga rioya etish va amalda qo'llay bilish. Talabalar "Tetar bezagi rangtasvir" mutaxassisligida ishlatiladigan materiallari va xususiyatlari bilan tanish bo'lishlari, bu mutaxassislikda ishlatiladigan materiallarni tanlashni bilishlari, faktura uslublarini aplikatsiya va bosh xususiyatlarni yaratishning va hamda bu uslublarda qo'llaniladigan turli usullarda ishlay olish malakasiga ega bo'lishlari kerak. Talaba shuningdek,ashyolarning o'hshash tomonlari va farqi, ular qo'llaniladigan vaziyatlar hamda joylari xaqida ham tushuncha,bilim,ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Asosiy qism.

Yuksak darajadagi teatr bezagi rangtasvir asarini yaratish uchun, teatr bezagi rangtasvirida foydalaniladigan ashyolarning kompozitsiyaga mosligi, karton po'kak plastik uslublarda asarlar yaratishning o'ziga hos tomonlarini bilish, qum, qamich, yog'och bo'lakchalar, faolga, zar sim, sim va hokazo hamda kolerlar, har-hil gruntlar, tempera, akril, moyli, bo'yoqlar xaqida to'lik, aniq va chuqur ma'lumotlarga ega

bo'lishda, buta daraxt mebellar to'shamalr butafor usullarida yarata olish malakasiga ega bo'lish lozimdir, faqat shunday holda milliy san'atimizni jahon andozalari darajasida mahorat va iste'dod bilan yuksaltira oluvchi yosh taetr bezagi rangtasvir va film tasviriy echimi ustalarini etishtirib chiqarish mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar.

Maketlashtirish sohasi bilan to'la-to'kis tanishish, materialshunoslik nterer, ekstererda joylashgan kompoziciyada ishlatiladigan ashyolarni tanlash ustida ishlash, tasdiqdan o'tgan kompoziciya bo'lagini belgilangan hajmda ashyoda bajarish, xomaki chizmalar ishlash, qalamtasvirda va rangda kartonda bajarish.

Kompoziciya mizan sahnasini ashyoda ishlash uchun taglik (planshet) tayyorlash, uning ustida ishlanadigan uslubdan kelib chiqib,penoplast, karton plastilindan quriladigan maket qurilmalarini boshqa-boshqa tarkibdagi maketning umumiy qurilmalarini tayyorlash va joylashtirish.

Mustaqil (ta'lim) ish.

Talabani badiiy ijodga o'rgatish jarayoni nafaqat auditoriyalardagi ustoz-pedagog bilan olib boriladigan yakka tartibdagi mashg'ulotlar, balki, o'qish jarayonida hayotni o'rganish undan chizgi va etyudlar bajarish, eskizlar ustidagi izlanishlari, badiiy asarning kompozicion qurulmasi ustida ishlash, bularning barchasi ijodkor rassomning mustaqil ishlash mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Oliy va badiiy ta'limda mustaqil ta'limning ahamiyati juda katta. Chunki, ijodkor mutaxassisning o'z ustida mustaqil ishlashi uning bilim, malaka, ko'nikmalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Talaba dars jarayonida qay darajada pedagog rahbarligida olgan bilimlarini o'z ustida mustaqil ishlash jarayonida yanada mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasida badiiy ta'limni rivojlanish yo'nalishlari.

Asarning maketlashtirishda ishlanadigan kompozicion mavzularini tanlash va bajarish tasviriy san'atning Respublikamizda rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Malakali mutahassis kadrlar tayyorlash ijodkor rassom uchun turli shart – sharoitlar yaratishni taqazo etadi. Ayniqsa, xorij va respublikamizning taniqli, hamda mumtoz (klassik) rassomlarning namunali asarlaridan nusxa ko'chirish, turli tanlov va ko'rgazmalarda ishtiroq etish, ahborot resurslari orqali talabalarni tasviriy san'at yangiliklaridan xabardor qilib borish, hozirgi zamon talabiga javob beradigan, qiziqarli mavzularni tanlash, zamonaviy ashyolar bilan ishlash, zamonaviy usullaridan foydalanishni o'rgatish, zamonaviy san'at turiga e'tiborni ko'proq qaratish va boshqalardan iborat.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ta'limning turli hil shakllari mavjud bo'lib, talaba o'qituvchi rahbarligida yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida bajara oladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

Darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish; tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish, Avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash; mahsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; yangi texnikalarni, apparaturalarni, ilmtalab jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish; talabalarning ixtisoslashtirilgan konstruktorlik byurosi (MKB) yoki kichik korhonalardagi ishlari; talabaning ilmiy tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish; faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Mustaqil ish bajariladigan mavzular bo'yicha savolnomalar tuzish, savollarga foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan holda yozma tarzda javob

berish, qonun, qaror, me'yoriy hujjatlardan foydalanish, har bir mavzu bo'yicha muhim masalalarni hal qilish yo'llarini bayon qilish, tavsiyalar berish va boshqalar. Mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

Dasturning informacion -uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikaciya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentacion, elektron-didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Amaliyot natijalari asosida asarning ashyo tanlanishiga va qurilmasiga taalluqli bo'lgan hayotiylik va realistik holatlari misollaridan keng foydalaniladi. Shu bilan birga ijodkor rassomning ashyoda ishlash fanini puxta egallashi masalalari uning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlaydi.

O'quv procesini tashkil etish, ashyolar.

Kompoziciya uslubini maketlashtirishda bajarish.

Kompoziciya uslubini maketlashda bajarishdan maqsad - bu kompoziciya eskizidan kelib chiqib masshtabda, ya'ni natura kattaligida tanlangan ashyo uslubini ko'llash malakasiga ega bo'lish, turli usul va uslublarda TBR ijrochi darajasiga shakl va qurimalarda mutanosiblikka erishishdir.

Kartonni chizma tasvirda bajarishdan maqsad - maketlashning yakuniy plastik echimini yuqori darajada topish, hal qilish va tasvirlab berishdir.

Maketlashning bo'lagini ashyoda bajarish - bu talabaga topshirilgan ijodiy ishning amaliyotdagi ko'rinishi va yakunlovchi bosqichdir.

Badiiy fikrni ko'rsatish, ya'ni rangda va chizmatasvirda, maketning qurilmalarda aniq obraz echimini tugallangan ko'rinishga keltirishni o'rganishdir.

Maketlashda amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Maketlash uslubi.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

1. Planshet 45x60 sm. Ustiga maketlashga moslashtirilga yupka karton tortiladi.
2. Planshet ustiga bo'lajak maket qurilmalarining (plani) rejasi oddiy qora qalamda masshtab 1:20 smda chiziladi.
3. Maket qurilmalari reja ustiga qoralama chizma asosida fakturalar holatga monand beriladi.
4. Fakturalardan keyin asar echimiga hos tayyorlangan rang bo'yoqli eskizdan maket qurilmalariga o'tiladi. Hamma uslubiy ishlar tugagach qurilmalar joyiga o'rnatiladi.

Maketlashda ishlatiladigan ashyolar

- Karton, qog'oz, salfetka yumshoq materiallar.
- Penoplast (po'kak) yog'och bulakchalari, shpon mebelda ishlatiladigan tekstura ko'rimishdagi o'xshatma kog'oz.
- Somon, qum, bo'r pudrasi, qamich bo'lakchalari va hoqazolar.
- Sim, tunuka, fanera, plastilin, folganing hamma turlari zarli, kumush, perlamutr yaltiroq folgalar.
- PVA cupercement, moment elimlari, moy bo'yoq, suv bo'yoq guash, akvarel, kazeyn elimi, shpaklyovka, shpatel. v.b.
- Materiallarning hamma turi. Maketlashga mos keladigan cheksiz ashyolar turlaridan foydalanish mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar mavzusi

1-kurs 1-semestr 18 hafta

№	Bajariladigan umumiy vazifalar	soatlar	Mustaqil soatlar
1.	Kirish umumiy suhbat	2	1
2.	Asarni o'qish va materiallar to'plash	8	1
3.	Xomaki chizgi mashg'ulotlar	4	1
4.	Xomaki maket ustida ishlash va uning qoidalariga rioya qilish	6	1
5.	Xomaki maketni yakunlash	4	2
6.	Asosiy maket ustida ishlash	12	2
	Jami:	36	8

2 – semestr 18 hafta

Yakka tartibda 0,5x

7.	Asosiy maketda masshtab va perspektivaga amal qilish jarayoni	9	2
8.	Qismlar ustida ishlash	6	1
9.	Asosiy maketning yig'ilgan umumiy ko'rinishi	6	2
10.	Asosiy maketda fakturalar ustida ishlash	5	1
11.	Asosiy maket bo'yoqlar echimini topish va chiroqlar tadbirlari o'tkazish	4	1
12.	Asosiy maketni tekshiruv, yakunlovchi bosqich, prosmotrga qo'yish	13	1
	Jami:	36	8

2 – kurs 3 – semestr 18 hafta

Yakka tartibda 0,5x

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzusi	soatlar	Mustaqil soatlar
1.	Asarni tanlash va o'qish	6	1
2.	Asar bilan tanishish va materiallar to'plash	10	1
3.	Xomaki chizgilar	10	2
4.	Xomaki maket mashg'ulotlariga o'tish	15	1
5.	Xomaki maketda milliylikka hos bo'lgan echimlar va bo'yoqlar ustida ishlash	14	1
6.	Asosiy maketga o'tishdan oldin xomaki maketdagi kamchiliklarni tahlil qilish va asosiy maketga o'tish tadbirlari	20	2
Jami:		75	8

4 – semestr 18 hafta

Yakka tartibda 0,5x

7.	Asosiy maket qurilmalaridagi ashyolar ustida ishlash	6	1
8.	Asosiy maketda asar talablariga rioya qilish	10	2
9.	Maketda bezaklarning o'rni – o'rniga qo'yish va ularga fakturalar berish	10	1
10.	Maketda milliylikka ta'luqli bo'lgan obraz echimlarining buyyoqlardagi aksi	15	2
11.	Maketni tugallash va umumiy kamchilik, xatolarni tuzatish	14	1
12.	Chiroqlarni qo'yib yakunlash mashg'ulotlari	20	1
Jami:		75	8

3 – kurs 5 – semestr 18 hafta

Yakka tartibda 0,5x

№	Mustaqil mashg'ulotlar mavzusi	soatlar	Mustaqil soatlar
1.	Qirish suxbat. Uyga mustaqil ishlashga vazifa berish	8	1
2.	Xomaki chizgilar va materiallar to'plash jarayoni	10	2
3.	Karton va qog'ozda ishlash	10	1
4.	Yog'och, fanerda, qattiq qalin kartonda ishlash uslublari	15	1
5.	Simlar va yupka temir, tunukalarga ishlov berish	14	1
6.	Gipsda ishlash, shakllar yaratish	20	2
	Jami:	77	8

6 – semestr 18 hafta

Yakka tartibda 0,5x

7.	Maket qisimlarini yasash	9	2
8.	Pavilon devorlarini yasash	10	1
9.	Deraza, eshiklar yasash uslublari ustida ishlash	10	2
10.	Ship va karnizlar yasash usullari	15	2
11.	Uskunalar, plyastrlar yasash	14	1
12.	Yog'och va temir zinalar yasash, yakuniy vazifalarga analiz va ko'rgazmaga tayyorgarlik ishlari	20	2
	Jami:	78	10

4 – kurs 7 – semestr 18 hafta

Yakka tartibda 0,5x

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzusi	soatlar	Mustaqil soatlar
1.	1 semestrda qilingan ishlar tahlili va yangi vazifalar	2	2
2.	Dasgohlar, panduslar, ko'tarma anjomlar va ularning turlari	3	2
3.	Daraxtlar butaforiyasi, o'tlar	2	1
4.	Tyullar va ularga qilinadigan applikაციyalar turlarini o'rganish	3	1
5.	Sahna pardalari, ufqlar, panorama, kulis, padugalar turlari	2	1
6.	Sahna mebellari	2	2
	Jami:	14	9

8 – semestr 10 hafta

Yakka tartibda 0,5x

7.	Butaforiya mashg'ulotlar	1	1
8.	Fakturada ishlov berish	2	1
9.	Bezaklarni osish va ularni ishlatish uslublari	2	2
10.	Chiroqlar qo'yish mashg'ulotlar	2	1
11.	Yakuniy mashg'ulotlar va ko'rgazmaga tayyorlash tadbirlari	1	1
	Jami:	8	6

Reyting jadvali

JN – ON – YAN baholash tartibi 100%

JN – 40 ball saralash 55% - dan yuqori

ON – 45 ball saralash 55% - dan yuqori

YAN – 15 saralash 55% - dan yuqori

Jami 100 Ball 55 dan kam ball to'plangan talaba maketlashtirish fanini o'zlashtira olmagan hisoblanadi.

100 ballik sistemadan 85 bali joriy va oraliq nazoratga ajratilgan.

Yakuniy nazorat uchun maksimal 15 ball belgilangan.

Umumiy to'plangan bali bo'yicha quydagicha baholanadi:

56 balldan 70 ballgacha – “3” baho

71 balldan 85 ballgacha – “4” baho

86 balldan 100 ballgacha – “5” baho

I - QISM

MAKETLASHNING TASHQI KO'RINISHI TAHLILI

“Teatr bezagi rangtasvir kafedrası”da maket ustida ishlashning uchta turi mavjud. Ularga teatr maketi, kino maketi va televideniya uchun ishlanadigan maketlar turlari qiradi. Teatr maketida teatr sahnasiga quriladigan maket quriladi. Kino maketi esa kino mutaxassisligiga hos uslubda quriladi. Televideniya ham (maket) o'ziga hos uslublarda tayyorlanadi.

Teatr maketi karobka ichiga qurilib, sahna o'zgarishlari unda ro'y beradi. Kino maketi, inter'er ekster'er va tog' maydonlarda o'tadigan voqealarga asoslanib quriladi. Televideniya studiyaga moslab qurilishi mumkin, yoki ko'chma dekorაციyalar qurish mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan hamma maket turlari masshtablarga asoslanib qurilishi kerak. Maketlar biror-bir asar mohiyatidan kelib chiqqan holda tayyorlanadi. Asarni rejissyor va sahnalashtiruvchi rassom o'qib chiqanlaridan keyin birgalikda ishga kirishiladi. Rejissyor bilan rassom yagona bir fikrga kelganlaridan keyin maket qurishga kirishiladi. Maket qurish jarayoni ham rejissyor va rassom bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Xato – kamchiliklar va o'zgarishlar kiritishda ham ikkala ijodkor hamkorlikda ishlaydilar.

Maketlashning hamma turlarida mizan saxna ekster'er sahnalar mavjud. Maket qurishda masshtab, faktura va ularning tashqi ekster'er ichki inter'er ko'rinishlariga ega. Bizning tahlil qilmoqchi bo'lgan maketlarda, maket qurilishining tashqi yoki ichki ko'rinishiga misollar keltirmoqchimiz. Biz bilamizki, maket tayyorlashda qattiq bezaklar va yumshoq bezaklarga ahamiyat berishimiz kerak.

Qattiq bezaklar konstruktiv yog'och yoki temir qurilmalaridan iborat bo'lishi mumkin. Yumshoq bezaklarda faqat osma pardalardan foydalanish mumkin. Maketlashni tashqi ko'rinishda ba'zan hilma – hil xato-kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Shularni bartaraf etish maqsadida biz bir necha misollar ustida to'xtalib, ulardagi yutuq kamchiliklar ustida so'z yuritishni nazarda tutdik.

Maket ishlashda asardagi holatdan kelib chiqilgan holda tayyorlanadi. Bir hil maketda vazifa to'liq ishlash yuklatiladi. Yana boshqa tur maketlarga faqat shartli konstruktiv uslubda bajariladi. Kino maketlarda faqat tasvirga olinadigan joy ishlanadi. Ushbu vaziyatlardan kelib chiqqan holda har bir maket ustida alohida to'xtalib, yutuq kamchiliklarini tahlil qilishga e'tiborni qaratdik.

Maket tayyorlash jarayoniga har hil uslublarda yondashiladi. Biz ulardan bir necha turlarini ko'rib chiqamiz. Har qaysi ijodkor o'z ijodiy yondoshuvi asosida ish yuritadi. Shuning uchun bu misollar namuna sifatida bo'lmay, balki ishchi ko'rinishidagi oddiy maslahatlar sifatida havola qilinadi.

1 – maketda O'rta asrda qurilgan qasr taxlili

Eng avvalo qasming umumiy ko'rinishiga e'tiboringizni qaratamiz. Bir ko'rishda qasr masshtab talabiga rioya qilingandek ko'rinadi. Sinchkovlik bilan taxlil qilsangiz, xatolarni ko'ra boshlaysiz.




1 – misol: Qasr atrofiga qurilgan devorni ko'rasiz. Undagi hatolarni faqat taqqoslash orqali ko'rish mumkin. Qasr tepasidagi tishli qurilmalar bilan, qasr atrofiga qurilgan

tishli qurilmalarda katta farqni sezasiz. Devordagi tishlar masshtabga nisbatan juda katta qilib yasalgan. Kirish darvozasi esa arxitektura talabiga javob bermagan. Qasr darvozalari mustahkam qattiq yog'och yoki temir qoplamalaridan yasalgan bo'lishi kerak edi. Qasming turgan joyi ham oddiy joy. Balki qasr qurilishida katta arxitektura talabalariga rioya qilish kerak edi. Masalan, qasrlar baland tog' yonbag'riga yoki chiroyli tepalikka qurilishi kerak edi. Lekin bu qurilmalarda shunday talab darajasi sezilmaydi.

Qasr ichida yo'laklar, gullar o'tqazilgan joylar yo'q. Deraza eshiklarda o'rta asr memorchiligining uslublari ko'rsatilmagan. Bu maket faqat umumiy tasvirga olishga mo'ljallangan. Tashqi ko'rinishi bir hil rang bo'yoqlarda bajarilgan. Devorlarni nuragan ko'chgan, oqargan, qir bosgan, qaysi bir joylari ko'chib toshlar chiqib qolgan joylarini ko'rsatilmagan. Aslida maket ishlashda qaysi materialdan foydalanganligiga qaramay moslashi kerak bilan mosligi kerak. Qurilmalar obraz shakliga qirib holatni tasvirlashi shart. Po'kakdanmi yoki karton qog'oz bo'lishidan qat'iy nazar, ular fakturalarda berilib, qog'ozmi, po'kakmi devor tusiga qirishi kerak. Maketning masshtabi, u 23-marotaba qichraytirilgan holda quriladi.

2 – Maket qurilmasi tahlili

Bu maketda halokatga uchragan elkanli kema tasvirlangan. Talaba asardagi holatni astoydil ochib berishga harakat qilgan. Kema okean tubiga cho'qib, o't- o'lanlarni suvda o'sadigan hilma-hil o'simliklarni o'zi bilan olib pastga tushgan. Xalokatdan oldingi ko'rinishiga ham ishora bor. Kema elkanlari yirtilib oldingi shaklini umuman yo'qotgan. Kema machtalari oddiy cho'plardan qilinganligiga qaramay ular ishonarli, asar holatini ko'rsatmoqda. Kemani ikkiga bo'lib, talaba kemaning okean tubiga tushgan holatini to'la tasvirlagan. Oqean tagidagi toshlarni, loylarni, to'g'ri tasvirlab umumiy holatni tabiiy isbotlagan.





Masshtab proporciyalar to'g'ri topilgan, rang bo'yoqlar, faktura me'yorida ishlov berilgan. Talaba film tasviriy echimiga monand qilib qurgan. Demak bu maketda talaba qo'yilgan vazifani a'lo bajargan.

3 – maket taxlili



Bu maketda ham fojiaga uchragan elkanli kema halokati tasvirlangan. Bu maketda vazifani boshqacha berilganligini ko'ramiz. Kemaning yon tomoni sinib, ichki ko'rinishi ko'rsatilgan. Bu kemada ham haloqat yuz bergani va haloqatgacha bo'lgan axvolni ko'rayapsiz. Kema tepasida xali fojia ro'y bermagan payti ko'rsatilgan.

Buning mohiyati shundaki, tasvirga olishda talabaning yutug'i katta. Kemaning ikkinchi tomonidan qarasangiz xalokatga uchramagan paytini ko'rasiz. Palubaga chiqsangiz haloqat endi bulayotganidan darak bor. Chunqi tepada yog'och bochkalardan bittasi palubaga qulagan va ichidagi so'yuqlik to'kila boshlaganini ko'rasiz. Demak bu kemada har hil holatlarni kuzatish mumkin. Ko'rinishda chiroylidek, lekin xalokatga uchragan kemada holat boshqacha bo'lishi kerak edi. Masalan, kema elkanlari yirtilgan, machtalar singan, kemaning boshqa joylarda ham halokat holatini aks ettirishi lozim edi. Bunga qaramay talaba vazifani uddalay olgan. Masshtab praporciyalar to'g'ri bajarilgan. Bitta vazifa ikki hil holatda ko'rsatilishi to'g'ri hisoblanadi.

4 – Maket tahlili

Bu maketda o'zbek honadonlaridan birini ko'rayapsiz. Chor atrofi devor bilan o'ralgan va uning ichida har hil qurilmalar. O'rtada esa ildizlari burtib turgan ko'p yillik katta daraxt tasvirlangan. Devor ichiga qurilgan uylar esa o'ziga hoslik bilan tiklangan. Bu uylar bir-biridan farq qiladir. Lekin uylarni qurishda milliylik ruxi singdirilgan, eskirib nochor axvolga tushgan vaziyat tasvirlangan. Har qaysi qurilma o'ziga hos jihozlar bilan yopilgan bo'lib, tomlari juda ishonarli ishlangan. Bir paytlar bu hovlida xayot qaynagandan darak bor. O'rtadagi daraxt esa honadonning ahilligi ramziy ko'rinishini belgilaydi. Talaba maketni asar holatiga monand tasvirlagan. Eskirgan imoratlarni tabiiy holatini va ulardagi vaqt o'tishi bilan nochor axvolga tushgan ko'rinishini ko'rsata olgan. Imoratlarning past-balandligini har qaysi honadonning o'ziga hosligini ko'rsata olgan. Ayniqsa bostirmalarda reallik bor. Talaba maketdagi holatni to'g'ri tasvirlagan.



Qurilmalarda bir hil davr ko'rsatilgan. Masshtab fakturalari o'rinli berilgan, rang bo'yoqlarda ham eskirgan kesak uylarning ramzi bor. Talaba maket qurishda po'kaklardan unumli foydalangan.

5 – Maket taxllli

Bu maketda 'aylanma chorbog' ichiga joylashgan uylar tasvirlangan. Bu hovlida bir necha honadon joylashgan. Uylar bir-biridan farq qiladi. Bir honadon yonida qurilish ish qurollari ko'rsatilgan. Yana boshqasida uy yonida taxta krovat qo'yilgan. Krovat ustida gazeta jurnallar va magnitofon tasvirlangan. Honadonlarda hayot har hil tarzda ketayotganligi isbotlangan. Uylarning ko'rinishlari ham har hil bo'lsada milliy uslubda qurilgan. Chor atrofiga o'ralgan devorlar ham ishonarli qilib tasvirlangan.



Ularga milliylik ruxi singdirilgan. Bu honadonlar bitta qozondan ovqat eyishlari ham bostirma tagida qo'yilgan qozondan ma'lum. Talaba qo'yilgan vazifani uddalagan. Kichik va katta masshtablarga e'tibor bergan. Rang bo'yoqlar me'yorida ishonarli berilgan. Tepalikda qurilgan uylar tog' oldi yassi tekislikdan darak beradi. Talaba har qaysi uyning qurilmalariga e'tibor bergan. Ulardagi katta-qichik elementlar o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. Guvaladan qurilgan chorbog' devori fakturasi juda to'g'ri topilgan. Maydon kengligida joylashgan uylar o'z o'rmini topgan. Uy orqasidagi tepalik ham ishonarli qilib ishlangan. Bu maketda ham talaba vazifani to'g'ri tushunib bajargan.

6 – Maket tahlili

Bu maketda talaba o'rta asrlarga hos bo'lgan kema va kemalar to'xtaydigan joyni ishlagan. Siz bu manzarada kemalar to'xtab yuklarni ortadigan yo'lakcha va yuklar tushiriladigan maydonchalarni ko'rayapsiz. Atrofda shartli suvlar imitaciya qilingan.



Kemalarda esa o'sha zamonga hos bo'lgan qurilmalar tasvirlangan. Machtalarda yig'ib qo'yilgan elkanlar va machtalarga tortilgan arqon narvonlar o'ziga hos uslubda qurilgan. Yon atrofda qichik kemalar va yuk tushirayotgan xizmatchilar tasvirlangan. Bu joyda tinimsiz hayot qaynaydi. Maket talab darajasida ijro etilgan. Kemalarni farqida masshtabga amal qilingan, rang-bo'yoqlar to'g'ri moslashtirilgan. Suv imitaciyasi yahshi ishlangan. Katta-qichik kemalarga ishonarli ishlov berilgan. Maket hayotiy qilib ishlangan. Beton qurilmalar va ular ustiga qo'yilgan jixozlarga ham "Krichal"ga hos ishlov berilgan. Bu maket ham film tasviriy echimiga ishlangan. Suratga olish jarayonida obe'ktlar ko'pgina qo'l keladi. Tepadan, yon tomondan, har hil rakurslardan olish imkoniyati mavjud. Talabaniing yutug'i ham shunda.

7 – Maket tahlili

Bu maketda qasr sifatida qurilgan murrakab bino tasvirlangan. Maketni tepasidan tomosha qilsangiz, siz undagi har hil tartibdagi planlarni ko'rasiz. Binolar eski zamon uslubida qurilgan. Maketdagi maydonchalarga, qing'ir – qiyshiq yo'lakchalar bir biridan farq qiladilar. Uylar ham bir biriga o'xshamagan tartibda joylashgan. Maydonchalarga, yo'lakchalarga toshlar yotqizilgan. Lekin qirish – fasad tomoniga fakturalar, rang

bo'yoqlar deyarlik berilmagan. Maketning ichki qismlarida ham xatolarga yo'l qo'yilgan.



Talabanning yutug'i, kompozicion planda to'g'ri yo'nalish topgan. Devorlarga deyarlik ishlov berilmagan. Balki ular filtrli chiroqlarga asoslanib ishlanganidadir. Nima bo'lgandayam maketga to'la ishlov berilishi kerak edi. Masshtabda xatolar bor. Umumiy ko'rinishda bir hillik sezilayapti. Yon tomonidagi katta devor. masshtabdan chetga chiqqan. Devor ustidagi tishlar juda yirik qilib yasalgan. Maketni umumiy ko'rinishidan ajralib qolgan.

8 – maket taxlili

Maketda 19 – asrga mansub interer ko'rsatilgan. Bu intererda Parij honadonining ichki ko'rinishi tasvirlangan. Bir qarashda bu honadonda yashaganlar boy, jamiyatning

oldingi safida borayotgan mulkdor fuqaroning uyini ko'rasiz. Hozirgi taassurot Buning teskarisi. Honadonda tartib intizom buzilgan, hayot yo'nalishi kambag'alikka yuz tutgan. Bir paytlar chiroyli bo'lgan gilam esa o'z sifatini yo'qotib, rang-bo'yoqlari o'chgan, stol stullar tartibsiz ravishda qo'yilgan. Qog'ozlar yoyib tashlangan xullas honadondan xuzur – halovat yo'qolgan. Uydagi katta kartinalar devorda bo'lganligi uchun o'z ko'rinishini yo'qotmagan.



Uyning to'rida esa oynavand derazalar, eshiklar savlat to'kib, hozirda ham uyning ko'rqiga ko'rk qo'shib uyga fayz berib turganday ko'rinqda. Ba'zi joylarda devorlari ko'chgan bo'lib, uy qarovsiz axvolga tushganligidan darak bor. Maket kino tasviriy echimiga mo'ljallangan bo'lib, talaba vazifani to'la bajarishga erishgan. Bu maketning tom qismini ajratib, tepadan tasvirga olishga mo'ljal qilgan.

9 – maket tahlili

Talaba bu maketda eramizdan oldin o'tgan yuksak madaniyat qoldiqlarini tasvirlagan. Me'morchilikda mislsiz rivoj topgan davrdan qolgan devorlar, ustunlar, haykullar orqali, hozirgacha etib kelgan me'morchilik qoldiqlari tasvirlangan. Bu maketda markaziy aylanma arxitektura ansambli va uning atrofiga joylashgan devor xarobalari ko'rsatilgan. Toshdan terilgan maydonchalar tasvirlangan bo'lib, eski zamonning madaniyat o'choqlaridan bir ko'rinish tasvirlagan. Bu albatta faqat eski zamon xarobalari bo'libgina qolmay, balki asar mohiyatini ham tasvirlovchi holatdir.



Devor qurilmalariga ishlangan faktura, rang bo'yoqlar tabiiy ishlangan. Kompozitsiya proporsiyalar asosida topilgan. Planshetdagi maket o'rni ham yahshi reja asosida qurilgan. Qo'yilgan vazifa bajarilgan.

10 – maket tahlili

Maket vatanimizning milliy bayramchiligiga mo'ljallangan bo'lib, unda siz Navro'z va Mustaqillik bayramlari o'tkaziladigan maydonning umumiy ko'rinishini ifodalagan. O'rta maydonchaga 8 qirrali ramziy bezak berilgan to'shama yotqizilgan.

Orqa gorizontda maydonning o'rtasida qizarib chiqayotgan quyosh ramzini ko'rasiz. Atrofidagi sun'iy qurilgan minorachalar oldiga to'shalgan milliy gilam yo'lakchalarga ko'zingiz tushadi. Maydonchaning oldingi qismiga bayram ruxiyatiga mos ranglardagi bayroqchalar tiklangan.



Atrofda bayram kayfiyatiga mos ishlangan qo'g'irchoqlar tasvirlangan. Tomoshabinlar o'tiradigan joylar ham bayram kayfiyatiga hos bo'lgan bo'yoqlar orqali berilgan. Talaba o'rta maydonchaga chiqadigan folklor ansambllar kiyim kechaklarini ham hisobga olgan. Engil bahorona kayfiyat, madx etuvchi bayram bezaklari "Navro'z" bahor bayramiga mo'ljallanib tayyorlanganligi yaqqol ko'rinib to'ribdi. Orqada qamay –

qo'riqlar gullar, rasmi tushirilgan pannolar yanada milliy ruxiyatni yorqinlashtirishga va bayramona vaziyatni yaqqolroq tasvirlashga erishgan.

11 – maket tahlili –Teatr maketi

Maketda o'zbek honadonlaridan bir ko'rinishi tasvirlangan. Maketda olov sohib turgan ufq va uning oldidagi Samarqand, Buxoro me'morchiligiga hos bo'lgan imoratlar tasvirlangan. Bu gumbazli imoratlar orqali o'tmishning boy me'morchiligi va milliylik ruhini singdirilgan holatni ko'rish mumkin. Bu binolarga oq-qora rang-bo'yoqlar berilgan. Uylarning bir qismi qora-fojaviy bo'yoqlarda berilgan bo'lsa, bir qismi oq yorug'lik bo'yoqlarda tasvirlangan. Bu bo'yoqlarda ramziy asos bor. Oq bo'yoqlar poqlik va yorug'lik, erkinlik ramzi bo'lib, kelajakka bo'lgan ishonch ramzini beradi. Oldingi rejada qog'oz buklamlari elimlangan bo'lib, ularda qonlar bilan buyalgan izlar ko'rsatilgan. Oldingi rejaga ajratilgan maydoncha to'g'ri taqsimlangan bo'lib, unda teatr aktyorlar o'ynashiga imkon yaratilgan.



Bu dekoratsiyalar mizan sahna orqali sahnalardagi holatni tez o'zgarishiga imkon tug'diradi. Chiroqlar orqali vaziyatga qarab o'zgarishi oson kechadi. Maket o'z isbotini topgan. Faktura, masshtab, rang-bo'yoq talablari yahshi taqsimlangan. Orqa gorizontga olav ramzi, ham o'zbek milliy atlas naqqoshlariga o'xshash ramziy bo'yoqlar berilgan.

12 – maket taxlili

Talaba maketda Sankt – Peterburg shahridagi kanallardan biri ustiga qurilgan ko'prikni va uning atrofida joylashgan imoratlar holatini tasvirlagan. Voqelikning markaziy holatini mo'ljallab, bu maketda umumiy ko'rinish tasvirlangan. Imoratlar o'z davriga mos holatda ishlangan.

Ko'chalarda qurilgan ko'prik va yo'laklarlar bir biroviga monand uslubda tasvirlangan. Bu maketning boshqa maketlardan farqi shundaki, unda umumiy ko'rinishlarni tasvirga tushirishga mo'ljallangan.



Daraza, eshiklarni ko'rsatish shart emasligi nazarda tutilgan. Rang-bo'yoqlar umumiy shularga asoslangan. Faktura proporciyalar masshtabda ishlangan. Asar holatini talaba to'g'ri ko'rsata olgan.

13 – maket tahlili - Kino maketi

Maketda Lotin Amerikasining kovboylar turadigan shaharchaning asosiy ko'chalaridan biri ko'rsatilgan. Binolar bir – biriga taqalib qurilgan. Ular g'isht yoki yog'ochlardan qurilgan. Bu o'ylar 2 qavatli bo'lib, balkonlar qurilgan. Uylarning sifatiga qarasangiz bir biridan farq qiladi. Bu shaharcha asosan katta boylik ketidan quvib, tilla yoki qimmat-baho qazilma boyliklarga erishish maqsadida shu erga kelib qolib, uylar qurishgan. Ma'lumki, boylik orttirish maqsadida kelganlar ichida muttaham, firibgarlar, kuch bilan boylikka ega bo'lish niyatida kelganlar ham yo'q emas. Bu joyga oilalar bilan kelib qolganlar bor. Keyinchalik bu joyda kichik shaharcha paydo bo'lgan. Binolarning ko'rinishidan ham ma'lumki binolar har hil stilda qurilgan. Bu joyga kelganlar xar hil elatlar vakillaridir. Qurilmalar o'rta xol fuqarolarga hos ko'rinishga ega.



Maketda o'sha holat tasvirlangan. Rang bo'yoq masshtab, fakturalariga e'tibor berilgan. Film tasviriy echimiga to'la javob beradigan holat maketda ko'rsatilgan.

14 – maket tahlili - Kino maketi

Ikkinchi jahon urushi oqibatlaridan qolgan vayrona ko'rsatilgan. Maketda asosan qaysidir bir ma'muriy bino atrofi tasvirlangan. Binolar oldida urushdan qolgan tanklar izlarini, urush bo'lib o'tgan joyni guvohi tarzida isbotlangan. Bir to'p daraxt esa o'zini navqiron ko'rinishini yo'qotib nochor axvolga tushgan. Ko'p qavatli binolar esa yonib yaroqsiz axvolga tushib qolgan. G'ishtlar ko'chib, uy ichqarilari o'z chiroyini butkul yo'qotgan. Qurilmalar qulagan. Bir hil joylar aziyat chekmagan. Maket qanchalik tabiiy ishlanganligiga qaramay, kamchilik xatolarga ham yo'l qo'yilgan. Bu vayronagarchilik qaysi davrga hosligini anglatuvchi buyumlar yozuvlar afishalar bo'lishi mumkin edi.



Masalan: “Ona Vatan sizni chaqirayapdi” (Rodina mat zoviyot) degan plakatlar bo’lishi zarur edi. Talaba shularga e’tiborni kam qaratgan bo’lsada, maketda ishonarli holatni ko’rsata olgan, rang bo’yoqlar to’g’ri taqsimlangan, proporciyalar, masshtab, fakturalar nisbatan o’rinli topilgan. Kino hayotiga mos holat o’z isbotini topgan. Mizan sahnalar joyida topilgan.

15 – maket taxlili

Bu maketda 19 – asrga hos bo’lgan uslubda qurilgan katta ma’muriy bino fasadi ko’rsatilgan. Maket shartli qurilgan. Talaba po’kaklardan unumli foydalangan. Proporciya masshtab talabalariga amal qilgan. Maketda xato – kamchiliklar ham mavjud. Derazalar tagida erto’lalarga yorug’lik tushadigan derazalar qilinmagan. Bino oldidagi zinapoyalar rejasiz qurilgan. Zinalar 2 ta ustunlar oralig’iga mos qurilishi zarur edi. Zina oldiga qo’yilgan haykallar shartli ishlangan. Bino atroflariga ishlov berish shart emas. Chiroqlar bir qatorga qurilgan, vazifa bajarilgan. Mashg’ulotlar paytida xato-kamchiliklar muxoqama qilinib boriladi.



16 – maket tablili

Ushbu maketda qish paytida yong'in sodir bo'lgan uyni, fojiali ahvolni ko'rayapsiz. Maketning umumiy ko'rinishiga baho beramiz. Maketda uyni to'la yonmagani, tomni yonib qulab tushganiga nazar qaratamiz. YOg'ochdan qilingan uyning devorlarida ishonarli ko'ygan axvolni ko'rayapsiz. Hamda yong'in tufayli, taxtalar qulab tushgan, sachrab yotgan taxta bo'lakchalari ishonarli tasvirlangan. Maketdagi qamich qirqimlari masshtab o'lchovlariga asoslanib qurilganligi ma'lum. Qor uyumlari ishonarli fakturalarda bajarilgan. Yo'lakchalardagi qorlar erib, odamlar izlari ishonarli qilib tasvirlangan. Chorbog' ichidagi quduqqa boriladigan yo'l ham tabiiy ishlangan. Bir chekkada yog'ochlar taxlanib qo'yilgan, usti yopilgan, uning ustini qor uyumlari qoplangan. Uyning derazalari yonib tugagan. Kirish eshigi yaroqsiz axvolga tushganligi ma'lum. Chorbog'ga qiraverishda ariq ustiga qurilgan ko'prik ham deyarli yaroqsiz holatda ekanligidan darak bor.


Ariq chetidagi o'tlar qovjirab qish mavso'mi holatiga hos ishlangan. Burchakda turgan bir tup daraxt ham umumiy holatda bo'lib, o'zining betakror savlatini yo'qotganligini tasvirlagan.



Bu vaziyat Rossiyaning biror-bir qishlog'ida ro'y-berganligidan dalolat bor. Chorbog' qichik taxtachalardan qurilgan bo'lib, Rossiya qurilmalariga mos usulni tasdiqlaydi. Albatta bu maket qaysidir bir holatni tasvirlab berishga ishlangan. Lekin xato-kamchiliklardan xoli emas. Xar bir qichik ko'rinishlarda aniq, hayotiy ko'rinishlarni izchil ko'rsatib berish kerak. Qishloq uylarida o't- hona, o'tin qo'yish joylari, arava va g'ildiraklar yoki chelak taxta bochkalar ko'rsatilmagan. Umumiy holatga nazar solsak maket echimi topilgan.

17 – maket taxlili

Bu rasmda maketlarda ishlatiladigan qichik qismlardan namunalar mavjud. Bu qismlar teatr bezaklarida ishlatiladigan karkaslarini va eshik derazalarini, zinalar, devorlar, ustunlar, tokchali devor karkasi va ularni yasalishi uslublari ko'rinadi. Gumbazli va minorali uylar karkaslarining echilishi va qo'shib qurish uslublari ko'rsatilgan.



Bular ko'rgazmali qurollar, sahnada ko'p ishlatiladigan bezaklar namunalaridir. Bu bezaklarni sahnada qanday qurish yoki echib ajratish uslublari talabalarga o'rgatiladi. Talablar o'z qo'llari bilan yasab, ularni ishlatish funkciyalari bilan tanishadilar. Asar sahnada qo'yilayotganda, mizan- sahnalarni alohida qurish

usullari bilan tanishadilar. Kino bezaklarida ham qurilish echimi usullari bilan yaqindan tanishish imkoniyatlari bor.

18 – maket tahlili

Bu maketda Hindiston arxitekturalariga hos bo'lgan bino ishlangan. Maketda keng maydonga qurilgan oq marmar binolar ko'rsatilgan.

Birinchi rejada palma daraxtlarni ko'rasiz. Daraxtlar ham har hil ko'rinishlardan iborat. Ba'zilar ergacha egilgan bo'lib, boshqa birlari tikka osmonga bo'y cho'zgan. Bu daraxtlarda ham xuddi insonlar hayotiga o'xshagan ramz ifoda etilgan. Talaba maketda asosan diqqatni ramziy echimlarda asoslagan. Binolardagi har hillik, ulardagi hayotiy jumboqlarni echishga asos solingan. Maydonda yurgan odamlar maketda ritmik kompoziciya yaratgan. Maket qurilmalarida oq bo'yoqlarni ishlatishda mahorat ko'rsatilgan. Oq va qora ranglar bir-biriga mos tushgan. Maket asosan oq va qora bo'yoqlar asosida ishlangan bo'lib, asar ramzini echishga asos solingan. Arxitektura majmuasi betakror ko'rinishga ega. Binolarni bir-biridan farqi: shakli, baland-pastligi, tashqi faktura va bo'yoqlarning keragicha ishlatilishi bu asar mohiyatini yanada ochib berishga sabab bo'ladi. Ayniqsa binolar ustidagi hayot ham ishonarli ko'rsatilgan.



Binolar ustiga yopilgan gilamlarda Hindiston hayotining bir ko'rinishi tasvirlab berilgan. Maketda asar echimidagi yahlitlik uning maqomini ko'rsatishga urg'u bor. Talaba binolarni tasvirlashda asosiy ahamiyatni binolar fakturalariga qaratgan. Binolarda har bir binoning o'ziga hos fakturalari ajralib turadi. Demak fakturalar orqali masshtab talablariga rioya qilingan. Maydonda yotgan tosh bo'laklari ham kompoziciya asosiga moslashtirilgan. Maydondagi asosiy katta bino bilan qichik binochalar uyg'unligi topilgan. Bu maket albatta talab darajasida bo'lib, unga yaxshi baho berish mumkin.

19 – maket tahlili

Bu maketda Hindistonda qurilgan masjid yoki madrasaga hos majmua tasvirlangan. Albatta masjid qurilmasi film tasviriy echimi uchun ishlangan. Maketni, arxitekturaning o'z davriga xos holda ishlagan.

Maketni qurishda asosan po'kakdan foydalanilgan. E'tiboringizni ichki qurilmalariga qaratsangiz, unda siz kirish – chiqish qurilmalarini o'ziga hos uslublarini ko'rasiz. Masjid ustida qo'shaloq gumbazchalar bor. Masjid oldida binoni har ikkala chetiga baland savlatli minoralar qurilgan. Qo'rg'on ichidagi xujralar ham davr ramzini ko'rsatib bergan. Qurilmalardagi oraliq masofalar to'g'ri joylashtirilgan. To'rt-burchak qo'rg'on tepasiga gumbazlar qurilgan. Qaysidir bir ma'noda talaba qo'yilgan vazifani to'g'ri bajargan. Rang-bo'yoqlar, faktura masshtab talab asosida echilgan bo'lib, umumiy kompoziciya talqiniga moslangan.



20 – maket tahlili

Bu maketning boshqa maketlardan farqi shundaki, u oltiburchak geometrik uslubda ishlangan. Oltiburchak ichiga barcha kechinmalar, voqealar va holatlar mujassamlashtirgan bo'lib, asosiy voqea shu inter'er ichida bo'lib o'tishga asoslangan. Maketda o'rta to'shalgan katta gilam ustiga qo'yilgan stol va uning atrofidagi jihozlar ko'rinadi. Bu ko'rinishdan jixozlarni qaysi davrga mansubligini aniqlash mumkin. Qo'yilgan atributlar o'z joyiga tushgan. Devorlar yirik g'ishtlar bilan qurilgan. Deraza eshiklar, pollar davr asosida tasvirlangan. Osilgan pardalar ham maromida ko'rsatilgan. Bu maket orqali tasvirga olish imkonlari yaqqol namoyon etilgan. Maketga tabiiy ishlov berilgan. Jihozlar naqshlari asar echimiga xos bo'lgan. Maketda tepadan tasvirga olish imkoniyati yaratilgan. Tasvirga olishda atributlar anjomlarni har hilligi bilan qulaylik yaratilgan. Kichik va katta planlarga katta ahamiyat qaratilgan. O'rta yoyilgan gilamlar ham burchaklarda qarama – qarshi ko'rinish imkonini yaratgan. Maketda yirik qichik, umumiy planlarga ahamiyat qaratilgan. Maket ijrosi o'ziga hosligi bilan boshqa maketlardan ajralib turadi. Maket ijrosi to'g'ri taqsimlangan bo'lib, rang bo'yoqlar, planlar, avan sahnalar, masshtab, fakturalar talab asosiga mos holda tasvirlangan.



21 – maket tahlili

Bu teatr maketi bo'lib, professional teatr o'lchovlariga mos qilib ishlangan. Maketda yahlit doira ustiga qurilgan bezaklar ko'rinadi. Sahnalar doira aylanishi asosida o'zgarib turadigan uslubda bajarilgan. Doira aylanishda chiroqlarning ahamiyati katta. Talabaning maqsadi asar kechinmalarini oson holatga keltirish imkonini beradi. Bir paytning o'zida sahna ham oldingi holatga va keyingi mizan sahnaga qaytish imkonini beradi.

Sahna ko'rinishlari o'ta shartli ramzda aks ettirilgan. Bu rassomning yutug'i hisoblanib, kam xarajat va vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Orqa gorizontga chizilgan tasvirlar chiroqlar yordamida alohida holat, laxzani ko'rsatadi. Eng muhimi avan sahnalardan unumli foydalanish sharoiti tug'dirilgan. Qurilmalarga, bezaklarga milliy rux singdirilgan. Binolar tasviri asar mohiyatidan kelib chiqilgan holda tasvirlangan.

Yon tomonlariga tasvirlangan daraxtlar asarning echimiga tabiiy ruh bag'ishlagan. Teatr uslubiga mos tushadigan barcha imkoniyatlar bor. Rang, bo'yoq, masshtab, faktura, teatr effektlari ma'noli echimini topgan. Maketda talaba qo'yilgan vazifani to'g'ri talqin etgan. Ijodkor teatr aktyoriga sahnada ravon rol ijro etishga katta imkon yaratgan.



22 – maket tahlili

Bu maket professional kinoga moslab qurilgan. Maketning umumiy ko'rinishi o'ziga hos uslubda tayyorlangan. Maketda baland-past qasr qurilmalari ko'rinadi. Qurilmalar davrni aks ettiruvchi elementlardan tashkil topgan. Atrofi baland qo'rg'on bilan o'ralmagan, bu qasr boshqa qasrlardan tubdan farq qiladi, arxitekturası ham boshqacha. Planlari ham o'ziga hos uslubda qurilgan. Asosan tasvirga olish imkoni nazarda tutilgan. Talaba asar mohiyatiga to'g'ri baho bergan. Qasming to'rt tomoni to'rt hil bo'lib, tasvirga olishda boy manzaraga ega. G'isht-toshlar asosan qasrga chidamlilik ruxini singdirgan. Maket ijrosi talabga loyiq qilib tugatilgan. Rang bo'yoqlar ustalik bilan berilgan. O'lchovlar nisbatan to'g'ri taqsimlangan. Masshtab, fakturaga e'tibor qaratilgan. Maket ijrosi talab normalariga to'g'ri javob beradi.



23 – maket tahlili

Bu maket "Teatr maketi" bo'lib, unda milliy imoratlarning shartli qurilmalari ko'rinadi. Katta zinalar orqali tepalikka ko'tarilgan bezaklar majmuasi tasvirlangan.

Bu maketda milliy imoratlarning mahobatli uyg'unligi seziladi. Asosan bezaklarga yashil bo'yoqlar berilgan. Osiyo me'morchiligiga hos qurilgan imoratlarni teatr xususiyatlariga moslashtirib ishlangan. Orqa fonni esa qizil bo'yoqlarda tasvirlab, oldingi yashil bo'yoqlarni kuchi yanada mukammallashtirilgan. Ayniqsa bezaklarga ohiroqlar berilsa nihoyatda jozibali ko'rinadi. Maket faqat konstruktiv yoki yumshoq pardalar bilan ko'rsatilib qolmay, ular faqat teatrdagi qurilgandagina xaqqoniy kuchga qiradi.

Maketda asosan aktyor ijrosini amalga oshirish imkoniyati nazarda tutiladi. Maketdagi chor minorlar markazga uyg'unlashtirilgan. Sahnadagi bezaklar engil va tez almashtiruvga moslashtirilgan. Bu maketning mohiyati shundaqi, bezaklar yirik masshtabda bo'lib, mayda bezaklardan voz kechilgan. Ishlov berish uslublari to'g'ri taqsimlangan. Har bir bezak ikkinchisiga uyg'unlashtirib ishlangan. Rang-bo'yoq, masshtab, planirovka, fakturalar ishonarli ijro etilgan. Talabga javob topilgan. Bu teatr yutug'i, ya'ni rassom yutug'idir.



Bu maketda film tasviriy echimiga ishlangan qurilmalar tasvirlangan. Maket uch tomonlama ko'rinishga ega bo'lib, qunt bilan tasvirlangan. Maketda asosan fasad, ya'ni old tomoni ko'rsatilgan. Binoni kvadrat g'ishtlardan qurilganligi, to'rt burchak g'ishtlardan iborat zinapoya binoning umumiy ko'rinishiga mos tushgan. Oldidagi to'rtta ustun binoga ko'rk bergan. Pastdagi balyustradalar ham o'z o'rnini topgan. Binoga qirishda qo'yilgan gul holda tuvaklar simmetrik go'zalik bag'ishlagan. Uy eshigi, derazalar binoga mos tushgan. Derazalar tagidagi fundamentga ishlangan ishlovlar ishonarli tasvirga ega. Binoning yon tomonidagi kirish eshigi mahorat bilan ishlangan. Bino to'ridagi yordamchi qurilmalar hayotiy tasvirlangan. Binoning tomi, mos tushgan. Binoning umumiy holati uyg'unlikda ijro etilgan. Bino oldidagi maydoncha masshtab o'lchovlariga hos topilgan. Bu maketning yutuqlariga qaramasdan kamchiliklari ham bor. Masalan, binoga rang bo'yoqlar ishlovlar taqsimlangan, lekin maydonchaga ishlov berilmagan. Negaki maketga to'la ishlov berish talabi qo'yilgan bolsa u holda maketning boshqa qismlarga ham ishlov berish shart. Agar faqat binoga ishlov berish talabi bolsa, u holda maketning boshqa qismiga ishlov bermaslik ham mumkin. Asosan film tasviriy echimda shunday tartib qo'yilishi mumkin. Demak bu maketda shunday talab bor. Maketning umumiy xulosasiga kelsak, talaba o'z vazifasini bajargan. Hamma talablarga javob berilgan.



Bu maket teatr maketi bo'lib, bezaklar engil tyullar bilan qoplangan ramkalarda ishlov berilgan. Maketdagi bezaklar engil va chiroqlar qo'yilsa chiroyli ko'rinish hosil qiladi, orqa tomonlarida shaffof tyullar oslib qo'yilgan. Bu maket engil materiallar asosida tayyorlangan. Asar talqinini talab qiluvchi holati yaqqol namoyon bo'lgan. Bezaklardagi naqqoshlar davr aksini tasvirlaydi. Bu bezaklarga chiroqlar yahshi effektlar berishi mumkin. Tyulga qo'shib tortilgan iplar ham tyulning effektini oshirgan. O'rta qo'yilgan soat ham shu materiallarga hos bo'lib qolgan, bezaklarga joziba bergan. Butun bezaklar bir biriga ham ohang holatni paydo qilgan, derazalar asar maqomiga juda mos tushgan. Bu bezaklarda rang bo'yoqlar bo'lmasada, sahnaga chiqqach ularni filtrli chiroqlar asosiy holatiga erishtiradi. Bunday maketning mohiyati teatr uchun juda katta. Kam xarajat qilinadi, engil va yutug'i katta. Talaba asar echimini to'g'ri tasvirlagan. Hamma talablar keragicha ishlatilgan.



Bu maketda o'zbek honadonlaridan biridagi holat tasvirlangan. Sahnaga supa qo'yilgan. Tepasiga toklarni temir qurilmalariga bog'lab soyabon qilingan. Egilgan quvurlarga bedana qovoqlar ilingan. Albatta bu honadonda qushlarga qo'yilgan mehrni, oqibatni belgilovchi namunalar bor.

Komediya kulgili va xazil mutoibalarga bo'lgan urg'ularni sezsa bo'ladi. Orqa fonda esa milliy obidalar selueti engil ko'zga tashlanadi. O'rtada ko'k yashil parda tortilgan. Pardaga gumbazli bino rasmi tushirilgan. Bu maketda asarning bitta ko'rinishi aks ettirilgan. Rang-bo'yoqlar engil ishlangan. Oldingi planda cholu kampir, qaysidir bir oila muammosiga hos bo'lgan suxbatqurishgan. Maketdagi personajlar maket holatini jonlantiribgina qolmay, masshtab o'lchovlariga ham ahamiyat kasb etadi.



Bu rasmda maket hona ko'rsatilgan. Honada talabalar o'z qo'llari bilan yasagan bezak namunalarini ko'rish mumkin. Honadaga maketlar har hil obrazlarni, har hil holatlarni aks ettiradi. Bularning hammasi 400 namunadan ortiq bo'lib, endi o'qishga qirgan talabadan tortib, diplomga chiqayotgan talabalarga kerak bo'lgan maket namunalarini topasiz. Bularga qo'shimcha taniqli Qo'g'irchoq teatri rassomi Akudin V.G. asarlari ham qo'yilgan.

Ko'rgazma zallardan namunaviy asarlar yig'indisi mujassam. Teatr maketi, butaforiya, bezaklar texnologiyasi, teatr pardalari singari kerak bo'lgan hamma ko'rgazma rasmlar kollekciyasi maket honasiga qirgan har qaysi talaba o'ziga kerak bo'lgan maket ko'rinishi yoki boshqa ko'rinishlar elementlarini ko'rib o'rganishlari mumkin. Bu ko'rgazma qurollardan foydalanish o'qituvchi yordamida juda oson kechadi. Har hil misollarga javob shu stendlardan bemaol topsa bo'ladi. Maketlarda kulgili komediya, fojia, drama va shunga o'xshagan nusxalar mavjud. O'rta asr davridan hozirgi davrimizgacha bo'lgan voqealar maketlarda aks ettirilgan. Eng yahshi tomoni shundaqi, talabalar o'zlaridan oldin o'qigan talabalar yutuqlaridan manfaatdor bo'lishadi. Talabalarda izlanish, yangi yutuqlarga intilish ruhini uyg'otadi.



Bu maketda Rossiya memorchiligiga hos yog'ochdan qurilgan uylarni ko'rasiz. Maketda 19 – asrga mansub qurilgan uy qurilmasi aks etgan. Maketda qish paytining o'rtalari tasvirlangan. Asar mohiyati echimida asosan maketdagi holat, ya'ni tabiiyki uylar qor bilan qoplangan. Bu uylarni so'n'iy uslubda qor qoplangan holatini talaba ishlagan. Bino oldiga endigina chanada kelib ketilgan izlar tasvirlangan. Maydon burchagida quduq tasvirlangan. Quduqqa suvga kelib ketilgan izlar asardagi holatlarning bir qismii ko'rsatilgan.

Quduq yonida usti yopilgan taxtalar qor uyumi tagida qolgan. Qor orqam shu hovlining hayotini tasvirlab bergan. Maydonchadagi qorlar ham notekis, qor uyumlari, izlar, erigan joylari ta'sirchan ishlangan. Binolar esa ko'p yillar davomida xizmatda bo'lib yog'och devorlari eskirib, qor yomg'irlardan qorayib nochor axvolga tushganligidan darak bor. Eshik oldidagi arava va boshqa jixozlarni tasvirlagani talabaning diqqat bilan asar mazmuniga tushunganligidan darak beradi.



29 – maket tahlili

Bu maketda rus cherkovi tasvirlangan. Cherkov tepalikda joylashgan. Qishloq manzarasi bo'lmasada, qishloqqa hos cherkov ekanligi ma'lum. Cherkov atrofi o'tlar va yo'lakcha so'qmoqlar bilan o'ralgan. Cherkovga albatta sig'inishga boriladi. Buning ma'nosi hamma yo'llar cherkov tomon yo'nalishidan bilsa bo'ladi. Ma'yusgina cherkov binosi o'ziga hoslik bilan ishlangan. Maketda cherkov binosiga berilgan ishlovlar o'z maromida. Lekin sinchkovlik bilan qaraganda xato-kamchiliklardan xoli emas. Obrazlar yahshi namoyon etilmagan.



30 – maket tahlili

Bu rasmlar Respublika qo'g'irchoq teatrining mohir rassomi V.G.Akudinning maket va eskizi taqqoslashga namuna sifatida tushirildi. Bu maket ko'p yillar davomida teatr sahnasini bezashda katta rol o'ynagan. Bu maket alohida bir davrlarda sahnaga olib chiqilgan. Asosan maket o'zbek milliy va jahon adiblarining asarlariga ishlangan.

Venyamin Gergieovich Akudin 60 – yillardan 2000 – yillarning boshigacha shu teatrning bosh rassomi lavozimida ishlab keldi va qator asarlarga eskiz va maketlar yaratdi. Uning betakror ishlash uslubi muxlislarni katta xayajonga va shodlik kulgilarga muyassar qildi. Uning asarlari dunyo kezib Evropa, Osiyo va Rossiya davlatlarida namoyish etildi.



Dunyo taniydigan bu rassomning asarlari ko'pgina davlatlar muzeylarida saqlanmoqda. V.G. Akudinga davlatimiz tomonidan Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berildi. Hozir u vafot etgan 2011 yilda.

Demoqchimanqi, bu taniqli rassomning ijodi bo'lajak rassomlarga namuna bo'ladi. Ushbu o'quv qo'llanmada maketlash fani bo'yicha o'rgatiladigan bir qancha misollarni keltirdik. Bu mashqlarda asosan teatr, film tasviriy echimi mutaxassislarga mo'ljallangan bo'lib amaliyot jarayonida qo'yiladigan xato-kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan.

31 – maket tahlili

Tasvirda 1941 – 1945 yillardagi urush vayronasi aks ettirilgan. Bu Berlindagi Reyxstag xarobasidan iborat. Bu maketda talabaning yorqin mahoratini ko'rayapsiz. Maketda urush qoldig'i namunasi aks ettirilib, binoning butun qolgan joyi, yo'q, urishning qanchalik ashadiy o'tganligi bayon etilgan. Hatto maydondagi qoldiqlar real ko'rsatilib, voqea, holat echimi aniq topilgan. Xarobada xaliyam olov yonayotgani aks ettirilgan. Mahobatli obida qanday axvolga tushganligiga ishora bor. Qachondir savlat to'kib, qaysidir yuqori mansabli odamlar qirishi mumkin bo'lgan binoning hozirgi holati juda achinarli axvolga tushgan.



Talaba sinchkovlik bilan ishlov berib, film echimi obraz shaklini mahorat bilan tasvirlagan. Proporcya masshtablarga sinchkovlik bilan e'tibor bergan. Ustunlar, gumbazlar juda tabiiy chiqqan. Rang bo'yoqda yonib kul bo'lgan imorat aksi ishonarli chiqqan. Binoning qurilish texnologiyasiga katta ahamiyat berilgan. Maydon bilan binoning uyg'unligi masshtab asosida qurilgan. Bu bilan talabaning mahorati, uning butun ish jarayonidagi uslublari yaqqol tasvirlangan.

32 – maket tahlili

Bu maketda yahlit ishlangan binolar, uylar qurilmalari ko'rinadi. Bu maket ham film tasviriy echimiga ishlangan bo'lib, unda gumbazli, imoratlar eskirib xaroba axvolga tushgan holatlarni ko'rayapsiz.



Katta imoratlarga ulangan past, qichik uychalar uyg'unligini ham aks etgan. Talaba barcha voqealar taas'surotini bir joyga yig'ib, umumiy ansambl qilib qurgan. O'rtada yurgan odamlar esa uylarni yanada uyg'unlashtirib, ularga tabiiylik bag'ishlaydi. Talaba me'morchilikdagi hamma uslublarni xatosiz joy-joyiga qo'yishga erishgan. Proporciyalar o'lchovlar birligi asosida qurilgan. Rang bo'yoqlar asar holatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan, fakturalar devorning o'ziga hos bo'lgan holatini topib ishlov bergan. Pastdagi uylarning har qaysi o'z qurilish uslubiga hos tasvirlangan. Ular har tomonga qarab qurilgan bo'lsada, milliy uslubdan tashqariga chiqilmagan. Uylar qurilishi kompozitsiyasi asta sekinlik bilan

pistdan tepaga qarab o'sa boshlagan. Bu holat asar echimiga asos borligidan dalolat beradi. Umumiy maket holati milliylik asosida qurilgan. Qismlar uzluksiz bir-biriga bog'langan bo'lib, yahlit ko'rinishga ega bo'lgan.

33 – maket tahlili

Bu maketda Xitoy davlatining bir joyida bo'lib o'tgan voqea tasvirlangan. Umumiy ko'rinishga e'tibor qilsangiz Xitoyga hos tog'lik joy, undan oqib chiqayotgan suv manzarasi, tepada tog' oldiga qurilgan imorat va uning atrofida daraxtlar, o't-o'lanlar, er rel'efi juda ishonarli tasvirlangan. Tepadagi uy Xitoy arxitekturasida asosida qurilgan bo'lib, umumiy ko'rinishga zeb berib turganligi ko'zga tashlanib to'ribdi.



Tepaga chiqish zinalari tog'li joyga hos ravishda qurilgan. Zilol suvlar esa manzaraga jonli ko'rinish baxsh etmoqda. Suvdagi qayiq va undagi odam tasvirida ham obraz bor. Xitoy tabiatini ishonarli bayon etgan. Maketda planga yahshi e'tibor berilgan, uning seqin- astalik bilan tepalikka ko'tarilishi xuddi tabiatni o'zidan rasmga olinganday tasvirlangan. Bu maketda ham talaba asar mohiyatidan kelib

chiqib asar echimini to'la to'kis topgan. Suvning quyosh nurlaridagi jilolanishi yanada mohirlik bilan tasvirlanganligini guvohi bo'lamiz.

Tog' oldi yassi tekislik, tog' yon bag'riga qurilgan qurilmaga xavasing keladigan joyga qurilgandek tuyuladi. Daraxtlar esa o'ziga hos, birlari katta bargli, bir hillari ingichka bargli, xullas hamma izlanishlar o'z isbotini topgan.

34 – maket tahlili

Bu maketda boshqacharoq kompoziciya talablarida vazifa berilgan. Ritmik ko'rinishlar talabaning ko'rish qobiliyatini o'stirishga mo'ljallangan bo'lib, u xar hil ritm asosida qurilgan narsalar tashkil etadi. Yoki uyum toshlar tasviri, yoki yomg'ir yog'ayotgan paytda zontlar ritmi, shularga o'xshash qator mashqlar vazifasi beriladi.



Ular nimalardan tashkil topishiga qaramasdan, ritmik ko'rinishlarni tasvirlash tavsiya etiladi. Mana ko'z oldingizda gugurt cho'plaridan terilgan yongan daraxtzor obrazini shartli qo'rinishini ko'rayapsiz. Shunga o'xshash soat mexanizmini shesteryonkalar almashuvi holati tasvirlangan. Ikkala holatda ham talaba taas'so'rotini rivojlantirish maqsadida Bunday mashqlar qilinadi. Asosan bu mashqlar institutda 1- kurs talabalari bilan o'tkaziladi. Keyinchalik katta maket qurilmalarida ishlash oson kechishiga yordam berishi ko'zda tutilgan.

I- qism. Takrorlash uchun nazorat savol va topshiriqlar

1. Maketlashning tashqi ko'rinishini tahlil qilishda nimalarga ahamiyat berish lozim?
2. "Teatr bezagi rangtasvir" sohasida maketlarning turlarini aniqlang?
3. Teatr maketini, kino yoki televideniya maketlaridan farqi nimalarda?
4. Maketlar qanday o'lchovlarga asoslanib quriladi?
5. Maket qurilmalarida mizan sahnalar qanday aniqlanadi?
6. Maektda holatni aniqlash uchun nimalarga e'tibor beriladi?
7. Maket o'lchov birligida qaysi masshtabga asoslanib quriladi?
8. Maketda chiroqlar qo'yiladimi?

Mustaqil Ish

(Vazifalar kompyuterda bajariladi)

1. Maketlashning tashqi ko'rinishini sharxlab bering.
2. Teatr maketini, kino yoki televideniya maketlaridan farqini aniqlang.
3. Maketda qanday o'lchov birligi asos qilib olingan. Standart masshtabni sharxlang.
4. Mizan sahnalarning ahamiyati va roli.
5. Maketda holatlar qanday ishlovlar orqali aniqlanadi?

II – Qism

Maketlash qutisi, maketlash uslubi

Spektaklning bo'lajak bezagi maketi qichraytirilgan sahnada, ya'ni podmaketnikda joylashtiriladi.

Podmaketnik – bu tabiiy koʻrinishga qaraganda ancha kichraytirilgan sahna hisoblanadi. Teatr podmaketniklari oʻlchamlari odatda 1:20 sm va 1:25 sm xajmida olinadi. Podmaketnik va sahna rejasi bir yuzada bajarilgani maʼqul.


Podmaketnik xajmi va muvofiqligi boʻyicha sahnaga nisbatan mos kelishi kerak, bezakni ifodalovchi maket qismlarni oʻrnatish uchun qulay boʻlgan moslamalarga har tomonlama yondashish mumkin boʻlishi lozim.

Maʼlum sahna uchun bir podmaketnik tayyorlanadi. Unda turli spektakllar uchun maketlar qilinadi. Podmaketnik qismlarga ajratiladigan holda yasalgani maʼqul, shunda u ishlar orasidagi tanaffusda koʻp joy egallamaydi. (1-rasm)

Quyida ikki hildagi podmaketniklarni tavsiya qilamiz.

1 varianti. Balandligi 6, proscenium 1,5, chuqurligi 12, yon choʻntaklari chuqurligi 3, sahna koʻzgusi yuqorisidagi masofa 3 va diametri 12 metr aylana boʻlgan 10 metrga teng koʻzgu kengligida sahna uchun podmaketnik tayyorlaymiz. Podmaketnik yigʻiladigan tarkibiy qismlar koʻrsatilgan, u A, qarobka asosi, karobka asosiga mustahkamlash uchun shitli B arka ravogʻi va V ikki yon romkasi, G bir arka tomon romkasidan iborat. Ular oʻzaro yuqori qismidan mahkamlanadi. Ravoqqa ilmoq va changaklar bilan biriktiriladi.


Podmaketnikning yuqori qismiga bezaklarni osadigan arqonni oʻtkazish uchun ikkita brusoq mahkamlangan planshetda ikki qavatli kartondan yopishtirilgan aylana doira mustahkamlash mumkin. Planshetning qolgan qismi ham ikki qatlamni karton bilan tekislash uchun elimlanadi. Shu usulda tayyorlangan podmaketnik oddiy talablarga javob beradi va ishlash uchun qulay.



1-rasm

A - asosiy kuti, B - portal orkasi, V - yon tamon orkasi,

G - orka tamon romkasi



2-rasm

A-zoldirli va tasma bilan aylandigan doira, B-qo'l bilan aylandigan doira, V-bloklar o'rniga ishlatiladigan bezaklarni ko'taruvchi qurilma.

2 variant. Bu podmaketnik murkkabroq, lekin qulay (2-rasm).

Uning qarobka asosi 2-rasmda ko'rsatilgandek yasaladi, krestovinalardagi A ga diametri 20-25mm bo'lgan sharnir zo'ldirlar o'rnatiladi, ular taxtalardan kesib olingan va shponkalar mahkamlangan doirada aylanadi. Doira faqat quruq materialdan yasalgan bo'lishi lozim, aks holda qiyshayib ketadi. Doira ostiga tokurlik dastgohida yoki 2-rasmda ko'rsatilganidek elimlangan faner doiralardan yasalgan shkiv mahkamlanadi. Bu B shkiv boshqa kichikroq shkivga yo'rmalgan charm lenta bilan birlashtiriladi, uning bo'yoqlaridan biri asos qarobkaning chetiga chiqadi. Bu shkivni qo'l bilan aylantirib doiraga harakat beriladi.

Doirani harakatga keltirish uchun qo'l farmalash jihozlardan ham foydalanish mumkin. Aylanadigan yog'och doira tagiga katta shesternani o'rnatib, u bilan bog'liq kichik shesternani karobka qirg'og'iga mahkamlanadi, uning o'qi uzaytiriladi, podmaketnik yoniga o'tkaziladi va dastak o'rnatiladi. O'q aylanishi uchun har ikkala shesternya sharik zo'ldirlarga o'rnatiladi.

Doira yahshilab markazlanishi va podmaketnik poliga qulay qilib o'rnatilishi lozim. Podmaketnikning pol plansheti doira atrofidan 10 millimetrlil fanera yoki yupka elimlangan quruq taxtachalardan qoplangani ma'qul. Ravoqni old devori 2-rasmda ko'rsatilganidek ramkada qilinadi va karobka asosiga mustahkamlangan ilgichlarga o'rnatiladi.

Sahna ko'zgusi ustidagi ravoqning old devori balandligi sahnadagi g'ildiraklar balandligi bo'yicha aniqlanadi. Bu maketda yumshoq ilinadigan bezaklarni yuqoriga chiqarib olish imkonini beradi.

Old ravoq devori, ko'zgu kesimi va deraza o'ymalari qalinligi maket mo'ljallangan sahna xajmi va shakliga mos ishlangan bo'lishi zarur. Old ravoq devoriga mato tortilgani ma'qul, oyna o'ymasini esa oq yoki yorqin rang bilan bo'yash zarur.

Podmaketnikning orqa va yon qismlari romkadan qilinadi va ilmoqlarga mahkamlanadi. Romkaning romlariga ishchi galereya holatiga mos keluvchi yuza o'rnatiladi. Bu sahna orti, kulis, paduga va boshqalarning kattaligini aniqlash imkonini beradi, podmaketnik makonini cheklaydi. Podmaketnikning yuqorisida

bloqlarning o'rniga ikkita progon o'rnatiladi. U tokarlik dastgohida ishlangan yoki pichoqda o'yilgan bo'lishi mumkin. Progonlarda sahnadagi ko'taruvchi bloklarning joylashuviga mos keluvchi o'ymalar qilinadi. Progonlardagi teshiklar orqali iladigan bezaklar o'rnatiladigan joylariga arqonlar o'tkaziladi. Bunday holatda barcha ilinadigan narsalar sahnaning kerakli joylarida bo'ladi.

Yuqoridagi usul bilan yasalgan podmaketnik ishlash uchun qulay va o'z qurilmasiga ko'ra maketning barcha qismlarini to'g'ri joylashtirish imkonini beradi. (2-rasm)

Qoralama maket

Bezakning xomaki nushasi va taxminiy rejasiga ega bo'lgach, bo'lajak bezaklar uchun umumiy bo'lgan qoralama maket tayyorlashga qirishish mumkin. Qoralama maket tayyorlash muhim bochqich hisoblanadi. Bunda yuza qoralamasi va bezak rejasi podmaketnikka o'tkaziladi. Barcha murvatlar uch o'lchamli hajmda bo'lib qoladi.

Rassom maketga o'tkazilayotgan bezakni qoralamaga nisbatan ochroq bo'lib qolishidan asrashi, Bunda spektaklning obrazini rivojlantirishi lozim. Bunday maketda asosiy predmetlar xajmli qilib yasaladi. Qichik yoqlari ularning bo'lajak ko'rinishini hisobga olib yuzada asl holatida qoldiriladi.

Qoralama maketda ma'lum bezak uchun ko'zgu qorishmasi belgilanadi, padug va kulis hususiyati hal qilinadi, qanday bezaklar polda, pardada yoki sahnaning orqa qismida joylashtirilishi belgilab chiqiladi. Qora lama maket ustida ishlash osonroq ishlov berish mumkin bo'lgan materiallar bilan bajariladi. Eng ma'quli yupqa karton va pishiq qog'ozdan foydalangan yahshi, karkas uchun yupqa 10 x 10 mm xajmli reykanadan foydalaniladi. Qoralama maketda ish bajarish uchun uncha ko'p bo'lmagan asboblari etarli. Murakkab shakldagi dastgohlar, toshlar, tepaliklarni tayyorlash uchun plastilin yoki engil loydan foydalansa bo'ladi. Qoralama maketni tayyorlashdan asosiy maqsad ularni toza maketda tayyorlash

uchun aniqlangan hususiyati va xajmi bilan bezak qismlari uchun bichim va nusxa olishdan iborat.

Qoralama maketda ishlash usullari

Qoralama nushada qoralama maket tayyorlashga kirishib rassom eng avvalo bezak xajmi va muvofiqligini eskiz yuzasidan maket yuzasiga olib o'tish masalasi bilan to'qnash keladi. Qoralama nushada xajmni maketga o'tkazish mumkin emas. Negaki qoralama nushalar ko'pincha maket doirasida ishlanmaydi, shuningdek qoralama nusxa prespektivi bajariladi. Shunga ko'ra bezaklar xajmi old plandagi xajmlardan tashqari oddiy o'lchov bilan maketga o'tkazib bo'lmaydi. Shuning uchun maket yasovchi ko'z chamasi bilan murvatlar muvofiqligi hususiyatini, maketda bajarilgan qoralama nusxa xajmini belgilab olishi shart. Asosiy mebellar xajmi va inson bilan bog'liq bezaklarning bir necha qismlari asosiy ma'lumotlardan foydalanib pavilion qismlarning tegishli xajmi belgilanadi. Agar stulning balandligi 90-100sm bulsa, pavilionning balandligi ana shu stulning nechta o'lchamiga teng ekanligining belgilash zarur. Bunda stul $4\sqrt{4}$ marta joylashar ekan. Stul balandligi 1m bulsa, demak pavilon balandligi 4,25 metrga teng bo'ladi.

Pavilion balandligini bilib uning uchun sahna ko'zgusi qorishmasini belgilash qiyin emas. Maket tuzilishi reja orqali aniqlashtiriladi. Ammo har qanday maketdagi reja sahnadagi o'lchamni belgilamaydi.

Maketdagi oddiy to'siqlar bezak qismlardagi uncha ko'p bo'lmagan matolardan bajariladi.

Rejalashtirishda matolarni vertikal va gorizantal osishda ko'rinishlilik va to'siqlarning yo'qligini tekshirib bo'lgach, ularning kattaligi aniqlanadi, so'ngra varaqda chiziladi va chiziqlar buylab kesiladi.

Kulislar tik turishi uchun ularga karton tagliklar elimlanadi. Chizilgan va kesilgan padugalar karton burchaklariga elimlanadi va ip bilan osib qo'yiladi. Sahna orti bezagi reykgaga mahkamlangan karton qog'ozidan qilinadi va maketning ustqi qismiga ilinadi. Deraza chiziq buylab kesiladi, romlar esa ko'mir bilan chizib

chiqiladi. Matolar, kulis va padugalar buklamlari ham ko'mir bilan chiziladi. Deraza orasidagi tushib turgan yorug'lik oq guash bilan bo'yaladi. Sahna orti bezagi qora baxmal rangiga muvofiq qora ranga buyaladi.

Bunday usulda tayyorlangan maket sahnani bezash haqida to'la tasavvur beradi.

Toza maket

Qora maket tasdiqlangandan keyin, toza maketni tayyorlashga qirishiladi. Toza maket spektaklni bezash loyihasi hisoblanadi. Unga ko'ra chizmalar bajariladi, qattiq bezaklar tayyorlanadi, butaforiya katta hajmdagi bezakning chiziqlari yuritib chiqiladi, yumshoq bezaklar tiqiladi, sahna orti bezaklari chizib chiqiladi.

Toza maket asosida spektakl montaj qilinadi, chiroq bezagi tayyorlanadi.

Maketning u yoki bu qismini tayyorlashga qirishib ashyo hususiyati va shaklini yahshiroq beradigan materialni to'g'ri tanlash muhimdir.

Asboblarni va anjomlar

Toza maketni tayyorlash uchun 50sm uzunlikdagi metal chizg'ich, 60sm uzunlikdagi 20x30 mm yo'g'on metall chizg'ich, burchakli o'lchagich, burchak duradgorlik o'lchovi, kichkina chizg'ich gotovalnya, pichoq shaklida o'tqirlangan duradgor cirkuli, kroncirkul, turli shakldagi bir nechta pichoq yoki medicina qaychisi, katta qaychi bilan karton, qog'oz yupka metall keskich bilan kesiladi, qichik qaychilar bilan matolarning mayda qismlari qirg'iladi. Iskanalar engil va qisqa bo'lgani ma'qul, 12sm uzunlikkacha bo'lgan va boshqa hajmdagi 2 ta metal randa yupka yog'ochlarga ishlov berish uchun ingichka tishli arracha, yog'och dastali otvoryotka, qichik bolg'acha, 0,5 dan 3-4mm gacha bo'lgan metallni teshadigan parma, stolga o'rnatiladigan qisqich, bir nechta metall va yog'och ponachalar, 10-12 dona qisqichlar, elim qaynatgich, egovlash uchun dastgoh, elektr kavsharlagich, 3-4 dona cho'tkalar va boshqalar ishlatiladi.

Maket tayyorlashda turli materiallardan foydalanish mumkin. Yupka karton, qalin qog'oz 1, - 1, 5-2mm shuningdek yahshi sifatli 3 va 10mm faneralar, 10mm qalinlikdagi, 5-10sm enlikdagi taxtachalar, taxta bo'laklari va boshqalar. Yog'och materiallar asosan quruq bo'lishi shart.

Shuningdek mayda mih, shurp, tikuvchi ignachalari, mayda qum qog'ozlar, 0,5-0,8, 1 va 2mm ingichka sim, po'lat va latun elektr simlari, payvandlash uchun qalnylar, yupka matolar, PVA elimi, kraxmal, anilin bo'yoq, guash, moy bo'yoq, belila va boshqa materiallar ishlatiladi.

Maket tayyorlashda qo'llaniladigan barcha materiallar kam miqdorda zarur bo'ladi.


Karton va qog'ozlarda ishlash

Maket tayyorlashda ko'p ishlatiladigan material karton qog'oz hisoblanadi, negaki unga ishlov berish oson kechadi. SHuning uchun eng avvalo karton bilan ishlash usullarini egallash lozim bo'ladi. Maket tayyorlashda sifatli kartonni tanlash zarur. U g'adir-budur ham, yuzasi nihoyatda tekis ham bo'lmasligi kerak.

Eng avvalo kartonda tayyorlanayotgan predmetning yoymasi chizib olinadi, chetlarini elimlash uchun joy qoldiriladi. So'ngra o'tkir pichoq bilan chiziqlar ustidan metal chizgich qo'yib kesib chiqiladi. Bukiladigan joylar kartonning yarim qalinligida kesiladi, so'ngra chetlari bukiladi, mahsus qo'yilgan yo'lak yoki tishchalar cheti buylab bukib elimlanadi (3- rasm).


Bukilgan chetlar qog'oz bulakchalari yordamida ham elimlanishi mumkin. Bunday usulda mo'ljalni elimlash uchun chetlarni qo'shmasdan chizish mumkin. Chizmani ayni qo'shimcha chiziqlarsiz kesib olinadi va bukish uchun qirg'oqlar hosil qilinadi. Karton bilan ishlashda burchak kartonlardan foydalangan ma'qul.

Ulardan shuningdek qattiq kanstruksiylar yaratish uchun ham foydalaniladi. Maketdagi kartonlardan foydalanganda 10x10mm qalinlikdagi yog'och reykalaridan foydalanish ham mumkin. Ulardan karkaslar shuningdek 3-4mm faneralardan kesib olingan bezaklar ham qilish mumkin.



3-rasm

Kartonda ishlash uslubi.



4-rasm

Kartonda va yog'ochda ishlash.

Releflar tayyorlash uchun tegishli shakldagi alohida bo'laklar ham kesib olinadi va ularni bosim ostida elimlanadi. Bunday ashyolar tegishli relefnining pog'onaviy shaklini yaratadi.

Maket uchun mayda qismlarni tayyorlashda kartonning o'rniga rasm chizadigan qalin qog'oz yoki vatmandan foydalanish mumkin. Qog'ozdan ikki uch qatlam qilib foydalaniladi, ular yog'och elim va PVA bilan yopishtiriladi va quriguncha bostirib qo'yiladi.

Yog'och va fanera bilan ishlash


Maket bilan ishlash uchun avvaldan turli hajmdagi reykarlar va yog'och bo'laklarini tayyorlab qo'yish zarur. Maket uchun reykarlar quyidagi xajmlarda tayyorlanadi: uzunligi 80-100 sm, kesimi 1x1 sm, -1x2 sm, 2x2 sm. Barcha tayyorlangan yog'ochlar quruq bo'lishi shart. Yog'och yoki fanerdan 1-3 mm qalinlikdagi reykarlar kesib olish uchun reysmus nomli moslamadan foydalangan ma'qul.

Dumaloq ko'rinishdagi tayoqchalarni tayyorlashda tokar uskunasi reyka uchun ishlov beriladi. To'la dumaloq qilish uchun yog'och tegishli diametrdagi teshik orqali o'tkazib yuboriladi. Dumaloq tayoqcha teshikning devorlaridan kuch bilan o'tadigan bo'lishi zarur. (5-rasm.)

Dumaloq tayoqchani boshqa uskunalar bilan birlashtirishning yana bir usuli bor. Bu holatda tayoqcha bir yog'och bo'lagidan to'g'ridan-to'g'ri shilib olinadi va uni tegishli hajmdagi teshikka qo'yiladi. Dumaloq tayoqchalar qattiq yog'ochdan qilinadi va yog'och bo'lagining parma bilan teshilgan joyiga elimlanadi. Bunday usulda biriktirilgan uskunalar ancha mustahkam bo'ladi.

Maket ustida ishlashda elimning sifati alohida ahamiyat kasb etadi. Asosan PVA va yog'och elimdan foydalaniladi. Yahshi elim tayyorlash uchun yog'och elimi bo'laklari mayda qismlarga ajratiladi va suv to'la bekiteb turishi uchun qaynatgunga qadar 12-15 soat ivitib qo'yiladi. Elimni mahsus elim qaynatgichlarda

qaynatiladi. Bunday qaynatgichlar elimni quyib qolishdan va uzoq vaqt qaynoq holda saqlash imkonini beradi. Maket ustida ishlash chog'ida yog'och va PVA elimidan tashqari kazein, kraxmal va "BF" elimlaridan ham foydalanish mumkin. Turli qismlarni elimlagandan so'ng yuzalarni qisqichlar bilan mustahkamlab qo'yiladi. Buning uchun yog'och va metall qisqichlardan foydalaniladi.



5-rasm

Yog'och bilan ishlash.

1 – yog'ichni randalash uchun tirgagich, 2 – uchburchak bilan qisimlarni tekshirish, 3 – malqa, 4 – shtangel bilan chizish, 5 – ingichka reykalarni qirqish, 6 – dumaloq tayoqchalar tayyorlash.


Barcha yog'och yuzalarni qum qog'oz bilan tozalash zarur. Maket ustida ishlashda asosan mayda qumli qog'ozdan foydalangan ma'qul.

Shuningdek turli qalinlikdagi va har hil kesimdagi 15-25 sm uzunlikdagi yog'och bo'laklarini tayyorlash zarur. Maket ustida ishlashda ko'pincha dumaloq ustunlar, zinapoya tutqichlari, mebellarning dumaloq shaklli oyoqlari kabilarni tayyorlash lozim bo'ladi. Ularni tayyorlash uchun dumaloq tayoqchalar tayyorlash zarur. Bunday qismlarga qichikroq tokarlik dastgoxlarida ishlov bergan ma'qul. Biz yog'ochga ishlov berish uchun qichik stulga o'rnatiladigan tokarlik dastgohining soddada chizmasini keltiramiz. U teatr maketlarining barcha turlarini tayyorlash imkonini beradi (6-rasm). Yog'och bo'laklariga oddiy ishlov berish uchun quyidagi asboblardan foydalanish (4-rasm) mumkin iskana, burchak, yarim doira bir necha razmerdagi iskanalar, har hil shakldagi egovlar, kroncirkul kabilar zarur bo'ladi. 6-rasm.

Tokarlik dastgohida ishlov berishni o'rganish qiyin emas. Katta hajmdagi yog'och bo'laklariga ishlov berish uchun ular dumaloqlanadi. Ular aylanish o'qi markaziga yaqin qilib joylashtiriladi. So'ngra dastak o'rnatiladi, uni ishlov berilayotgan yog'ochga yaqinroq keltiriladi va aylanayotgan o'qqa nisbatan balandroqqa ko'tariladi. Tokarlik ishlarni bajarish chog'ida yog'ochni aylanishi ishlayotganga nisbatan yo'naltiriladi. Yog'och anjomi avval yarim doira iskana bilan ishlanadi, uning yuzasining qirg'og'i yog'ochga monand qo'yiladi. Buning uchun iskanani ishlov berilayotgan yuzaga nisbatan to'g'ri burchak hosil qiladigan qilib tutib turiladi. Yog'och qipidlari iskanani chapga yoki o'nga yuza bo'ylab harakatlanadigan qilib olib turiladi, shu asosda ishlov berilayotgan yog'och diametri tekislanadi.

Ish jarayonida ishlov berilayotgan yog'och diametri xajmi kroncirkul yoki mahsus lekala bilan o'lchab turiladi.

Yog'ochga so'nggi ishlov mayda qum qog'ozi bilan beriladi. Dastgoxga yog'och yuzasini tozlash uchun o'ramli qum qog'oz yoki mis va latun yuzalarni jilvirlash uchun jun mato o'rami qo'yish mumkin.



6-rasm

Tokor stanokda ishlatiladigan asosiy kurollar va ular bilan ishlash

1 – yarim doira stameska, 2 – konyachok, 3 – to'g'ri stameska, 4 – shtangelcirkul, 5 – skoba – lekala o'lchagich, 6 – yarim doira stameska bilan birinchi ishlov berish, 7 – konyachok stameska bilan toza ishlov berish, 8 –

kosyachok stameska bilan qirqish, 9 – tozalashning har hil uslublari, 10 – qisimlarni tayyorlash va ularni montaj qilish.

Sim va yupka metall bilan ishlash

Maketdagi ko'pgina qismlar simlar va latun, mis yoki ruh singari yupka metallardan foydalaniladi. Bunday ishlarni bajarish chog'ida kavsharlash lozim bo'ladi.

Qismlarni kavsharlash uchun 1:3 nisbatdagi qalay aralashmasi qo'llagan holda amalga oshiriladi. Kavsharlashdan oldin yuzalar egov yoki qum qog'oz bilan yahshilab tozalanadi va qislota suriladi. Kavsharlagich qizitiladi, qislota bilan artiladi va nashatir kukuniga solinadi. So'ngra kavsharlagich to'g'irlanadi va o'ziga kukunni yuqtirguncha tutib turiladi. So'ngra kavsharlanadigan yuzalar tegishli tartibda bir-biriga tutashtirib kavsharlagich bilan ulanadi. Agar qalay bir tekisda yotsa kavsharlash me'yorda bo'lgan hisoblanadi.

Gips bilan ishlash

Ayrim xollarda maketda gips ashyolardan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu ashyolar quiish yo'li bilan tayyorlanadi. Gips yordamida shakl olish uchun loy yoki plastilindan tayyorlangan qolipga suvda eritilgan gips qorishmasi yupka qatlam qilib quyiladi. Shakl qotgach, undan plastilin yoki loy qotishmasi chiqarib olinadi, so'ngra un yoki kraxmaldan tayyorlangan elim qorishmasi yuzaga surib chiqiladi, kerosin va prafin sepiladi hamda unga gips quiiladi.

Gips qotgach, shaklning chetlari tozalanadi, shakl asta ag'dariladi va undan quyma chiqarib olinadi. Shakl qotgandan keyin undan quyilma shakl ajaratib olinadi. Maket uchun qotgan yuzaga o'yma shakllarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday o'ymalar pichoq, iskana kabilar bilan bajariladi. 7-rasm

Gips bilan turli boshqa shakllarni ham yasash mumkin. Buning uchun gipsga yupka qatlam qilib qorishma quiiladi va unga tegishli shaklni berish uchun shpatel yoki pichoq bilan tekislab chiqiladi.




7 – rasm

Gipsda ishlash

1-loy material, 2-gipsdan shakl hosil qilish, 3-shakl, 4-pape-mashe elimlash, 5-gipsdan gips shakl quyish, 6-shaklni chiqarib olish, 7-gipsga ishlov berish.

Maket qismlarni tayyorlash. Pavilion va devorlar

Toza maketda pavilion yaratish uchun devorlarni mahkamlash va eshik derazalar o'rmini qilish uchun yupka reykalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bundan tashqari ular mustahkam bo'lishi uchun karton burchaklardan foydalanish lozim. Maketdagi pavilion faqat kartondan emas fanerdan ham tayyorlanadi (8-rasm).



8 —rasm

Faner va yog'ochdan povilon yasash

1-umumiy ko'rinish, 2-devor yasash, 3-pastki taglik, 4-shift, 5-arka, 6-

qisimlarni birlashtirish

Pavilonni tayyorlash uchun 1,5-2 mm fanerada elimlanadigan joy qo'yib pavilion qismlari chizib olinadi. So'ngra qismlar chiziqlar bo'ylab kesib olinadi va hona devorlariga o'rnatiladigan taxtachalar belgilab olinadi. Burchakli iskana, bigiz yoki pichoq uchi bilan taxtalar orasini o'yib ariqcha yasaladi hamda eshik va derazalar o'rni arralab chiqiladi.

Honani 3 qavat qilib elimlanilgan fanerdan yasalgan dastgox ustida yig'iladi. Butun pavilion mahsus ramakalar bilan o'rab chiqiladi, devorlari yupka reykadan qirqib olingan karkas bilan mahkamlanadi. Yog'och uylar devori 8-rasmda ko'rsatilganidek tayyorlanishi mumkin. Buning uchun yupka 1,5-2 mm fanerdan tayyorlangan yopishqoq reykachalarni g'o'la shaklida yopishtirib chiqiladi.

Deyarli barcha pavilionlar qarnizlar bilan yakunlanadi. Ko'pchilik qarnizlar turli shaklda yasalgan reykalaridan tayyorlanadi

Eshik va derazalar

Pavilon devoriga o'yilgan har bir eshik va derazalar mahkamlanadigan qasavaga ega. Bu kasavalar turli qalinlikda tayyorlanadi. Eshiklar ko'pincha devor qalinligining chet qismiga o'rnatiladi, boshqa tomonda esa chuqurlik hosil bo'ladi. (10 rasm)

Maketdagi derazalar yahshi sifatli qalin kartondan yoki ikki-uch qatlamli PVA elimi bilan yopishtirilgan va yuk ostida quritilgan rasm qog'ozdan tayyorlanadi. Deraza romlari chiziq buylab o'tqir pichoq bilan kesib chiqiladi. Deraza qanotlari kengroq bo'lgani ma'qul.

Bir necha turdagi deraza qanotlari butunlay boshqa usulda tayyorlanadi. Ba'zan deraza qanoti ipni diagonal bo'ylab, ba'zan esa ramkani yupka simdan qilgan ma'qul. Ko'pincha derazani tayyorlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin. Derazaga celofan qog'oz tortiladi, qanotlari esa tush bilan chizib chiqiladi. Vitrajli derazalarni yupka fanerdan kesib olinib, romka chizig'i asosini yorug'likda

yaxshi ko'rinadigan qilib tayyorlansa va uning orqasidan matoli kalka tortilsa yaxshi ko'rinadi. Bunday deraza qanotlari tush bilan chizib chiqiladi, shundan so'ng vitrajning chiziqli tasviri pero bilan tushiriladi va anilin, rangli tush yoki foto bo'yoq bilan bo'yaladi.




10-rasm

Eshiklar

tushirilgan murakkab eshiklargacha tayyorlash lozim bo'ladi .

Deraza singari eshiklarni ham yahshi sifatli kartondan yoki bir necha qatlam qilib elimlangan qalin qog'ozdan, shuningdek yupka fanerdan yasash mumkin. Naqsh tushirilgan eshiklarni taxta yuzasiga ma'lum shakldagi bezaklar tushirilgan holda ishlanishi mumkin. Oynali eshiklar oyna o'rnatilgan derazalar qanday tayyorlansa shu usulda yasaladi. Zaklyopka qilingan metal eshiklarni yuzaki pasta qo'llangan holda yasash mumkin.

Deraza, eshiklar tayyorlashda ularning masshtabi, xajmi va muvofiqligini topish muhim hisoblanadi (11-rasm)




11-rasm

Derazalar

Arkalar va gumbazli shiftlar

Turli shakldagi arkalar yog'och yoki faneradan bezak tarzida yasaladi (46-rasm). Qalin karton yoki 1-2 mm ivitilgan faneradan qilinadi.

Murakkabroq gumbazli arka shakllarini yasash uchun old va orqa ko'rinishlari kesib olinishi va mustahkamlashi zarur. So'ngra bezaklarga yupka karton yoki qog'oz qo'yiladi va qalam bilan chizib chiqiladi. Shunda chizmaning bichimi olinadi. Bu bichim asosida kartondan yoki qaynoq suvda ivitilgan faneralardan tayyor qismlar tayyorlanadi. 13-rasm.




13-rasm

Ko'chma qismlar va arqalar

Ustunlar va pilyastirlar

Cilindr yoki konus shakldagi oddiy ustunlar quyidagi usulda tayyorlanadi. Qog'oz quvur shaklida elimlanadi, uning asosiga faneradan taglik yopishtiriladi, ularga baza va ravoq o'rnatiladi. 12-rasmda ko'rsatilgan ustun qog'ozdan

yasalmaydi. Bunday ustunlarni tokarlik dastgohida boshqa qismlari bilan birga yasagan ma'qul.



12-rasm

Ustunlar va plyastrlar

Jim-jimali ustunlarni qog'oz quvurchalaridan yasash mumkin. Ustunga faner yoki kartondan yupka reykarlar elimlanadi. Faneradan yasalgan reykalarni ustunning o'zida mayda qum qog'ozi bilan dumaloqlangan ma'qul .

Ustun shakllari asosini yog'ochdan qirqib olish va tekis tomoniga ishlov berish mumkin bo'ladi. Qadimiy yarim xarobalangan ustunlarni tayyorlashda o'yib bezatilgan gipsdan foydalanish mumkin. Bunda asos gips yordamida quyib olinadi.

Shu usulda pilyastirlar ham tayyorlanadi.


Narvonlar

Narvon tayyorlashda eng avvalo uning xajmini belgilab olish zarur. Narvon bilan chiqiladigan balandlik uning balandligini belgilashga asos bo'ladi. Narvon zinalari turli kattalikda bo'lishi mumkin. Eng ma'qul oraliq 15-17 sm bo'ladi. Zinalar kengligi 10-12 sm dan 23-24 smgacha bo'lishi mumkin. Zinaning kengligi 20 sm dan kam bo'lsa narvondan ko'tarilish qiyin bo'ladi, 35-40 sm dan ortiq bo'lsa maydonga chiqib ketadi.

1-zina xisobi, 2-taxtalardan elimlangan zina, 3-fanerdan elimlangan zina, 4-fanerdan arralangan zina, 5-yarim aylana zina bichimi, 6-sodda zina.

Maketlarda turli shakllardagi zinalar yasaladi. Maketda tayyorlanadigan eng qulay zinalar ko'rsatilgan. Yopiq zinani tayyorlash uchun kartondan yoki faneradan ikki yon tomoni kesib olinadi, ularni ikki-uch joyidan yog'och parchalari bilan mahkamlanadi. So'ngra zinalar tayyorlanadi va fanera yoki kartondan kesib olinadi. Zinalar yuqoridan yopishtirib elimlanadi, ba'zan esa 14-rasmda ko'rsatilganidek osib qo'yiladi.

Dumaloq, yarim aylana va aylana zinalarni quidagicha chizib chiqiladi: zinaning har bir tomonini alohida hisoblanadi va har bir zinaning tomonalarida turli en vujudga keladi. Yarim doira va aylana zinalarni tayyorlash odatdagi zinalarni tayyorlashga o'xshaydi. Zina tutqichlari alohida tayyorlanadi. Maketda ko'pincha simlarni kavsharlash usulida tayyorlangan metall tutqichlar qo'llaniladi.



14-rasm
Zinapoyalar


Dastgoxlar va bo'rtmalar

Geometrik shaklga ega bo'lgan teatr jihozlari deb nomlangan do'ngliklar, ko'priklar, panduslar har bir maketni tayyorlashda bajarilishi lozim bo'ladi. Odatda 20-30sm bo'lgan balandlikdagi to'g'ri stanoklar 3-5 mm bo'lgan faneradan olinlangan ma'qul bo'ladi, ularni ustma-ust qatlam shaklida joylashtiriladi (15-rasm).

Balandroq stanoklar yog'och bo'laklari karkaslaridan qilinadi va yupka faneradan qoplanadi.

Bir necha egik yuzalardan iborat bo'lgan stanoklarning balandligi aniq chizilgan bo'lishi shart. Ularni yupka reyka yoki karton karkaslardan qilinadi. Murakkab shakldagi ko'p yoqlama stanok yog'och va kartondan yasalishi mumkin. Notekis joylarni tasvirlashda noto'g'ri shakldagi do'ng stanoklar uchraydi. Ular fanera yoki kartondan yaasalishi ancha qiyin bo'ladi. Bunday stanokni tayyorlash uchun eng avvalo plastilin yoki loydan stanok modeli yasalishi zarur. Murakkab shakldagi uncha katta bo'lmagan stanoklarni yumshoq yog'ochdan yasash ma'qul.

Daraxtga o'yish usuli ishni bir urinishda bajarish imkonini beradi. Bunda ashyo yasama usulda bajarilgandan ko'ra qiziqarliroq chiqishi mumkin. Yog'och uskunani suyuq moy bo'yoq bilan bo'yash oson bo'ladi.



15-rasm

Murakkab bo'rtma stanoklar


Butalar va daraxtlar

Daraxtni tayyorlash uchun eng avvalo uning nushasini qog'ozda chizib olish zarur. Bu maketda tegishli xarakterdagi daraxtni yasash uchun zarur bo'ladi. So'ngra yog'ochdan ustunning o'zagi yasaladi. U chiziq bo'ylab pichoq yoki iskana bilan kesiladi. Agar daraxt har tomondan ko'rinishi lozim bo'lsa, uni ikki egilgan yuza shaklida kesib olish ma'qul bo'ladi. Ildizning g'adir-budur yuzasini hosil qilish uchun yupka yoki boshqacha buklam yoki tirishga ega bo'lgan qog'ozlarni elimlash yo'li bilan yasaladi. Yirik shohlar asosiy daraxt tanasi qirqib olingan materialdan kesib olinadi. Yog'ochdan yasalgan shohlarga simdan qilingan shohlar qo'shib boriladi. Bu o'rnatilayotgan daraxtning navi va xususiyati ga bog'liq.

Butalarning karkaslari turli qalinlikdagi simlardan qilinadi. Simni tegishli shakl berish uchun egib bukiladi yoki kavsharlanadi. (16-rasm.)

Uzoqroqqa joylashtiriladigan butalar yassiroq shaklda yasaladi. Ular ham sim shohlardan yig'iladi yoki kamroq miqdordagi ashyolardan tiklanadi, unga chiziq bo'yicha kesilgan kraxmallangan tyul elimlanadi yoki shaffof celafan qog'oz qiydiriladi.

Qamich, va don poyalarini tasvirlash uchun ko'p qatlamli elektr simlaridan foydalaniladi, Bunda ingichka mis simlarni aylana shakldagi metall narsaga kavsharlanadi. Mayda qilib qirqilgan qog'ozlardan ham shamolda tebranib turgan arpa yoki bug'doylarni tasvirlash mumkin. Palma barglari klyonka, qog'oz kalka, yupka latun, qo'rg'oshin qog'oz kabilardan yasaladi, ularga bandlar kavsharlanadi.



16-rasm

Butalar va daraxtlar


1-lipa teragi, 2-temir karkasli qog'ozdan qilingan qirqimlar, 3-lipa daraxtini temir karkasga ulangan shoxlari, 4-kraxmallangan tyuldan yasalgan buta shoxlariga sepilgan mayda matolar, 5-mayda simlardan yasalgan o'ralgan ipak mato, 6-qirqilgan kartondan yasalgan buta, 7-relef pastasi bilan ishlov berilgan temir karkasli

buta, 8.9-yog'och qipqlaridan yasalgan archa, 10-ko'p tolali simdan qilingan qamich, 11-qog'ozdan yasalgan archa, 12-yog'ochlarni o'tqaziladigan moslama.

Yumshoq osma bezaklar. O'yma bezaklar

Kesma bezaklar maketda quyidagicha tayyorlanadi. Planshet yuzasiga tortilgan qog'ozga suv bo'yoq, guash, ba'zan moy bo'yoq bilan kesma bezakda tasvirlanishi kerak bo'lgan tasvir chiziladi. So'ngra qalam bilan chiziladigan joylar belgilab chiqiladi. Ular o'tkir pichoq, ba'zan turli shakldagi iskana bilan kesiladi. Bu ishlar tugatilgach bezaklar chiziqli bo'ylab kesib olinadi va yog'och karkasga oliniladi.

17-rasmda kulis, paduga va kesma arkalarini mahkamlash usullari ko'rsatilgan.



17-rasm.

Kesma bezaklar

1-kesishda qo'llaniladigan asbob, 2-kesma bezaklarni ushlab turadigan karkaslar

Bezalgan arka tyul pardalari

Sahnani bezashda teatr tyulidan foydalaniladi. U qandaydir xavoyi muhit tasavvurini berish uchun shaffof parda ko'rinishida osiladi. Tyulni sahna ortida mavjud tasvirlarni yumshatish uchun foydalaniladi, makonning kengligi tasavvuri uyg'otiladi. Tyul bezakdor pardalar sifatida ham foydalaniladi. Ko'pincha tasvir chizilgan sahna orti qismini old planga tortish uchun ham zarur bo'ladi. Bunday tyul orqa tomondagi yuza tasvirini bezak hajmiga o'tkazish uchun ham zarur bo'ladi.

Sahna tyulini gaz matosi bilan almashtirish mumkin. Unda barcha bezaklar va maketdagi sahna ortini ko'rinishi tasvirlanishi mumkin.

Maketda sahna ortini ishlash uchun 10x10 mm qalinlikdagi yog'och reykanan yasalgan romkaga gaz tortiladi. Sahna planshetida yotgan pastqi brusoq agar stanok bilan berkitib qo'yilmagan bo'lsa uni iloji boricha ingichka qilish kerak, ba'zan sim bilan almashtirsa ham bo'ladi. Ramkaga tortilgan gazga purkagich bilan anilin buyog'i sepib turlicha rangda bo'yash mumkin. Zarur bo'lganda gazga anilin suratini mo'yqalam orqali ham tushirish mumkin. Tasvir dastlab qog'ozga tushiriladi va qoralama maketda sinab ko'riladi. Sinalgan tasvir gaz tortilgan ramka ostiga olinadi va unga tasvir tushiriladi.

Ko'pgina sahna uchun tyuldagi bezaklar yaqin planda ko'rinmay qoladi. Shuning uchun uni qalinroq matodan ishlanadi. Sahna bezaklarini uzoqroq joylashganlari engilroq, shaffofroq matodan ishlanadi.

Applikatsiyalar avvaldan tegishli ranglarga buyalgan matolardan tayyorlangani ma'qul. Applikatsiyalar qismlardagi tasvirlar shaffof suv bo'yog'i yoki mato uchun bo'yoqda bajariladi. Ularning shox, sim, ferma kabi qismlari tekislik qorishmasi orqali berish mumkin. Daraxtlarning ildizlari orqa pardalarda qog'oz yoki mato qismlaridan tayyorlanadi. 18-rasm



18-rasm

Applikaciyalar:

1-asqotadigan shaffof mato, 2-ikki qavatli o'sha mato, 3-qalinroq mato, 4-yorug'lik o'tkazmaydigan qalin mato.


Manzara hususiyatidagi shaffof engil orqa pardalarga suv bo'yoq, ayrim joylarda guash bilan bo'yoq berish mumkin. Orqa parda rangini umumlashtirish uchun purkagich bilan ishlov beriladi. To'g'ri tortilgan orqa pardalardan tashqari keng ko'rinishdagi, yoy shaklida tortilgan pardalardan ham foydalaniladi. Orqa pardali ko'rinish tekis, turli rangli, ko'pincha xavorang bo'ladi yoki osmon, manzara tasvirini ifodalash maqsadida shoyi mato yoki boshqa matodan foydalaniladi hamda maket ortiga joylashtirgan chiroq bilan yoritiladi. Bu orqa pardaning ko'rinishini yorqinlashtiradi. Orqa ko'rinishni maketda tasvirlash uchun planshetga qog'oz tortib tasvir berilgan ma'qul.

Sahna suknasi va drapirovka

Ko'pincha spektakllar yahlit sukna yoki ulardan qisman foydalangan holda bezatiladi. Bunday bezatish usuli dastlab maketda o'z aksini topishi kerak. Spektaklni drap matolar bilan bezashda ularni maketda aks ettirish usullarni topish lozim. Maketdagi drapirovka kraxmal shimdirilgan yupka mato yoki qog'ozdan yasaladi. Buklamlangan kulis va pardalar tyul, gaz kabi matolardan qilingani ma'qul.

Yupka reykanan yasalgan romkaga matoni tarang tortib tegishli buklamlar hosil qilinadi. Agar kulisga ma'lum shakl berish lozim bolsa, yuqori qismga osilgan, stol yoki taxtaga buklamlar bilan yoyilgan kraxmallangan doqadan qilinishi lozim. Mato quriganda kulis shaklini saqlab qolish va u mustahkam bo'lishi uchun orqa tomondan gips quyiladi. Gips qurigandan keyin zarur bo'lgan chog'da matolarni buklamlangan holda barxat, shoyi yoki boshqa matolar bilan elimlanadi.

Yirik buklamli matolarni oddiyroq usul bilan ham tayyorlash mumkin. Fanerdan parda shakli kesib olinadi va u egilib ketmasligi uchun taglikka o'rnatiladi. So'ngra faneraga buklamlar surati tushuriladi, uning ustidan suratlar buylab mato parchalari yopishtirib chiqiladi. Fanerani yog'och elim bilan surib chiqiladi va u qotmasdan bichilgan matolar buklamlab yopishtirib chiqiladi. (19-rasm)



19-rasm

Pardalar, darpardalar, yumshoq kulislar:

1-jo'kadan kesilgan darparda, 2-akrilat tyul pardasi tasviri, 3-po'kakdan kesilgan buklamli portal pardasi, 4-karkasda buklamli kulis pardasi, 5-6-buklamlangan va gips bilan qo'yilgan gips.

Mebel

Maketda mebel ishlash asosiy ish hisoblanadi. Mebel hususiyati asosiy xollarda umumiy bezaklarning davr, uslub va hususiyati ni belgilashga xizmat qiladi. Mebel tayyorlashda uning qismlarini xajm bo'yicha doimiy nazorat qilib borish zarur. Negaki maket ustida ishlayotganning asosiy xatosi mebel qismlarini yo'g'onlashtirib yoki qalinlashtirib yuborishda ko'rinadi, natijada u qo'pol chiqadi. Bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun mebel qismlari xajmini aniq hisoblash va tegishli bo'lgan materiallarni e'tibor bilan tanlash lozim bo'ladi. Maket uchun mebel tayyorlash holatini ayrim jihozlarni tayyorlash misolida ko'rib chiqamiz.



20-rasma

Mebel

1-kursi, 2-oddiy stol, 3-shakal berilgan oyoqli to'garak stol, 4-oddiy stul, 5-divan, 6-tumbochka, 7-qitob javoni.

Taburetka maketda 20-rasmda ko'rsatilgan qismlardan yig'iladi. 2 mmlik fanerdan ashyoning ikki tomoni qirqib olinadi, 3 mmli fanerdan esa to'g'ri burchakli qismlar yasaladi. Bu to'g'ri burchaklarga yonidan ikkitadan oyoq elimlanadi. 1 yoki 1,5 mmlik faneradan qopqoq tayyorlanadi, taxtani ifodalash uchun kesiladi, shuningdek uni oyoqlar yopishtirilgan asosga elimlanadi.

Oddiy stolning barcha qismi (22-rasm) yog'och va taxatalardan qilinadi. Burchak qilib oyoqlar yopishtirilgan taxtacha stolning asosi bo'lib qoladi. Oyoqlar dumaloq asos chetlarga o'yilgan joylarga mahkamlanadi. Stol qopqog'i 1,5 mi-li fanerdan qilinadi va stol asosiga elimlanadi.





22-rasm

Kresla:

1-yostiqli kreslo, 2-shakl berilgan kreslo, 3-yumshoq kreslo

Ishlov berilgan oyoqlarga o'rnatilgan dumaloq stol 22-rasmda ko'rsatilganidek yig'iladi. Dumaloq qopqoq uchun 1 mm qalinlikdagi ikki qatlam fanera yopishtiriladi. Qopqoq tagiga 5 mm fanerdan yasalgan qichikroq diametrlik doira yopishtiriladi. Stol oyoqlarini tokarlik dastgohida shilinishi yoki pichoq bilan o'yib yasaladi. Bunday stol PVA yoki yog'och elim bilan yig'iladi.



21-rasm
Mebel toplami

So'yanchiksiz kushetka yasaladi. O'tirgich taxtadan, yostig'i esa qipiqlardan tayyorlanadi. Kushetka tayyor bo'lgach unga qadimiy tus berish uchun qum qog'oz bilan ishlov beriladi.

Kravat tumbohkasi taxtachalardan yasali b ustidan faner qoplanadi, burchaklari to'mtoqlanadi.

Kitoblar guruhi tikkasiga kesilgan taxtachalardan yasaladi.

Mebellar to'plami va ularni tayyorlash 21-rasmda ko'rsatilgan.

Yostiqli kreslo quyidagicha tayyorlanadi. Fanerdan 2 ta yoy va o'tirg'ich tayyorlanadi, 4 ta yupka dumaloq tayoqchalar kesib olinadi. Doira va o'tirg'ichlarda teshik ochiladi va ularga tayoqcha tiqilib kesib olinadi. So'ngra g'ildirakchali 4 ta oyoq tayyorlanib ularni o'tirg'ich teshiklariga elimlanadi. Lipadan yostiq qilinadi uni o'tirg'ichga elimlanadi.

Yumshoq kreslo butun g'oladan iskana bilan o'yish mumkin. So'ngra uni qog'ov yoki qum qog'oz bilan tozalanadi.


Rezbali kreslo ko'rsatilgan. Rezba to'latilgan o'rin relefli qorishma bilan bajariladi. Yumshoq g'ilofi yupka taxtachalardan qilinadi.

Oynavand eshikli shkaf quyidagicha yasaladi. Ramka eshiklari kesib olinadi, unga panjarachalar o'rnatiladi, ular ingichka simdan yasaladi. Metal mis eshikni ifodalovchi ramkaga celofan qog'oz yopishtirish bilan maketda oyna hosil qilinadi.

Servantni quti shaklida yupqa fanerdan yasaladi. Quti burchaklariga lipaning ishlov berilgan bo'laklari o'rnatiladi, yuqorisiga qopqoq qo'yiladi, u butun ashyoning umumiy shakliga o'xshaydi. Qopqoq chetiga ishlov berilgan, biroz atrofga chiqib turadigan qilib yasaladi. Servant eshiklari buklamlar va chiziqlar bilan bezatiladi.

Zamonaviy kreslo 23-rasmda ko'rsatilgan. Kresloning yumshoq o'tirgichi va no'yangichi butun lipa bo'lagidan kesib olinadi va yuzasi tekis bo'lguncha qum qog'ozi bilan ishqalanadi. Tegishli shaklda kesib olingan oyoqlar kreslo tagida

ochilgan teshiklarga elimlanadi. 23-rasmda yupka fanera va lipa bo'laklardan kesib olingan kreslo qismlari ko'rsatilgan.



23-rasm

Zamonaviy mebel:

1-oynavandli, eshikli shkaf, 2-kreslo

Metall muruvvatli mebel. Stol (25-rasm) 2 mm ingichka latun sim qo'llab yasalgani ma'qul.



25-rasm

Temir qisimli mebel

Latun bo'laklardan 3 ta xalqa kavsharlanadi, ularga tugunsimon sim oyoqchalar mahkamlanadi. Latun xalqaga ingichka akrilatdan kesib olingan doira qo'yiladi, chetlari yaxshilab qum qog'oz yoki jun mato bilan artib tozalanadi.

Sim va lipa qog'ozi qo'llab ko'rsatilgan kresloni yasash mumkin. Bu kresloning o'tirg'ichi va so'yang'ichi yog'ochdan qilinadi. Ularning ustiga yupka mato elimlab chiqish mumkin. Simni karkas shaklida egib qo'yiladi. Karkasning yog'och qismiga ignalar bilan biriktiriladi, ular yog'ochga qoqib qo'yiladi. Sim yordamida qalayni qo'llab metal qaravot, venacha stol, venacha tayoqcha va boshqa narsalar yasash mumkin.

Biz yuqorida ko'p qo'llaniladigan mebel qismlarini tayyorlash va ularga material tanlash usullarini ko'rsatib berishga harakat qildik.

Maketga shakliy ishlov berish

Maketning barcha qismlari tayyorlangandan so'ng shakliy ishlov berishga muhtoj bo'ladi. Bunday ishlov berishda eng muhimi – maketda tayyorlangan shakl va uning sahnadagi ko'rinishi orasida to'g'ri mutanosiblikni topish zarur hisoblanadi.

Maketda qismlarga shakliy ishlov berish sahnadagi mebelni qoplash uchun ishlatiladigan materialdan qilish mumkin emas. Bunga sabab matoning iplarini yirikligidadir. Maketda mato tanlashda sahnada bajariladigan bezaklarning qanday materialdan bo'lishiga e'tibor berish zarur bo'ladi. Masalan shisha quvurchalar material asos hisoblangan maket yasashda sof metalning bo'laklaridan foydalaniladi. Ammo Bunda qanday sahna materiali u yoki bu maket shaklini almashtirishi mumkinligini xal qilish zarur.

Maketda qo'llaniladigan shakl predmetning hususiyatini ko'rsatishi, uning xayotdagi o'xshash predmetini ta'kidlashi lozim.

Binoing ichki va tashqi qismlari uchun shakl ishlov berish paytida surat chizadigan qalin qog'ozdan foydalanish ma'qul. Bunday qog'ozlar qatlamli maket qismlarni yig'ishga imkon beradi. Qismlarni yopishtirish uchun kraxmal yoki

yog'och elimdan foydalanish mumkin. Elimlangan qog'ozning yuzasini suvbo'yoq, guash va moybo'yoq bilan bo'yash qulay.

Qog'oz yopishtirilmagan va bo'yalishi zarur bo'lgan yuzalar bo'yashdan oldin yaxshilab tozalanishi zarur. Ammo Bungacha yuza shpaklovka qilinishi lozim. Negaki shpaklovka bilan yog'ochning o'nqir-cho'nqiri maketning tekis elimlanmagan yuzasini tekislash mumkin. YAhshilab shpaklovka qilingandan keyin bir yoki bir necha marta buyaladi. Bu bo'yoq quruq ruh belilalar yoki alif qo'shilgan meldan iborat bo'ladi. Bunday qorishmani aralashtirish uchun yaxshilab qaynatish zarur. Yuzaga har gal qorishma surilgandan so'ng mayda qum qog'ozida tekislab chiqiladi.

Agar o'nqir-cho'nqir yuza olish zarur bo'lsa, shpaklovkalangan yuza qattiq tolali cho'tka bilan tirnab chiqiladi.

Ashyolarning maketdagi turli tuman shakllarini berish uchun shpaklovkani o'zidan ham foydalanish mumkin. Bunda shpatel bilan u o'nqir-cho'nqir qilib berib chiqiladi, qolaversa tosh tuproq yuzalarni ko'rsatish uchun notekis suvoq qilinadi. Baland-past yuza olish uchun elimli qog'oz qorishmasidan foydalaniladi. Undan yirik toshli yuzalar, o'nqir-cho'nqir erlar, loy singari yuzalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Unga har qanday tegishli rangni aralashtirish bilan zarur bo'lgan joy rangini hosil qilish mumkin.

Oldingi planda toshlarni ifodalash uchun turli rangdagi penoplast bulaklardan foydalanish mumkin. Maysa o'sgan yuzalarni ifodalash uchun anilin bilan bo'yalgan uzun tolalardan foydalaniladi. Maysa orasidan o'tadigan yo'llarni ifodalash uchun tolalar yuzasini payalnik bilan quydirib chiqiladi. Arpa va qamichlarni ifodalash uchun bir uchi titilgan arqon yoki ko'p simli elektr simidan foydalaniladi.

Undan tashqari shakliy ishlov berish uchun yiltiroq qog'oz, jun, shoyi, chit kabi matolar bo'lagidan foydalanish mumkin.

Maketda shakliy ishlov berish uchun turli materiallardan cheklanmagan ravishda foydalanish mumkin. Faqat tegishli shaklni tanlashda topqirlik zarur bo'ladi. SHunda qo'llangan ashyo sahna bezagining ma'nosini to'la ochib beradi.

Maketni bo'yash va bezash

Maket suv bo'yoq, guash va moy bo'yoq bilan bo'yaladi. SHuningdek anilin, foto, tempera, pastel kabi bo'yoqlardan ham foydalaniladi. Guashni bo'yash uchun hech qanday elim vositasidan qo'shimcha qilmay, faqat suvda eritiladi. Ular bir muggni ikkinchisi bilan berqitish imkonini beradi. Ammo guashni bir yoki ko'pi bilan ikki marta bergan ma'qul. Ketma-ket berilgan guash rang sofligini yo'qotadi va qurigandan keyin ancha oqarib qoladi. Uning bu xususiyati ni yodda tutish zarur. Guash berishda yumshoq mo'yqalamdan foydalangan ma'qul. Guash bo'yoqni purkagich orqali ham sepish mumkin.

Orqa tomon bezaklarni ishlashda guashdan foydalangan ma'qul. Negaki, u chinli bo'yoqlarga yaqin turadi. Guash bilan to'g'ridan-to'g'ri fanera, karton, pape-mushe, yog'och, qog'oz kabi materiallarga avvaldan ishlov bermasdan bo'yash mumkin.

Maketda suv bo'yoqdan kam foydalaniladi. Undan ko'pincha engil orqa pardalarni bo'yashda, yorqin pavilionlarni bezashda foydalaniladi. Maketlarni bo'yash va bezashda moyli bo'yoqdan keng qo'llaniladi. Moybo'yoq asosan avvaldan mahsus tayyorlangan, olif bilan qoplangan, shpaklyovka bilan mahsus ishlalib tekislangan yuzalarga beriladi.

Shpaklyovka berilgan yuzalarga suyuq moybo'yoq bilan ishlash yahshi natija beradi. Ayrim predmetlarni yaltirab turishi uchun emal bo'yoqlar beriladi. Emal bo'yoq sqipidarda eritiladi. Bazan maketni bo'yashda nitroemal va nitrolakdan foydalaniladi. Ularni acetone yoki mahsus eritmalar bilan suyultirish mumkin.

Maketni bo'yashda spirt laklari keng qo'llaniladi. Spirt laklari asosan yog'och yuzalarga suritiladi. Negaki u, yog'ochni yaltiratib, qatlamlarini ko'rsatadi. Yog'ochni spirt laki bilan bo'yashda qizil, jigarrang, yashil ranglar qo'shish mumkin va ularda turli daraxtlarning yog'ochlar rangini hosil qilinaadi.


Maketda oltin yoki kumush rang berish uchun bronza va alyumin kukunidan foydalaniladi. Bunda yuza yorqinroq ko'rinishi uchun moybo'yoq ustida bronza yoki alyumin kukunini changitib sepish yahshi natija beradi. Maketning o'nqir-

cho'nqir yuzasini bo'yash uchun siqma pastalardan foydalaniladi. Pasta qotmasdan turib bronza yoki alyumin kukuni changitiladi.

Ayrim maketlarni tayyorlash uchun, ayniqsa ertak spektakllarga maket tayyorlanganda nurlanadigan bo'yoqlardan foydalaniladi. Ular ultrabinafsha nurlari berilganda tomoshabinga yahshi ko'rinadi. Bu bo'yoqlar yoritilmaguncha rangi bilinmaydi. Shuning uchun ularni avvaldan tayyorlangan tasvirga tushirish mumkin. Yorqin fosforli chiroqlar bezaklarni o'zgacha jilolatib yuboradi. Maketni bo'yashda masshtab o'lchami tasavvurini berish muxim hisoblanadi. Xususan bo'yalgan joy sahnada 20-25 marta kattayishi mumkin. Maketni bo'yash ishning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Agar bu ish noto'g'ri bajarilsa yahshi natijalarga olib kelmaydi. Maketlar aynan xomaqi chizmaga muvofiq holda buyalishi va bezatilishi zarur. Shundagina bajarilgan ish yahshi natija beradi.

Maketni yoritish

Maketni tayyorlashda sahna bezagi haqida tasavvur hosil qilish zarurati bo'lganda, sahna bezagi yoritilganda qanday ko'rinishda bo'lishini tasavvur qilish zarur. Shuning uchun maket ham sahna chirog'i bilan yoritiladi. Maket qismlari to'la manoda tegishli rangda bo'yaladi. Xuddi shu holatda sahnaga o'tkaziladi. Shuning uchun maketni sahnadagidan qaraganda chiroqlarni joylashishi kuchliroq bo'lishi zarur. Ko'pincha maketni yoritish uchun qichik hajmdagi pushka, pistalet, qichik chiroqdan iborat sahna uskunalaridan foydalanish mumkin. Maketni Bunday asboblardan yoritish chizmasi berilgan. 26-rasmda ko'chma yorug'lik manbasi sifatida ishlab chiqarish lampalaridan foydalanib, maketni yoritish chizmasi berilgan. Ularga rangli shishalar qo'yish yo'li bilan boshqa turli hildagi ranglarni hosil qilish mumkin. 27-rasmda Bunday lampalarni maket tagiga o'rnatish ko'rsatilgan.




26-rasm

Teatr maketini sahnada yoritadigan elektr moslamasining chizmasi:

1-qichik sahnani yoritadigan to'pponchasimon moslama, 2-qichik sahnani

Yoritadigan pushkasimon moslama, 3-rangli filterli har tamonga yorug'lik beradigan moslama, 4-orqa zadnikni yorituvchi osma moslama.

Lampa o'rnatilgan sharnir qurilmalari bir nuqtadagi yoritish asbobidan foydalanish imkonini beradi. Sahnada ko'plab yoritish asoboblaridan foydalanishni o'sib borishi ulardan maketda ham foydalanish zaruratini paydo qilyapti. Sahnaning orqa qismida shaffof matodan pardalarga moybo'yoq bilan ishlov berilgan joylarni yoritish orqali yahshi chiroq ranglari samarasiga ega bo'lish mumkin. (27-rasm.)



27-rasm

Tashkilot cexlarida ishlatiladigan yorug'lik chirog'i bilan maketni yoritish chizgisi.

1-podmaketnikka mahkamlanuvchi 4 ta yorug'lik chirog'ining umumiy ko'rinishi, 2-foydalanishda ishlatiladigan 4 ta chiroqlarni yoritish imkoyatini ko'rsatuvchi chizgi (tepadan ko'rinish), 3-romkalarni filtrlar bilan mahkamlangan qurilmasi

Teatr maketi ustida ishlash tajribasini o'rgata borib, teatr maketini biz taklif etgan eng qisqa, to'g'ri, engil tayyorlash usullari bo'lajak mutaxassisga yordam berishi mumkin. Uni yaratishda ko'pchilik xatolar va muvaffaqiyatsizliklardan qutilish yo'li ko'rib chiqiladi. Ammo ushbu risolada ko'rsatilgan usullar yagona va eng zaruri xisoblanmaydi. Maket ustida ishlayotgan ijodiy ish kishisi bo'lishi, yangi yanada

qiziqarliroq usullarni topishda tashabbuskor bo'lish lozim. Faqat shundagina teatr maketini tayyorlash qoniqishga olib keladi va zaruriy natijani beradi.

II- qism. Meketlash uslubi (maketlash qutisi)

Takrorlash uchun nazorat savol va topshiriqlar:

1. Maketlash uslubida maketlash qutisining ahamiyati.
2. Maketlashda maket qurilmalari necha marta qichraytiriladi? Masshtabda aniqlang.
3. Maketlashda maket qurilmalari nimalardan tayyorlanadi?
4. Qoralama maketning ahamiyati.
5. Toza maketda nimaga ahamiyat beriladi
6. Maket qurilmalarida qanday ashyolardan foydalanishni aniqlang
7. Qattiq bezaklar bilan yumshoq bezaklar farqini sharxlang.
8. Mebellar yasashda orginaldan farqi nimada?

Mustaqil ishi

(Vazifalar kompyuterda bajariladi)

1. Maketlashda maket qutisi nima uchun quriladi va rassom bilan rejissyor nimalar ustida tortishuv ketishini sharxlab bering.
2. Maket qurilmalari nimaga kichraytirilgan holda badiiy mulohazaga qo'yilishini aniqlab bering?
3. Qoralama maket nima uchun tayyorlanadi?
4. Toza maketga o'tishdagi qoralama maketning ahamiyati nimada?
5. Maket qurilmalarida ishlatiladigan ashyolarni nimalar yoki qanday ishchi qurollardan foydalaniladi.

6. Qattiq bezaklar nimaga qattiq deb atalishini va nimalardan foydalanish usullarini tushuntirib bering.
7. Yumshoq bezaklar haqidagi tushunchalar va ularni qanday tayyorlashni aniqlang va sharxlang
8. Mebellar yasashda sahna mebeli bilan xayotda ishlatiladigan mebellarni farqi va ular qanday usulda tayyorlanishini sharxlab bering?
9. Chiroqlarning roli va ahamiyatini sharxlang.

III-qism

Umumiy qism

Spektakl tushunchasidan hosil bo'ladigan boshqa jixatlar orasida dekoraciya alohida o'rin egallaydi:

1. Dekoraciya, eng avvalo harakatning tashqi tomoni tuzilishining urni va hususiyati ni belgilaydi (agar bu zarur bo'lsa) va tomoshabinga pesa mazmunini tushunishni engillashtiradi.
2. Aktyorga yordam beradi va uning harakatlarini, muxitni ancha ifodali qiladi.

Shunday qilib, dekoraciya aktyorga muallif fikrini ochishda yordam berib, amaliy va ishlab chiqilgan maksadni amalga oshiradi, tomoshabinga esa spektaklni idroq qilishga ko'maklashadi. Avval bezovchi-rassomlar o'z vazifasiga bir tomonlama yondashgan, ular voqea ketayotgan joy rasmini katta yoki qichik darajada tasvirlashga intilgan va spektakl mazmunidan yuqori asosga qo'ygan.

Bizning zamondagi pesa sur'at, mazmun, rasmlar soni jixatdan eskilaridan fark qiladi. Bu farq zamonaviy voqealarga bag'ishlangan pesalarda, ayniqsa, sezilarli bo'ladi, eski pesalarda 4-5 ko'rinish doirasida sigdirish mumkin bo'lmagan

ko'rinishning jadal sur'ati 10 yoki undan ortiq epizodlar bo'lgan pesaning yangi shaklini talab qiladi.

Zamonaviy pesa tili, undagi voqealarning rivojlanishi va usishi – bular hammasi juda qisqa, vaqtga ko'ra tez, mazmunni ochib beruvchi so'zlar kamligi bilan farqlanadi. SHuning uchun, pesaga bizning shaxsiy xayot emas, ijtimoiy xayotimizdan bir qismini kiritish uchun, pesaning xar bir sahnasini qisqartirishga, faqat eng asosiylarini ko'rsatishga, ikkinchi darajali voqealarni tashlashga yoki ikkinchi planga utkazishga to'g'ri keladi. Zamonavly dekoraciya zamonaviy pesaga o'hshash bo'lishi kerak. Barcha ikkinchi darajalilar tashlanadi, faqat asosiy, muxim jixatlar aniqlanadi.

Bezaklar aktyorning vazifasini engillatish, mukammallashtirish va ko'rsatib berishdek asosiy vazifani olib, o'zining "bezatish" vazifasini yo'kotdi va mashina yoki dastgox mohiyatiga ega bo'ldi, shuning uchun ham "dekoraciya" ko'pincha "o'rnatish" yoki "narsalar bilan bezatish" so'zlari bilan almashtiriladi.

Turli holatlarda bezatish imkoniyatlari materialning shakl va ishlatilishiga bog'liqligi.

O'rnatish yoki bezatish aktyordan ishlashda etakchi rolga ega bo'lib, tasviriy yunalishdagi elementlarni amalga qiritish zaruratini rad etmaydi (kartina, portret, yog'och, gullar, lavxalar va boshk.). Matoga bo'yoq bilan ishlangan, yozma, kartinali yoki illyuzion dekoraciya chiqindisi bezovchining imkoniyatini kengaytiradi.

Kim shaxar teatrlari yoki yahshi klublarda bo'lgan bo'lsa, u erda "qurilgan" dekoraciyanı ko'rishi mumkin, matoga yozilgan yoki turli materiallardan tayyorlanganlarini: yog'och, temir, karton, arqon, setka, mato va boshqa ashyolarni ham ko'rish mumkin. Turli materiallardan bezash xarakterli detallarni aniq, bo'rttirib ko'rsatishga pesaning voqea joyini ososlarini aniqlashga va sahnalashtiruvchining rejasini ko'rsatishga yordam beradi.

Zamonaviy pesa akterlar guruxini keng tarqalishini talab qiladi, shuning uchun faqat, sahna korobkasidagi ish yigik bo'ladi va tomoshabinni sahna bilan bog'lash harakatini amalga oshiradi. Bunday holatda bezovchi bezashning tarxini chizishda ushbu vaziyatni ko'zda tutishi kerak bo'ladi.

Ba'zan bezash ochiq maydonda, xavodagi estrada, avtomobilda, temir yul platformasi va boshqa joylarda quriladi. Bunday joylarga dekoraciya qilish bezovchidan alohida ijodiy yondashishni, materialni maksadli ishlatishni talab qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, spektaklning xayotiy mazmuni, turli sharoitlar, materialning keng turi bezovchiga ijod uchun kata imkoniyat beradi. Bezovchi ish metodlarini aniqlashi va sog'lom to'g'ri "tanlovni" rivojlantirishi kerak.

Bezatish asoslari.

Dekoraciya javob beradigan asosiy sharoit o'rnatishdan to'la va qisman foydalanish mumkin bo'lgan ma'nodagi qulaylik, soddalik, teatr ifodaviyligi, shakllar va umumiylik hamda ayrim qismlarning turlarini o'zgartirishda qulaylik va tezlik barcha qismlarning mustahkamligi va engilligi va yig'inchoqligi kabilar kiradi. Ushbu sharoitlar texnik imkoniyatlar va kupchilik uchun badiiy talqin qilish bilan mos bo'lishi kerak.

Akterga yordam beradigan, uni to'ldiradigan va uni ochib beradigan dekoraciya qulay dekoraciya deyiladi. Juda katta xajmli dekoraciya akter mahoratini "so'ndiradi" (pasaytiradi), juda qichik xajmli esa tomoshabin ko'zini toliktiradi, uni akterdan chalg'itadi.

Dekoraciyani ko'rish kostyum va grimdagi akter harakati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, shuning uchun u o'zining bor ko'rinishi xuddi akterdek (xayotdagi insondan farqli ravshda) teatrga oid va jonli bo'lishi kerak. Zero, akter xayotning "murakkab" tilidan foydalanib, insonni kuchaytirilgan so'z, vaziyat va imo-ishora bilan tasvirlaydi, shunga ko'ra dekoraciya ham xayotiy "naturalistik" shakllarni aniq

takrorlamasligi kerak, balki ularni murakkab teatr ifodaviy ko'rinishda talqin qilishi lozim.

Akter va bezatish orasidagi Bunday aloqaning tushib qolishi oqibatida tomoshabin taassuroti bo'linadi yoki ansambl (birgalik) yukoladi.

Shunday qilib, sahnalarning zamonaviy tematikasi va cheklangan imkoniyatlari bezatishning hususiyati ni qisman belgilab beradi.

Bezatish elementlari, kompoziciya.

Dekoraciya akterga o'zini ko'rsatish, ijrosini ko'rsatishga yordam bersa, bezashning asosiy qismlari – bu maydon, zinapoya, stanoklar bo'ladi, ular orqali akter tomoshabinga ko'rinadi. Akter harakatlanadigan konstruksiya asosi yoki o'rnatish negizi bu stanok yoki minbar, pillapoya yoki pog'ona hisoblanadi.

Harakat urnini ko'rsatuvchi va rang hamda shakl berish yuli bilan "kayfiyat" yaratuvchi tasviriy yunalishdagi jixatlar muxitning alohida yoki mahsus ishlangan predmetlari (ustunlar, eshiklar, shitlar, turli yirik va mayda butaforlar, plakatlar, chaqiriklar va boshk.) bo'lishi mumkin. Ba'zi jixatlar bir paytning O'zida ham tasviriy ham ish vazifasida bo'lishi mumkin, shunday shitlar sahnadagi masofa orasini ajratadi (xizmatga oid), tashqi ko'rinishiga tasviriy ko'rinishda kerakli imkon beradi.

Kompoziciya, sahna makonini tashkil etish.

Agar bezatishda ayrim qismlar muvaffaqiyatli "mahkamlangan" bo'lsa, bunday dekoraciya yahshi taassurot koldiradi, barcha qismlar bir-biriga razmeriga ko'ra mos bo'ladi, harakatlanishi uchun qulay hisoblanadi. Agar rang va shakliga ko'ra akterni ko'rsatsa va kerakli kayfiyatni uyg'otsa (akter bilan yashasa), Bunday bezatish kompoziciyaga ko'ra yahshi hal etilgan hisoblanadi. Bu nimani anglatadi? "Kompoziciya" so'zi joylashtirish ma'nosini bildiradi.

Kompoziciya sahnaga qismlarni maqsadga muvofiq tarzda joylashtirishni anglatadi, zamonaviy inson ko'ziga yokimli taassurot qoldiradi. Biz endigina ish faoliyatini boshlayotgan bezovchi uchun asosiy konunlar bilan tanishdik, bular 1) sahnaning bir tarafini boshqasiga ko'ra keraksiz narsalar bilan to'ldirmaslik, 2) sahnaning old qismini to'ldirmaslik, 3) imkoniyatga qarab akterni faqat tekis joyda ko'rsatish bilan qifoyalanmasdan, uni sahnani tik ko'rinishidan foydalanib yuqoridan ko'rsatishga ham harakat qilish kerak, 4) akter figurasini yukotadigan katta ko'rinishdagi dekoraciya bilan qizikmaslik kerak. Yuqoridagi koidalarga quyidagi qo'shimchalarni qiritish mumkin, ya'ni yuzaki dabdaba bozlikka berilmaslik, kaysidir bir siyqasi chiqib ketgan usulga yopishib olmaslik, zerikarli simmetriyadan kochish, hama narsani sodda, mustahkam va pishiq qilib ko'rish, har doim yangi imkoniyatlar qidirish, ham mavjud uskuna va moslamalardan va yangilaridan unumli foydalanish ana shular jumlasidandir.

Sahnada shakl va rang xaqida

Dekoraciya qurilmasi bo'yicha amaliy maslahatlarga o'tishdan avval bezaklarda shakl va rangning ahamiyati va ularning o'zaro munosabati xaqida bir nechta so'z aytish zarur.

“Shakl” so'zini katta hajmdagi ashyo sifatida ham, shuningdek O'ziga hos xususiyat va shaklga ega bo'lgan yuza qismi sifatida ham tushunish mumkin. Xususan, doira, yassi, uchburchak, to'g'ri, noto'g'ri va boshqa shakllar bo'ladi – bu har bir tushuncha uchun uning uchun hos bo'lgan ma'lum shakl mos keladi.

Har qanday ashyo nimadan yasalganligi, unga ishlov berilganligi yoki buyalganligi, uni ko'rish chog'ida yoritilganligi kabilarga qarab o'z rangiga ega bo'ladi. Bu uch asosiy “rang” holatlaridan foydalanish dekoraciya ishida bir hilda muhimdir. Ayniqsa mahorat bilan foydalanilgan tabiiy material kiritilgan dekoraciya sahnadan juda yahshi ko'rinishi mumkin. Albatta bu narsa yoki predmet “xayotdagidek” tabiiy shaklga ega bo'lishi shart degani emas. Material dekoraciyaning tomoshabinga uning tashqi yuzasini, ya'ni “shaklini” alohida

namoyon etish maqsadida foydalaniladi. Hususan, elim bo'yoq, lak yoki tunuka bilan qoplangan yuza butunlay o'zgacha taasso'rot koldiradi. Bu har bir yuzalar o'zigagina hos bo'lgan xususiyatlarga ega va ana shu xususiyatlariga ko'ra bezak yunalishiga qarab foydalaniladi. Material va uning yuzasiga ishlov berish xaqida qitobning ohiridagi bo'yoqlar va bezaklarning ayrim jixatlari tasviri xaqidagi so'nggi bobda batafsil gapiriladi, hozir esa yuqorida aytilganlar bilan cheklanamiz.

Kompoziciya xaqida gapirganda yirik hajmdagi ashyolardan ehtietkorlik bilan foydalanish zarurati ta'kidlangan edi.

Shakl, xajm va yuza – bularning barchasi bezash elementlaridan, dekoraciya tayyorlash chog'ida bezakchi aynan o'shalar bilan ishlashiga to'g'ri keladi. Rol ijro etishga qulay bo'lgan ko'rsatmani berish maksadida aktyor tegishli koidalarga tayanib shuni e'tiborda tutishi zarurki, pesaning mazmuni shakl, umumiy kompoziciya va rangni topish ma'nosida eng bosh xususiyat hisoblanadi. Pesa personajlarining maishiy, ba'zan esa ularning xayot tarzining mahalliy xususiyatlarini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Sahnani bezashda bularning barchasi o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Pesa mazmuni bezakning umumiy tuzilishi va maishiy hususiyati, ba'zi dekorativ qismlari uchu nasoz bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, jamiyatdagi jiddiy ijtimoiy masalalar, kurashlar xaqidagi, tarixiy voqealarga bag'ishlangan pesalarga "quvnoq", "issiq" bo'yoqli va "engil" shakldagi dekoraciya ishlash mumkin emas. Bu holatda jiddiy dinamik tuzilishdagi shakliga ko'ra nihoyatda ulug'vor, bo'yoqlari "sovuq" tantanavor dekoraciyalar ishlanadi. Umuman, jiddiy mazmunga jiddiy bezash uslubi mos kelishi kerak. Aksincha, komediya, kulgibop pesalardagi rollarni og'ir shaklli, "sovuq" ranglardagi dekoraciyalar fonida ijro etish butunlay mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Maket xaqida

Hali tajribasi etarli bo'lmagan teatr bezakchisi, shuningdek teatr bezagi rangtasviri bo'limida taxsil olayotgan talaba uchun ba'zan birdaniga butun sahna

yuzasiga dekoraciya yoki shunga o'xshash biror ish qilish qiyin bo'ladi. Shunday "katta" ish qilinadi, sahnaga omborda mavjud barcha ashyolar olib chiqib hamma yoqni tulatib yuboradi, shu ma'noda eski xech kimga keragi bo'lmagan pavilon olib chiqiladi, turli hildagi pardalar ilinadi, turli hildagi mebellar qator qilib qo'yib qo'yiladi, hattoki qishloq xayoti aks ettiriladigan bo'lsa hamma yoq maishiy ashyolar, daraxatlar, shuningdek boshqa keraksiz narsalarga to'latib yuboriladi. Bunday holatda aktyor bemalol harakat qilish uchun joy qolmaydi, "rol uynashi" xaqida gapirmasa ham bo'ladi, hatto aktyor Bunday mo'l ashyolar ichida yuqolib, tomoshabin e'tiboriga tushmay qolishi ham mumkin va pesa kahramonlari emas, balki ashyolar birlamchi bo'lib qolishi tabiiy. Bularning barchasi sahna qutisini qamrab ololmaslik va undan foydalana bilmaslikdan kelib chiqadi.

Sahna yoki sahna qutisi qanchalik kichik bo'lmasin, unda juda katta imkoniyatlar yashiringan bo'ladi, faqat ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishda gap qoladi, sahnani sevish va uni bezashda yangi nozik shakllar topish ustida ishlash kerak bo'ladi.

Turli hildagi bezaklarni bevosita sahnaning O'zida ko'rish tajribasini ishlab chiqish ko'pgina sabablarga ko'ra mumkin emas, shuning uchun barcha ijodiy va tayyorgarlik ishlarini "eskiz" va "maket"larda bajarish lozim bo'ladi.

Eskiz – bu tayyor dekoraciyaning kog'ozda tasvirlangan umumiy ko'rinishidir, Eskizda aks ettirilgan qiziqish uyg'otadigan qismlar "maket"ga utkaziladi, u erda "masshtab"ga ko'ra yana ishlov beriladi. "Maket" dekoraciya o'rnatilgan kichik sahna ko'rinishidir. Maket sahnaning barcha asosiy xususiyatlarini o'z ichiga olgan model ko'rinishidagi, taxminan 1 metr=10sm masshtabda yasalgan, qismlari podmaketnikga o'rnatiladigan dekorativ qurilmali "podmaketnik"dan iborat bo'ladi. Maketning eng muhim qismi bo'lgan pol sahna poli yuzasining kvadrat metr hajmiga mos ravishda qismlarga bo'lingan bo'lishi kerak. Poldan tashqari podmaketnikda qo'yidagi qismlar mavjud bo'ladi: 1)portal, 2)mato va paduga (agar bular sahnada mavjud va zarur bo'lsa), 3)dekoraciya qismlarini mahkamlash uchun ustunlar va taxtalar.

Bush podmaketnik ko'rinishi 1-rasmda aks ettirilgan. Maket qurish uchun fanera va yog'och taxtalar asosiy material hisoblanadi. Mato va padugani rangiga qarab tanalanadi yoki sahnada mavjud bo'lgan tusga bo'yaladi. Peshtoq ramkasi yoki peshtoqning o'zi qandaydir mu'tadil yoki qora ranga bo'yaladi.

Dekoraciyaning masshtabga mos tayyorlangan qismlari o'lchanadi va tegishli natijaga erishilmaguncha turli ko'rinishlarda maketda o'rnatiladi.

Masshtabda bajarilgan narsa yoki qismni sahna uchun oson kattaytirish mumkin va maketda boshqa qismlarga mutanosib ishlanganligi uchun hajmga juda mos keladi.

Maketni turlicha yoritish holatda ko'rish uchun uni rangli lampochkalar yoki tegishli rangdagi matolar orqali yorug'lik berib, yuqoridan va yon tomondan yoritiladi. Agar imkoniyat bo'lsa maket kattaroq hajmda yasaladi va unda shundagidek qilib yoritish uskunalaridan tortib barcha bosh uskunalar o'rnatiladi. Shunday maketga o'rnatilgan va yoritilgan dekoraciya sahnada tayyor holda yaratilgan muxitning to'la tasavvurini beradi.

Dekoraciyani maketda ko'rishda bo'lajak dekoraciya materialni jismoniy xususiyati ni (mo'rtligi, og'irligi) hisobga olib imkon qadar soddaroq yasashga intilish lozim, sahnaga ortiqcha stanoklar va boshqa qismlarni chiqarib tashlash yaramaydi, aktyorning rol uynashi uchun bo'sh joyni va dekorაციyalarini tez almashtirishdagi qiyinchiliklarni yodda tutish zarur.

Bu talablarni xisobga olish va amalga oshirishga o'rganish teatr rassomi ijodining asosiy tomonidir.

Agar birorta dekorativ panno yasash lozim bo'lsa (sahnaning orqa tomoni uchun kartina), bu ham dekoraciya ekanligini, teatr ishida ortiqcha bo'lgan rang va shahlov berishga ehtiyoj sezadigan dastgohli kartina emasligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Sahnada bezak eskizini bajara olinishiga, bolajak kartinani sahnadan uzoqroqda tasavvur kuchini saqlab qolishga e'tibor berish lozim. Buning uchun eskizni podmaketnikning orqa planiga qo'yish, shunga mos ravishda yoritish va shundagina uning afzalliklari xaqida gapirish mumkin.

Tegishli tarzda ishlov berilgan maket eskizi (shuningdek podmaketnik poli ham) katakchalarga bo'lib chiqiladi va unga mos kattalashtirilgan kataklar asosida sahna orqasidagi polotnoga o'tkaziladi.

Libos va dekoraciya

Maket aktyorlar uchun liboslarni tanlashda ham yordam beradi, Bu dekoraciya spektakl ishtiroqchilari qanday libos riyishlarini avvaldan hisobga olib qo'yish lozim bo'ladi. Ular uzlarining odatdagi libosida bo'ladimi, yoki ba'zi joylarini tirib moslashtirilgan qiyimda bo'ladimi, yoki umuman yangitdan tikilgan ust-boshda bo'ladimi – bulardan kat'iy nazar maket masshtabi bo'ylab rangli kog'oz yoki mato bo'laklaridan libos kiydirilgan qo'g'irchoqlar yasash va ularni maketning tegishli o'rinlariga joylashtirib chiqish lozim bo'ladi. Bu nihoyatda muximdir, negaki harakatdagi dog' sifatidagi libos bezatuvchi tomonidan xisobga olinishi va dekoraciyaning rang-hajmi bilan qieslashi zarur. Kug'irchoqlar soddaroq bo'lishi uchun yassi kartondan qirqib va tegishli ranga buyab tayyorlash mumkin.

Maket va libos ustida jamoa bo'lib ishlash zarur

Deqorativ ish bo'yicha to'la va batafsil maslaxat berish mumkin emas, barcha ishlar bezakchilarning ijodiy kashfiyotchiligi va tabiiy kobiliyatiga bog'liq. Ammo jamoaning to'laligicha hamkorlikda maket va libos ustida ishlashi orqali koniqarli natijalarga erishish mumkin. Maketga sahnada boshlagan ishining boshida va amaliy tajriba to'plagandan so'ng murojaat qilish mumkin, u tegishli materiallarga putur etkazmagan holda ko'p jihatlarni ko'rib va muljallab olishga yordam beradi, bu ish so'ngra sahnada to'g'ridan-to'g'ri aks etaveradi.

Maketga ayrim dekoraciyalarni va ularning qismlarini tasvirlashda doimiy murojaat qilib turiladi.

Siljatiladigan movut pardalar va turi dekoraciya bilan uskunalar bilan sahnani uchun bezaklarning eng sodda qismlari

Dekoratsiyalarning eng sodda qurilmalari turli dekorativ qismlarni tirash va siljish yuli bilan movut mato (kulislar, , yon tomondagi mato bo'laklari) kabilari bilan uskunalar bilan kichikroq sahnalarda osonroq ishlanadi. Umumiy ko'rinish xaqida tasavvur beruvchi dekoratsiyaning O'ziga hos qismlari dekorativ qismlar deb ataladi. Bunga eshiklar, romlar, ustunlar, o'choqlar kabilarni kiritish mumkin. Agar tegishli tarzda kiyingan aktyorlar bilan eshik o'rnatilsa uy hosil bo'ladi, ustunlar, bezakdor eshiklar boy honadon tasavvurini beradi va xakozo. Bu qismlar "ko'rinish" uchun qilinadi, ya'ni ularning oldida aktyor xaqiqiy eshikka kirgandek, derezalarni ochgandek va ularga bosh suqqandek harakatlar qiladi. Ko'rinish qismlari dekoratsiyada bosh ma'noga ega bo'ladi, ular aktyorga rolni tabiiy ijro etishga yordam beradi. Bunday dekorativ qismlarga o'rindiqlar, zinalar, pechkalar, to'siklar kabilarni kiritish mumkin. Ko'rinishlarga qo'shimcha ma'no beruvchi va harakat o'rni ifodalovchi qismlar ikkilamchi ma'noga ega bo'ladi va ularni tanlab ishlatish mumkin. Ularga soatlar, gullar, kartinalar, portretlar, matolar, qandillar va boshqalarni kiritish mumkin. SHu va boshqa qismlar yo "xaqiqiy", yoki yog'och taxtalardan ustiga mato tortib "yasalgan", yoxud butaforlik yuli bilan karton va matodan yasalgan papemashe, yoki biror materialga bo'yoq bilan ishlangan bo'lishi mumkin.

Bunday yullardan foydalanib ishlangan dekoratsiya qismlari nihoyatda sodda, anchayin arzon va oson ishlanadigan, ammo foydalanishga ancha qulay bo'ladi.

Sahnada xech bo'lmaganda ikkita yonga ochiladigan va bitta orqa ga suriladigan pardaning albatta bo'lishi talab etiladi. Ular hatto sahnaning o'ziga hos ramzi ham hisoblanadi.

Sahnani movut mato bilan sodda uskunalar qurilmasi

Bunday uskunani qaytadan qilish lozim bo'lsa, lekin bunda sahna kichikroq bo'lsa, yondamalarni aylanadigan va sahna bo'ylab markazga, so'ngra orqaga harakat qiladigan ko'rinishda yasash lozim.

Buning uchun movut matoning ustki chokining o'rtasidan teshik qilinadi, u orqali mahkamlangan aylanadigan sterjen teshigidan o'tkazilgan, sahna bo'ylab tortilgan ingichka tros yoki mumlangan arqon tortiladi va unga movut mato ilinadi. Tros yoki arqon yondama harakat qiladigan halkaga qiydiriladi.

Ilishning boshqa usuli bayroq matosini tortishga uxshaydi. Matoning yuqori taxtasining ikki uchiga arqon boylanadi, uning o'rtasiga tros bo'ylab harakat qiluvchi xalqa mahkamlanadi. Bu yahshi usul emas, negaki aylantirilgan kulis doim ham bir holatda turavermaydi.

Orqa parda tros yoki mumlangan arqon bo'ylab xalqalarda harakatlanuvchi ikkita teng qismdan iborat bo'lishi kerak. U harakat qiladigan arqon yoki tros har ikkala tomonidan 2 uzunlikda oralik qoldirilgan bo'lishi kerak. Orqa parda uchun tortilgan tros sahnaning orqa devoridan sahna buylab 1 – 1,5 metr yoki kamroq utish joyi qoldirilishi lozim. Bu pardani nafaqat orqa devorga parallel ko'rinishda, balki burchak shaklida tuzish imkonini beradi. Bunday shaklga keltirish uchun tros yoki (yahshisi) arqon yonga mahkamlangan bir yoki ikki joyidan echiladi hamda o'rta qismidan yondagi mustahkamlagichlar darajasida orqa devor o'rtasiga o'rnatilgan ilgakka ilib qo'yiladi. O'rtadagi ilgakka ilinganidan keyin arqonning echib olingan chetlari avvalgi joyiga tortib bog'lanadi va har ikkala matoni tros tortilgan burchakka qarab to'g'rilab qo'yiladi.

Orqa pardani Bunday tez o'zgartira olish imkoniyati uni sahnaga nisbatan har qanday vaziyatda turishini ta'minlaydi, bezaklarni ham unga moslash mumkin bo'ladi va burchak tarzidagi sahna ko'rinishini hosil qilishga imkon tug'iladi.

Aylanuvchi va siljivchi yon kulislari orqa pardaga yordam tariqasida sahnaning old qismini har qanday yunalishda cheklash va kesib qo'yishga imkon beradi.

Ayrim dekoraciya qismlari va tuzilishi

Hona (voqea hona ichida bo'lib o'tadi)

Deraza va eshik "hona" dekoratsiyasi uchun asosiy qismlar bo'ladi. Deraza va eshik oddiy usulda o'rnatiladi. Deraza yog'och taxtalardan kerakli balandlikda, lekin u pardaga bilan berkitilayotgan siljivchi orqa pardadan baland qilib yubormay o'rnatiladi.

Deraza tagidagi romkaga orqa parda rangiga mos parda tortiladi, karton yoki fanera mihranadi. Deraza romlari iplar bilan osib qo'yiladi va odatda tomoshabinga ko'rinmaydigan holatga keltiriladi. Derazani ikki yoqlama qilish mumkin, uning ikki tomoni ikki hil rangga bo'yab qo'yiladi. Romni ikki tomondan bo'yalishi va uning tagini biror narsa bilan qoplanishi unda turli hildagi honalarda foydalanish imkonini beradi. Romning bir tomoni oq, boshqa tomoni jigarrang bo'yoq bilan bo'yiladi. Deraza bilan shit kengligi bir metr atrofida.

Shit mustahkam turishi uchun umumiy rom qoplamasi tagidan temir parchasi yoki eski gardishdan taglik qilinadi, unda mahsus teshik qoldirib polga mih yoki burama mih bilan qotirib qo'yiladi.

Agar nima uchundir metall taglik qilishning imkoniyati bo'lmasa, unda shitni orqa tomondan sahnada ko'p qo'llaniladigan odatdagi yog'och tirgaklar bilan mahkamlanadi. Tirkak tuzilishi 2-rasmda berilgan. Nihoyat, shitning ikki tomonidan mihrab qo'yiladigan tirgaklarga o'hshash ko'rinishdagi doimiy tagliklar ham qilish mumkin. Ikki tomonlama doimiy tagliklar mahkamlangan shitning qo'yi tomoni rangi bilan bir hil qilib bo'yiladi.

Agar deraza romiga oyna o'rnatish zarur bo'lsa, romkaning orqa tomoniga tekis qora tyul (yupka shaffof mato) tortiladi va uni bir yoki ikki marta jelatinning kuchli qorishmasi bilan qoplanadi. Tyul kuringach oynaga o'hshash jelatinning shaffof qatlamiga yalpi holda yopishishi kerak. Tyuldan tashqari oyna tasavvuri romkaga oq metaldan yupka to'r tortish bilan hosil qilinadi. Haqiqiy oyna qo'yish tavsiya etilmaydi, negaki u tez orada sinishi va mayda bulaklari polga tushib rol uynayotgan

chog'da (yiqilishi, oyoqyalang yurish, jismoniy tarbiya nomerlari) aktyorlar tanasini kesib jarohat etkazishi mumkin.

Eshik ham deraza kabi ochiladigan qilinadi. Yahlit kesaqiga eshikning mato, fanera yoki karton qoplangan ikki qanot romkasi o'rnatiladi. Eshik oq (boy) yoki jigarrang tusga buyaladi. Bo'yoq qurigach chiziqlar bo'ylab yangi "filyonka" tortiladi. Har ikala romka (eshik qanotlari) mustahkam turishi uchun burchaklariga metall ugolniklar qoqilgan kesakiga o'rnatiladi. Kesaki eshik qanotlari rangiga bo'yaladi. Kerak joyga eshikka tutqichi o'rnatiladi, ularga eshik ko'rinishini o'zgartirish uchun tillarang yoki kumush ranga bo'yalgan kog'oz yopishtirish mumkin.

Eshikni odatdagi duradgorlik usuli bilan yasash tavsiya etilmaydi, negaki u og'ir va shu sababli pishiq bo'lmay qoladi. Eshik mahsus ishlangan "ostona"ga qo'yiladi va mahkamlanadi. Yoki derazaga o'hshab orqa tomonidan tirgaklar bilan mahkamlanadi. Eshik ochib yopilganda kuchli zarbaga uchraydi, shuning uchun eshikni shitga nihoyatda yahshilab mahkamlash tavsiya etiladi, shunda u tebranib yoki ayniqsa yiqilib ketmasligi mumkin bo'ladi.

Eshik xajmining eni 1,25 – 1,5 metr atrofida, balandligi sahnaga bog'liq ravishda odatdagidek bo'ladi. Tasvirlangan qismlardan bir necha turdagi honalarni ko'rish mumkin. Agar orqa parda matolari shitlarining eniga siljirilgani orasiga eshik, qiytiq qo'yilgan yonliqlar orasiga deraza yoki aksincha qo'yilsa, unda hona dekoratsiyasi asosi paydo bo'ladi. Ba'zan to'g'ri yoki burchak qilib osilgan orqa parda o'rtasiga bir eshik yoki deraza o'rnatish etarli bo'ladi.

Istikommat qilinadigan hona ko'rinishini berish uchun faqat qismlar va ashyolarning sof tasviri ham etarli bo'ladi. Matoga yoki o'rta shit yonlaridagi orqa parda matosiga portret yoki kartinalar osish mumkin, albatta ular juda engil bo'lishi, agar ular og'irlik qilib matoni tortib yuboradigan bo'lsa, parda orqasidagi uzun tirgovuchlarga mihiab qo'yiladi.

Agar derazaga rangli kog'ozlardan yasalgan geran guli qo'yilsa, tyul parda osilsa, kog'ozdan yoki matodan yorqin abajur qo'yilsa savdogar yoki meshchan honasi tayyor bo'ladi.

Erto'la. Agar yon kulislar orasiga yoki orqa parda eshigi o'rtasiga uch pog'onali zinapoya qo'yilsa, qiruvchi va chiquvchi kishilar hona erto'lada ekanligini ta'kidlab turadilar.

Ishhona. Markazda bir eshik koldiriladi va uning ikki tomoniga bittadan ish stoli qo'yiladi, stollar ustiga oq iplar bilan kartondan yasalgan, rangli yashil kog'oz climlangan ishhona yashil abajurli lampasi tushirib qo'yiladi, stolga telefon, stol tagiga kog'oz ahlat uchun korzinka, devorga "paxlavon" kalendari osib qo'yiladi va shu bilan dekoraciya tayyor. Oddiy stol yoki hatto oddiy kursidan yoki skameykadan tegishli ko'rinishdagi yozuv stoli qilish uchun qimmatbaxo yog'och ko'rinishida ishlov berilgan, fanerdan qilingan oddiy stolga uning old qismining yassi tasviri yopishtirib qo'yiladi. Telefon va boshqa dekoraciya qismlarini ham yassi tasvir shaklida qilish mumkin.

Bov hona. Zal. Bunday ko'rinish yaratish uchun eshik va derazaning oq tomoni tomosha zaliga qaratib qo'yiladi. Boshqatdan yana ikki yoki to'rtta ustun yoki pilyastr qilish kerak. Pilyastlarni yasash oson. Ularning shakli ensiz uzun mato yoki kartonga chizib olinadi, so'ngra buyagandan keyin mahsus ensiz podramkaga miqlab qo'yiladi. Uning eni asosda 20 sm.dan 35 sm.gacha bo'lishi mumkin, balandligi 3 va undan ortiq metr bo'ladi. Pilyastrni podramkaga matoni tarang qilib tortganda bo'yash mumkin, shunda ish toza bo'ladi. Bo'r bilan bo'yash lozim. Kapitel (yuqori qism) kulrangga bo'yab ajratib qo'yiladi, bo'r qorakuya bilan aralashtiriladi. Pilyastrlar orqa parda yoki kulis matolari orqasidagi tirgovuchlarga o'rnatiladi. O'zining asosiy vazifasidan tashqari pilyastrlar ustunlar o'miga ishlatilishi ham mumkin. Bunday holatda ular zaruriy joyga qo'yiladi va tirgovuchlar bilan mahkamlanadi. Pilyastr uchun tirgovuch nihoyatda uzun bo'lishi kerak, kalta tirgovuch uni tutib tura olmaydi.

Ustunlar fanera yoki kartonni kuvur shaklida egib yasaladi. Kapitel alohida faner, karton yoki pape-mashedan ishlanadi, yasash uslubiga qarab ishlash uchun qulayroq material tanlab olinadi, so'ngra ustunga mahkamlanadi. Ustun qo'yiladigan taglik kichikroq yashik ko'rinishida ishlanishi mumkin. Taglikka mahkamlangan yoki uyib qiritilgan ustun o'zagi birlashtirilgan joyidan boshlab qalin arqon bilan

o'rab qo'yiladi, arqon ham bo'r bilan bo'yaladi. U ustunni taglik bilan tutashgan joyini dumaloq holda ko'rinishini ta'minlaydi. Ustun va pilyastr shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Ularni tayyor bino, fotografiya, jurnal kabilardan tasvirini olish mumkin. Uning soddarog'i va uzoqroq foydalanish mumkin bo'lganini tanlash lozim. Ustunlarning kesma yarim doira emas, dumaloq qilgan yahshi, shunda xar qanday holatda o'rnatish mumkin, tomoshabinga kesma ustundagidek orqa tomoni ko'rinib qolmaydi.

Pilyastr bo'yicha markazda qo'yilgan eshik yonlariga joylashtirib boy honadon tasavvuri hosil qilinadi. Ustun bo'yicha matoning yoki yana pilyastr bo'yicha qo'shimcha qilib zal ko'rinishini hosil qilish mumkin.

Devorlarga (orqa devor, kulislar) qadimgiga o'hshash portretlar, ustunlarga esa pape-mashe yoki kartondan ishlangan bra osib qo'yish mumkin. Uy ichiga oq mato yoki choyshab yopilgan oddiy stullar va dumolok stol qo'yish mumkin.

Ishhona, o'quv zali, choyhona, ustahona kabi honalar ham deraza, eshik va ustunlar (klub uchun) qo'yilgan holatda tegishli mebellar, devorda plakatlar, paduga yoki sahna yuqorisidan boshlab qiyshiq holatdagi shiorlar, kartondan yasab qoraga bo'yab quyilgan mashinalar, ilg'or kishilar portretlari va boshqa ko'plab ashyolar dekoraciya vazifasini o'taydi. Eng muhimi dekoraciya qismlarini to'g'ri tanlash va ularni kupaytirib yubormaslikdir.

Ruscha izba. O'rtadagi pechka uning eng muhim hususiyati hisoblanadi. Uni mahsus listga chizish yoki faqat bir qismini ko'rinadigan qilish mumkin. Bunda kulis ortidan kartondan qilingan yoki bo'r bilan bo'yalgan fanerdan yasalgan ingichka oq yuza ko'rinib tursa etarli bo'ladi. Bu "pechka burchagiga" kuzov, kozon va chelak qo'yiladigan skameyka qo'yish, devorga sochiq ilish va izbaga hos bo'lgan ba'zi narsalar bilan boyitish mumkin. Bunday sahna uchun deraza o'rtada yoki jigarrang tomoni bilan tomoshabinga karatib yoni bilan o'rnatiladi. Eshikni taxtadan yoki chizma taxtali matodan yasash mumkin. Eshikni qiyshiq qo'yilgan kulislar orasiga, pechkaning qarshi tomoniga qo'yiladi yoki agar deraza o'rtada bo'lsa uning yoniga o'rnatiladi. Izba uchun eshik bir qanotli bo'ladi.

Fabrika honasi. Bu dekoraciyani yasash uchun fabrika derazasi romini yasash kerak bo'ladi. U odatgi derazadan kattaroq bo'ladi. Deraza shitning butun eni bo'ylab yuqoriga joylashtiriladi. U kam chiziqli to'r shaklida 2 – 2,5 sm. enlikdagi taxtachalardan yasaladi. Boshqa kartinalarda ham foydalanish uchun xar ikki tomoni bo'yaladi. Bu derazalar tegishli hajmdagi shitning o'rtasiga (1,5 metr), orqa parda matolari o'rtasiga joylashtiriladi. Sahna chetlarida kulis ortidan karton yoki faneradan kesib ishlangan mashinalar qismlari ko'rinib turadi. Yuqoridan ishlatiladigan kabi yashil abajurli elektr lampalari osib qo'yilishi mumkin.

Vokzal. Vokzal yoki temir yul stanciyasi tasvirida fabrika honasi uchun yasalgan derazadan foydalanish mumkin. Uning orqasidan oq va qizil ranga bo'yalgan fanera bulaklaridan yasalgan semafor qismi ko'rinib turadi. Oyna ortida telefon simyog'ochlari barashkasi, simlar ko'rinib turishi mumkin. Simyog'och kulrangga bo'yalgan bo'ladi, barashqalar fanerdan kesiladi va bo'r bilan bo'yaladi, simlar qoraga bo'yalgan tizimchalardan iborat bo'ladi. Simlar simyog'och orqadan har bir barashkadan o'tkazib tortiladi. Markazga odatda vokzallar uchun hos bo'lgan qo'lda yasalgan yoki xaqiqiy soatlar osib qo'yiladi. Poezd qatnash jadvali (gazetadan qilinadi), "kassa", "chiqish" yozuvlari, pochta qutisi kabilar ham zaruriy dekorativ qismlar hisoblanadi. Yana yulovchilar uchun skameyka qo'yib qo'yilsa bo'ladi.

"Xavo" (moviy fon). Yuqorida sanab o'tilgan barcha o'zgarishlar uchun moviy ranga bo'yalgan "xavo"dan iborat to'ri dekoraciya polotno bulsa foydali bo'ladi. Bu turi dekoraciya derazalar orqasiga osiladi va moviy fon yoki osmon rolini uynaydi. Bu deraza ortiga qo'yiladigan to'ri dekoraciya ko'plab spektakllarda foydalanish mumkin. Bu to'r dachi dekoraciya quyida so'z yuritiladigan ko'rinishlarda ham tez-tez foydalaniladi.

Hona dekorაციyaları bezak qismlaridagi rang xaqida

Ayrim dekorativ qismlardan foydalanish principini aniqlab, ularni tanlash va joylashtirish yullarini uylab, ulardagi rangning roli xaqida va ular rangdan beradigan tasavvur xaqida to'xtalish lozim.

Bir hildagi tartibda osilgan, ammo turlicha bo'yoq berilgan aynan bir shaklning ayrim qismlari tomoshabinda turlicha tasavvurlar uyg'otadi. Barcha dekorativ qismlar uchun hos bo'lgan umumiy qoidalar qo'yidagilar: ola-chalpoq bo'lmasin va umumiy tusda bir kartina osishga intilish va bu kartina pesadagi voqealar mazmuniga mos bo'lishi kerak. Uy egalarining nihoyatda didsizligini ta'qidlash lozim bo'lgan honalar bundan mustasno.

Biror pesa uchun mahsus ishlanmagan sodda dekorაციyalar asosiy qurilmasi qismlarigagina bu erda to'xtalib bezatish chog'ida rangning o'rni kanchalik ekanligini ko'rsatish lozim topikdi, umumiy tarzda yuzalarga ishlov berish va bo'yash usullari ko'rsatib berishga harakat qilindi.

Kambag'allik xususiyatlari bilinib turadigan honani yorqin bo'yoqlarda rang berish shart emas. Lekin xayotda kambag'al honaga yorqinroq gulqog'oz yopishtirilgan bo'lishi mumkin. Teatr tomoshabinga "kambag'allik"ni shunday berishi kerakki, Bunda dekorაციyalarning umumiy tusi tomoshabinda ma'lum va barcha uchun umumiy tasavvur uyg'otsin. SHuning uchun deraza va eshik jigarrangda ko'ringani ma'qul, stolga ham oddiyroq dasturxon tashlanadi, "qashshoq" mebelning kamroq miqdori ham umumiy ruxni buzmasin.

Ba'zan uy muxitida qandaydir ashyoni, masalan, uy egasi uchun kadrli bo'lgan va shu bilan unga ma'lum muhit yaratishga sharoit yaratadigan yoki sahnadagi harakatga to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lgan birorta ashyoni alohida ta'kidlash mumkin. Xususan, soat, telefon, to'pponcha, portret kabilar shunday ashyo rolini bajarishi mumkin. Bunday ashyoni sahnadagi alohida o'rnidan tashqari uning rangi bilan ham ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, portretni yorqin rangda berib, uning rangi atrof fondan ajralib turadigan qilish mumkin, soatni yorqin rangli qitobning ustiga qo'yish, tikuv mashinasini yorqin mato bilan yopib qo'yish ham ularni ko'p

ashyolar ichida alohida ajralib ko'rinishiga xizmat qiladi. Bularni shunday amalga oshirish kerakqi, ular jo'rttaga sun'iy tarzda kilingandek bo'lib qolmasin, Bundayning ajratish tomoshabin ko'z oldida uz isbotiga ega bo'lsin, ya'ni ham mantiqiy va ham sahnada xaqqoniy ko'rinsin.

Bezakning umumiy tusi bilan ba'zan pesada rol uynayotganlarning kayfiyatini tin'kidlash lozim bo'ladi. Buni nur orqali amalga oshirish mumkin. Agar sahnada kuvonch bo'lsa, unda hech bo'lmaganda deraza ortida yoki derazadan tushib turgan (ngar voqea kunduzi bo'layotgan bo'lsa albatta) yorqin "kuyosh" nurini berish, stol ustiga toza dasturxon solish zarur bo'ladi, ammo Bunda albatta yana me'yori va sahna xaqiqati xissiga rioya qilish kerak bo'ladi.

Dekorativ qismlar bilan olib boriladigan barcha ishni, xususan ularni bo'yash ishlarini nihoyatda hafsala bilan bajarish lozim. Bunda ikki-uch ashyolar butun bir dekoraciyanı almashtirayotganligi va tomoshabin e'tibori unga qaratilayotganligi nazarga olinadi.

Ishdagi har qanday nuqson u nimada ifodalangan bo'lmasin, tasavvurga juda yomon ta'sir qiladi.

Taniqli shaxslar portretlari kartinalar kabilar xech bo'lmaganda bosmadan chiqqan bo'lishi, tomosha zali xajmi kattaroq bo'lsa, uzoqroqdan ham ular yahshiroq ko'rinishi uchun biroz "grim qilinishi" lozim. Mavjud xususiyatlarni yahshi ko'rsatib turadigan va uzoqdan qaraganda ularni buzib qo'ymaydigan bir necha keskin bo'yoqlar bilan "grim qilgan" ma'qul.

Endi bo'yashning bir necha usullari xaqida so'z yuritamiz. Ko'p holatlarda qo'llash lozim bo'lgan elim bilan bo'yalganda va u quriganda agar bo'yoq yahshi aralashtirilmagan bo'lsa hiraroq va g'adir-budur bo'lib qolishi mumkin. Bunday yuza unchalik tekis bo'lishni talab qilmaydigan pechka, daraxtlar yog'ochi tamisi, pilyastrlar lavhalar uchun ma'qul bo'lishi mumkin.

Loqlangan yuza, masalan devor soatiga ishlov berishda lozim bo'ladi. Oqlatdagi sharoitlarda yaltiroq yuzalar ana shu elim bo'yoq berilgan joylarga spirtli lok berish bilan hosil qilinadi. Lok bilan qoplansa elimli bo'yoq qorayib koladi. Agar lok topish qiyin bo'lsa, masalan, qishloq sharoitida, loqning o'rniga tog'ishli joylar

tuxum oqi bilan qoplanadi, Tuxum oqi bilan qoplangan yuza ham garchi biroz qoraysada, rangi kuchliroq yaltiray boshlaydi. Bunday qoplam vaktlar o'tib suv o'tmaydigan bo'lib qoladi va bo'yalgan yuzani nam latta bilan artish mumkin bo'ladi.

Yorqin bo'yoqlarni mustahkamlash va yaltiroq yuza hosil qilish uchun oqsil ma'qul bo'ladi. Agar bo'yoqlar qoraroq bo'lsa, qorayishdan xech narsa yuqotmasa, kaytaga yanada salobatliroq bo'lib qolsa (kadimgi portretlar va kartinalar), ularni quriganda xiraroq yuza hosil qiladigan suyukroq duradgorlik elimi bilan qoplash mumkin. Bo'yoq va loklar haqidagi boshqa ma'lumotlar kitobning ohirida beriladi.

Binodan tashqarida ruy beradigan voqea joylarni tasvirlash uchun bezaklarning sodda qurilmalari

Ikkita katta hajmdagi movut mato, paduga va siljiriladigan turdagi pardaga ega bo'lib, turli tashqi ko'rinishlarni tasvirlash uchun sodda qurilmalardan inchaginasini hosil qilish mumkin. Bunda ham bizga ma'lum bo'lib qolgan ko'pgina dekorativ qismlardan foydalaniladi, ba'zilarini esa kaytadan yasash zarur bo'ladi.

Kartinaning ayrim qismlari qurilmalarini tasvirlashga o'tishdan avval ta'kidlash joizki, "shahar" yoki "zavod"larga oid murakkab dekorაციyalarni qanday qilib o'z kuchi va deyarli sarf-xarajat qilmay yasash mumkinligi xaqidagi ba'zi ikkilanishlar vujudga kelishini eslatib o'tish zarurati seziladi. O'ziga hos detallardan foydalanish principi shu o'rinda yanada kengroq urin ola boshlaydi, bulardanda tashqari aktyorning ishlashi va texnik jixatdan ishlanishi qulay bo'lgan qurilma sifatidagi bezakka ongli munosabatda bo'lish birinchi planga chiqadi.

Tabiatni qanday bo'lsa shundayligicha tasvirlash va undan to'g'ridan-to'g'ri nusxa olish butunlay rad etiladi. Negaki xozirgi kunimizdagi san'atning sodda lo'nda tili, pesa matni va bezatuvchining sog'lom fikri shuni talab qiladi. Pesa ustida ish boshlashdanoq bizning soddalik va har bir qismdan xar tomonlama foydalanish principimizdan kelib chiqib eskizlar va maket ustida zo'r xafsala bilan vijdonan ish boshlash kerak. Mazkur qitob muallifi esa qitobxonning ijodiy fikrini cheklab

qo'yilmagan holda faqat aynan biror pesa ustida ishlashga bag'ishlamay, umuman tarash qismlari qurilmalari xaqida qiska maslahatlar berishni nazarda tutdi.

Daraxtlardan iborat bezaklar xususiyatlari (o'rmon, bog', xiyobon)

Bunday qurilmalar uchun tyulli pardaning nihoyatda keng yuzasi orasida «osmon» ichiga qarab biroz masofa siljib, hona dekorაციyalari qurilmasi tasvirida so'z qilingan moviy tyulli parda, ya'ni «xavo» osiladi. Uning xajmi sahna hajmiga qarab turlicha bo'lishi mumkin, ammo eng muhimi u orqa devorni butunlay yopib turlishi lozim. Agar tasviriy nuqtai nazardan yondoshilsa, u barcha tashqi «qurilmalar»da «osmon» rolini uynaydi. Bu moviy «osmon» fonida siljirilgan tyulli pardalar yoniga bir necha daraxtlar qo'yish mumkin. Daraxtlarni matoda tasvirlab olinmas, balki moddiy ko'rinishda bergan ma'qul. Daraxtni turli usullarda yasash mumkin, Bunda u bir holatda hajmli, boshqasida yassi ishlangan bo'lishi mumkin. Ko'proq hajmli daraxt yasashga e'tibor qaratish lozim, u bilan aktyorning xajmli tanasi yahshi mos keladi. Bunday daraxtga yog'och tana va yuqoriga qarab o'sgan bir nechta baquvvat novdalar asos bo'ladi. Barglari esa paduga orqasida tasavvur qilinadi; tomoshabinga u ko'rinmagandek tuyuladi.

Dumoloq shakildagi daraxt tanasi asosini fanera, karton yoki elimlangan linerani quvurga o'xshatib dumoloqlangan shaql tashkil etadi. Tananing yuqori qismiga o'ngga va chapga tarvaqaylab ketgan yo kartondan yoki yahshilab jips bog'langan, bir necha kavat qilib kog'oz elimlangan bukilgan novdalar mahkamlanadi. Bunday yo'l bilan yasalgan daraxt tanasi va shoxlari yuzasi nisbatan tekis bo'ladi. Unga po'stloq ko'rinishini hosil qilish uchun unga gijimlangan, qupol qat-qat burma qilingan kog'oz elimlanadi. Kog'oz ko'ringach uni qorakuya bilan bo'yaladi, u quriganidan keyin esa oxra bilan qorakuya aralashmasi surtib chiqiladi, kog'ozning burtgan joylariga cho'tka quyuqroq yuritiladi.

Bunday bo'yalganda ochroq tus bilan faqat bo'rtma qisimlarigana qoplanadi, chuqurchalar esa quyuq qoraligicha qoladi, bu esa uzoqdan daraxt pustlog'i materiali tasavvurini beradi. SHoxlar alohida yasaladi va ular uchun mahsus uyilgan

tanadagi teshiklarga qiritib qo'yiladi. Bu daraxtni keyinchalik yig'ib qo'yilganda saklash uchun qulay bo'lsin degan maksadda qilinadi, negaki u tarvakaylagan shoxlari bilan u ko'proq joyini egallagan bo'lardi va shoxlar sinib qolishi ham mumkin edi.

Daraxt tanasi tagiga elim shimdirilgan kog'oz yopishtiriladi, bu bilan ildizlar boshi shakli beriladi. Daraxt tanasining o'zi mustahkam taxta yoki fanera bo'lagiga mahkamlangan bo'lishi mumkin, bu bilan esa polga mahkamlab qo'yiladi.

Daraxt tanasini nafaqat dumloq, balki yarim dumloq (kesma) qilish ham mumkin. Buning uchun daraxtdan 3-4 yarim doira kesib olinadi va unga karton yoki faner kiydiriladi va uzoqdan yarim doira daraxt tanasi butun doira shakli tassavurini beradi.

Agar bu daraxtlar bargli qilinishi kerak bo'lsa, xaqiqiy novdalarga yoki kog'oz mato o'ralgan egilgan simlarga bo'yalgan elimlangan matodan yoki qalin kog'ozdan kesib olingan barglar yopishtirib chiqiladi.

3-4 dona daraxt o'rnatish mumkin, bunda ularning shakli va rangini turlicha qilish mumkin.

«O'rmon» dekoraciyasini hosil qilishi uchun daraxtlar simmetrik o'rnatilmaydi. «Bog'» dekoraciyasini hosil qilish uchun daraxtlarni yonma-yon yoki tomonlarga nisbatan simmetrik joylashtirsa bo'ladi. Park uchun yana ustunlar va skameykalardan ham foydalanish mumkin.

Tyullidagi «havo» ni sahna poli bilan birlashtirish uchun yashilga bo'yalgan va «havo» ning tagiga pastroq burchak tirgovich qo'yiladi. Uning eng baland joydagi xajmi 0,5 metrdan oshmaydi, boshqa tomoni yuq bo'lib ketadi. Bir yoki ikki tomoniga mato yoki karton tortilgan podromnikda qirra hosil qilinadi.

Berejokning hizmatlaridan biri shundan iboratqi, uning orqa tomonidan «havo» ni yoki yana borshqa narsani pastdan yorituvchi yorug'lik manbai bo'ladi.

Dekaraciya to'siq, ballyustrada bilan jonlantirilishi mumkin, ular ustunlar bilan birga boy honadondan yoki shiypondan chiqish yulini ifodalaydi.

Xiyobon. SHahar hiyoboni deqaraciyasi qurilmasi uchun sahna ortiga qator qo'yilgan daraxtlardan foydalanish mumkin. Daraxtlar orasiga 1-2 xiyobon

skameykasi va chiroq qo'yish kerak. Yana qir qilgan mayda daraxtlar «orqa» qatorni qo'shish mumkin. Uning orqasiga «xavo» tagidan «berezok» qo'yish zarur.

Chiroq yorug'lik manbai bo'lgan qutida va chiroqchining narvonini tirab qo'yish uchun yuqori qismi bo'lgan simyog'ochga o'rnatiladi. Quti yog'och taxtachalardan yasaladi, ularning orasiga mayda metall to'r, yoki matoli shaffof kog'oz, yoki jelatinli tyul, yoki oddiy pergament tortiladi.

Simyog'och taxtadan yasaladi va chiroqni o'zining taxtachalari kabi kulrang, qizil yoki yashil ranga bo'yaladi. Chiroq taxtaga orqa tomondan mihlangan qiyalikka qo'yiladi. Bu kadimgi namunadagi odatiy ko'cha chirog'idir. Zarur bo'lganda xuddiy shu usul bilan zamonaviyrog' bo'lgan elektr va gaz chiroqlari ham qilish mumkin.

Qichikroq qir qilgan daraxtlar shahar uchun odatiy bo'lishi kerak. Ular yuqoriga qarab shoxlagan qichikroq «shar» ga o'hshab qir qilgan daraxt tanalaridan iborat bo'lishi mumkin, ularni quyuq barglar yopib turadi. Har bir shahar daraxtchasi yog'och yoki metall panjaralar bilan yahshilab o'ralgan bo'lishi kerak. Daraxtchani o'zini xaqiqiy qichikroq daraxt tanasidan qilib, ustiga bir bog' novdalarni biriktirib va ularga kog'oz yoki matodan barglar yopishtirib chiqiladi.

Daraxt atrofidagi to'siqni shartli ravishda doira shaklida emas, balki daraxt bilan bir katorda qilinadi. Bunda tananing ikki tomoniga bir xodachani biriktirish va ularni daraxt tanasi bilan uch joyda mahkamlab qo'yilsa etarli bo'ladi. Tayyor bo'lgan to'siqni kulrang yoki moviy-yashil ranga bo'yaladi. Daraxtcha yo taxta parchasiga, yoki archadagi kabi kesishgan taxta bo'laklari, yoki qirraga o'rnatiladi.

Bulardan tashqari shahar hiyoboni uchun iks shaklida bir biriga biriktirilgan dumloq yog'och bo'laklaridan yasalgan pastrog' to'siq ham dekoraciyaning o'ziga hos qismi bo'lib koladi. Bunday tusiqlardan yana ikkitasi bo'lsa zarar qilmaydi, negaki ular boshqa ko'rinishlarda ham kerak bo'lib qolishi mumkin. To'siqlarni qizil, moviy-yashil singari yorqin bo'yoqlarga bo'yagan ma'qul.

Shahar. «Shahar» dekoraciyesi ham unga hos bo'lgan va o'z imkoniyati bilan tayyorlash oson bo'lgan eng muxim jihatlar bilan ko'rish mumkin bo'ladi. Avvalgi mavjud detallardan chiroq, usti tekislab kesilgan daraxtcha, telefon simi tortilgan

simyog'ochlar, deraza shiti, eshik va boshqalar kerak bo'ladi. Agar yuqorida ko'rsatilgan dekoraciya qismlari mato va «xavo» fonida joylashtirilsa shaxarga hos bo'lgan shartli ravishdagi ko'cha hosil bo'ladi. Bu holatda havo fonida sim tortilgan simyog'och, butun sahna bo'ylab va tyulga daraxtlarni, boshqa tomonga chiroqni, kulisga olachalpoq afishalarni qo'yish mumkin. Bu qurilmaga hona xaqidagi dekoraciya bobida so'z yuritilgan derazani qo'shish mumkin.

Derazani kulis yuzasiga taqab qo'yish kerak. Orqa tomonlagi shiddatli derazaga parda osib qo'yish ma'qul. Derazalardan qarash, kulislar orasidagi eshiklardan kirish-chiqish, derazalarda chiroq yokish (Bunday holatda chiroqni yonidan shunday berkitish kerakqi, u kulisdan sahnaga tushib turmasin, Buning uchun deraza orqasiga yon tomondan qandaydir to'sik shit qo'yiladi, shunda derazadan sahnaning yoritilgan ichki qismi ko'rinmaydi) mumkin.

Xuddi shu tarzda mashina, chiroq abajuri kabilar ko'rinadigan qilib zavod derazasidan ham foydalanish mumkin. Eshik olodiga ikki pog'onali zina qo'yiladi.

Biror eshikdan chiqish joyi yoki derazani bayroq ekanligini ko'rsatish uchun uning yonlariga ustun yoki pilyastr o'rnatish mumkin.

Berejoq o'rmondagi kabi o'rnatiladi, faqat Bunda kulrang tomoni tomoshabinga o'girib qo'yiladi. Uning yunalishi ko'chani «ketishiga» ishora qiladi va perspektivani daraxtlarni kattadan qichikka qarab qo'yilsa yanada yahshi hal qilinadi.

Bunday bezak muxitida shahar, zavod, hiyobon yonidagi, ko'chadagi, uy va boshqalar fonidagi sahnalarni uynash mumkin.

Pesa bo'yicha zarur bo'lgan voqea joyini ifodalovchi xususiyatlarga yanada aniqlik qiritish uchun chaqiriq, plakat, lavxa, qutilar, ahlat yashigi, to'siqlar va boshqa oson ishlanadigan yoki tayyor ashyolardan foydalanish mumkin.

Dekoraciya qisimlarini har safar shunday hilma-hil joylashtirish kerak, tomoshabin ularni yangi bezakdek qabul qilsin.

Dekoraciya qisimlarini ko'plab miqdorda yasash mumkin, faqatda maketda turli detallarni qilgandan keyin ularni joylashtirishning yangidan-yangi usullarni uylab topish zarur bo'ladi.

Zavod havosi. «zavod hovlisi» dekoratsiyasi asosini yana usha fabrika derazasi, simyog'ochlar va chiroqlar tashkil etadi. Faqat taxtachalarga qoqilgan, kulrang yoki qora ranga bo'yalgan shakilni qo'shimcha qilish mumkin. Uning tasviri oddiygina va kitob ohirida tasvirlangan shakldan olish ham mumkin.

Kulis ortidan uch pog'onali zina ko'rinish turishi, paduga ortidan qiranning silindrlangan qog'ozdan qilingan yoki kalin faneradan qirqib qoraga bo'yalgan katta ilimogi osilib turishi mumkin. Odatda zavod hovlisida bo'lishi mumkin bo'lgan metal bo'laklari, yashiklar, taxtalar va boshqa ashyolar ham tabiiy holda sahnada joylashtirilishi mumkin, lekin ular ham cheklangan miqdorda bo'lishi kerak.

Qishloq. Qishloqning bir burchagini ham yuqorida aytilgan dekoratsiya qisimlari bilan ifodalash mumkin. Birinchi va ikkinchi qisimlar orasiga bizdagi mavjud oddiy derazalarni qo'yamiz. Markazga siljirilgan o'ng kulisdan ung tomonga eshik qo'yiladi. Orqa turi pardalarning siljirilgan markaziga chetan yoki tusik qo'yib, unga ko'zacha, matolar ilib qo'yishi mumkin. To'sik orqasiga bitta daraxt o'tamatamiz, boshqasini birinchi planda kulis oldiga qo'yiladi. Sahnaning o'ng tomoniga bir nechta tayoklarni tirab ko'yamiz. Deraza tagiga skameyka, bir kulis oldiga xoda yoki daraxtning kesilgan bo'lagi, xavo tagiga berejok kabilar qo'yiladi va qishloqning bir burchagi tegishli liboslar kiygan aktyorlar bilan jonlanib ketadi.

«Qishloq» mavzusiga keyingi o'zgartirishlar kiritish xodimlarning topqirligiga bog'liq bo'lib qoladi.

Bov honadon. Boyning uyining bir burchagi ko'rinishda tasvirlangan xovli boy deraza, pilyastr yoki ustun, to'sik bo'lagi, daraxtlar tanasi, berejka, fonar yoki kartondan kesilgan va oqlangan, «havo» turidagi mato singari dekorativ qisimlar, uydan chiqish joydagi ayvon kabilarni turli holatda joylashtirish orqali hosil qilinadi. O'ydan ayvonga chiqish joyini ko'rsatish uchun ikki-uch pog'onali zina qo'yish maqsadga muvofiq. Bularning barchasi mizan sahnaga qarab turlicha joylashtirilishi mumkin.

Osish va dekorativ yondash yullari bilan dekoratsiya kurilmasining yuqorida ko'rsatilgan usullar yasash oson bo'lgan soddagina va anchayin arzonga tushadi. Kitobning bu qismida ongli ravishda biz nisbatan qimmatroq bo'ladigan dastgohlar

qo'llanmasidan yasaladigan barcha dekoraciya qurilmalarini tasvirlashga harakat qildik. Eng muhimi ular teatrdagi mavjud bo'lgan, avval foydalanilgan materiallarni biroz o'zgartirish bilan yasalishi mumkin va Buning uchun mablag ham sarflanmaydi. Sahna imkoniyati bo'lsa ularning barchasini va boshqa qurilma qisimlarini spektakllarda qo'llash mumkin. Dekorativ qisimlarning yuqorida sanab o'tilgan barcha turlari zamonaviy repertuardagi ko'pgina pesalarni bezash imkoniyatini beradi. Dekoraciyalarning barcha qisimlaridan samarali foydalanish principlarini o'zlashtirib, ayrim xususiy holatlarda kerakli yangiliklarni yaratishni o'rganish zarur.

Bezatishning boshqa usullari

Hozirgi payitgacha tasvirlangan bezatish principlari voqea joylari ko'rinishining asosan sof tomonini tasvirlashdan boshlangan. Bu usulda hosil qilingan dekoraciya sodda bo'lganligi uchun aktyorga ham ko'p qulaylik yaratmas edi. Dekoraciya qisimlari mizansahnani va aktyorning ayrim sahnaviy holatlarini ochib berish ma'nosida sahnalashtiruvchi rejessyorning ijodiy fikrini keng ma'noda namoyish etish imkonini bermadi. Qitobning bu qismida endi biz ham kichik shakllarni namoyish etishda bir hilda foyda beradigan qurilmalarni ko'rib chiqamiz. Dekoraciya qurilmalari yuzasidan asosiy e'tibor ularning nafaqat tasviriy tomoni, balki aktyorga yordam beradigan ishdagi foydalik tomonga qaratiladi. Tavsiya etilayotgan bezak qurilmalarini yuqorida so'z yuritilayotgan bezak qisimlari bilan uyg'unlashtirgan holda ko'llash mumkin bo'ladi.

Ularni har qanday sahna, estrada supasi va boshqalarda qo'llash mumkin.

Asosi tasviriy emas, balki ishchanlik ishlab chiqarishga mo'ljallangan dekoraciya qisimlari aktyorning rol ijrosi uchun kuproq qulaylik yaratadi, tasviriy dekoraciyalarga nisbatan anchayin afzalliklarga ega bo'ladi. Gap shundaki, biz voqea joyini qanday detallar bilan tasvirlamaylik, bu tasvirda ma'lum shaxsга yoki guruxga (didiga) hos bo'lgan individuallik, shaxsiylik xususiyatlari yaqqol sezilib

turaveradi. Bu birortaga ma'qul bo'lgan dekoraciya boshqasiga yoqmasligi mumkin yoki umumnan tushunarli bo'lmasligi mumkin.

Sahna san'ati-bu ommaviy san'at hisoblanib, ommaviy tomoshabinga tushunarli bo'lishi va uning e'tiborini tortishi va unga ma'lum tasavvur uyg'otishi kerak. Chizma dekorაციyalar qanchalik yahshi ishlangan bo'lmasin, ular aktyorga bog'liq bo'lmagan holda idroq etilaveradi, negaki ular ikki o'lchamli yoki yassi bo'ladi, aktyor uch ulchamli yoki hajmli, shuning uchun hajmli ashyolarning yassi tasviri bilan doim ham bog'lanavermaydi, undan tushib qolaveradi.

Hayotta biz insonni uni o'rab turgan xajmli olam o'rtasida ko'ramiz, bu erda har bir qisim, har bir ashyo u bilan ma'lum o'zaro aloqada bo'ladi. Bu munosabat shakl va ranga, goh xajm va materialga, goh tezlik va statiklik (osoyishtalikka) asoslanadi. Sahnada ham huddi shunday. Shartli ixcham hayotni berayotib, biz shartli hajmni ham berishimiz kerak, uning oldida aktyor o'zini hayotdagi haqiqiy hajm oldidagi xaqiqiy inson sifatida ijabiy his qila olsin.

Dekoraciya aktyor uchun yasaladi, shuning uchun agar u unga qulay bo'lsa, unga o'rganib, kirishib ketadi va tamoshabinga spektakilning ayrim qisimlaridan emas, balki undan batafsil tasavvur olishiga imkon beradi.

Albatta bezakni qanday qilib bo'lsa ham hech birortasiga o'xshamaydigan qilish shart emas. Bu kulgili bo'lib qolar edi. Negaki sahnadagi aktyor ham hammamizga uxshagan odam, faqat u o'zi tasvirlayotgan qiyofaga ishonishga majbur qiladi. Shu ma'noda teatr bezaklari ham shakl jihatdan nihoyatda qulay bo'lib, o'zining sahnada aktyor bilan aloqada maqsadga muvofiqligi va xayotiyligiga ishonishga majbur qilishi kerak.

Butun spektakilning birligi, uyushkoqligi, uygunligi (bir ansambl bo'la olishligi) uning ishonchliiligi va tamoshabinga mukammal tasavvur bera olishligiga bog'liq.

Bezak qisimlari

Aktyor sahnada nafaqat pol yuzasida, balki sahnaning vertikal chizig'i bo'ylab ham ko'rsatilishi lozim. SHu maksad uchun stanoklar (ko'priklar), zinapoyalar, narvonlar, havozalar singari bezak qisimlari zarur bo'ladi.

Aktyor qayoqqadir chiqishi va ketishi lozim bo'ladi, uni ko'zdan yashirish uchun qandaydir sahna qismlari, shitlar, pardalar, to'siklar bo'lishi va ular tez paydo bo'lib va tez ko'zdan yuqolishlari kerak.

Aktyor bezakka uyg'unlashuvchi u bilan bog'lanish joyiga ega bo'lishi kerak, shu maksadda bizga tanish bo'lgan jihatlar va asosiy bezakning turi o'zgargan qisimlari bor.

Aktyor tomoshabinga samarali va foydali tavsiya etilishi lozim. Aktyorning komati, turli nur buyog'i usullari, sehrli chiroqdan foydalanish va boshqalar shu maksad uchun xizmat qiladi.

Transporant, kino va sehrli chiroq konstruktiv bezashda sahna qo'shimcha tasviriy vositalarning eng yahshisi hisoblanadi.

Bezashning bu barcha holatlari xaqida alohida to'xtalamiz va so'ngra ularni sahnada o'rnatish va foydalanish xaqida gaplashamiz.


Sahnadan vertikalga foydalanish

3, 4 yoki undan ortiq metr balandlikka ega bo'lgan sahnalarda vertikal bo'yicha makondan foydalanishga imkon beruvchi qisimlarni quritish mumkin bo'ladi.

Stanok. Sahnada baland joy hosil qilish uchun stanok yoki supa eng keng tarqalgan ashyo hisoblanadi. Odatda ishlashda (kuchirish, o'rnatish, saqlash) qulay bo'lishi uchun stanok yig'ma qilinadi (4-rasm).

U odatda yig'iladigan asos, kashak va shitdan iborat bo'ladi. Bu barcha qurilma qisimlari 4-rasmda ko'rsatildi, Bunda a-harifi bilan shit, b-kashak, va v-asos ko'rsatilgan.

Stanoklar taxminan 0,75x1,5 va balandligi 0,5 metr hajmda uncha katta qilmay yasaladi. Bunday stanok nihoyatda qulaydir, agar kattaroq supa zarur bo'lib kolsa, bu stanoklardan bir nechitasi yonma-yon qo'yiladi. O'rtacha sahna uchun bunday stanoklardan uch-to'rttasi etarli.



4-rasm. Stanok

Zarur bo'lganda stanok asosini berkitish uchun yondab qo'yiladigan yoki ilinadigan (ilgak, izma, ilmoq) yon shitlari yasaladi. Ularning yahshisi ikki tomoni faner bilan berkitilgan ramka shaklida engil qilib ishlagani ma'qul, zarur bo'lganda bo'yalgan har ikki tomonidan ham foydalanish mumkin. Hamma shitlar (har bir stanokka to'rttadan) deyarli bir paytda ishlatilmaydi, negaki bir necha stanok birlashtirilsa ayrimlarining ko'pgina tomoni ko'rinmaydi va bitta stanok turganda ham uning ko'p qismi ko'rinmaydi. Barcha shitlar stanokning yonini tez-tez o'zgartirish uchun zarur bo'ladi. Bulardan tashqari bo'sh shitlardan alohida shit-

parda sifatida bezashda foydalaniladi, shuning uchun ilgak va boshqa mustahkamlash tizimlari stanokda va bir-birida aniq mos kelishi kerak.

Stanoklardan yon shitsiz ham foydalanishga to'g'ri keladi, bu bilan ular engil va qulay bo'lib koladi, shitlar bilan stanoklar maxobatliroq va og'irroq ko'rinadi. O'ta baland stanoklar yasamagan ma'qul. Yahshilab yasalgan qichikroq stanoklarni ustma-ust qo'yish mumkin. Buning uchun qichikroq metall changaklar yoki ustma-ust qo'yishda oyoq qirib turadigan teshikchalar bo'lishi kerak. Stanoklardan umumiy bezashda foydalanish xaqida keyinchalik gapiriladi.

Qiyalik va zinalar. Baland shaqldan polga qadar qiyalatib qo'yilgan yuza qiyalik deb ataladi. SHitdan stanokka tirab qo'yiladigan yoki stanokka yoxud boshqa balandlikka tirab qo'yiladigan taxta ham qiyalikni hosil qilishi mumkin. Ular agar xajmi katta bo'lmasa (1-1,5 m.) iv ko'tarilish bo'rchagi unchalik baland bo'lmasa ular tekis bo'lishi mumkin, yoki tomni buyayotgan bo'yoqchilar kabi oyok sirpanib ketmasligi uchun yonchasiga taxtalar qoqilgan bo'lishi mumkin. Uncha katta bo'lmagan qiyalikni (uzunligi 1 metr 40-50 sm. kutarilgan) yonlariga taxta koqib qo'ygan ma'qul, Bunda ular mustahkamroq, mahkamroq bo'lishi va bir-biriga kombinaciya qilganda to'g'ri to'rtburchak, teng yonli uchburchak va boshqa yangi shakllarni hosil qilish mumkin. Bulardan tashqari ularni stanoklar ustiga qo'yish va ularga xar qanday tomondan yondab qo'yish mumkin bo'ladi.

Zinalardan farkli panduslar aktyorni engil va tekis, uzluksiz harakat qilishga majburlaydi.

Zamonaviy spektaklda aktyor sahnadan tomosha zaliga tushish ham mumkin. Buning uchun orkestr ustida ikkita kuprikcha bo'lishi lozim, lekin u bo'lmasa ikkita zinapoya bo'lishi kerak. Ularning xar ikkalasini ko'chirish mumkin bo'lishi uchun mahkamlab qo'yilmaydi.

Stanokka chiqish va tushish uchun pog'onali zinapoya qilinadi. Ularning balandligi stanok balandligiga mos kelishi zarur. 0,5 metrlik stanok uchun uch pog'onali zina zarur bo'ladi.

Umuman olganda barcha qisimlarning xajmi bir-biriga nihoyatda mos bo'lishi kerak, shunda ulardan bolalar kuboqlardan qilingandek turli balandliklar yasash mumkin.

Bir-biriga pogonalari bilan qo'yilgan zanalar bilan kub, to'g'ri to'rburchak shakldagi xajmli shakllar yasash mumkin. 5-rasmda uch pog'onali ikkita zanapoyadan yasalgan shakllar ko'rsatilgan.

Shitlar

Ikki tomoniga mato, fanera yoki karton tortilib mahsus «oyoklar» yoki doimiy tayanchlariga o'rnatilgan ramkani «shit» deb yuritiladi. Bunday shitlarning xajmi 1x2 va undan kattaroq metr bo'lishi mumkin. U ham kalis bajaradiga vazifani bajaradi, lekin uning qulayligi shundaqi, uni sahnani xar qanday joyiga o'rnatish mumkin. Shitlar-polga ham, stanok ustiga ham miqdori 4 va undan ortiq bo'lishi mumkin. Ularni kulrang, «ximoya» jigarrang singari neytral tushlarga bo'yash mumkin.

Spektakl chog'ida shitlarning tez urnini almashtirish uchun ularga mebellarda bo'ladigan gildirakchalar o'rnatib qo'yiladi. Agar barcha to'rtta shitga ega bo'lish imkoniyati bo'lsa, agar sahna xajmi va mablag etarli bo'lsa, ulardan ikkitasini balandroq, ikkitasini pastroq va ingichqaroq qilgan ma'qul, shunda ulardan turli holda foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.


Shitning xar ikki tomoniga mato tortish mumkin emas, negaki ular kul bilan tez-tez urni almashtirilganda mato yirtilishi mumkin, bosh tomondan, bir tomonga mato tortilganda boshqa tomondagi rama va kundalang taxtalar ba'zi qurilmalarda tashqi ko'rinish sifatida foydalanish mumkin. Shuning uchun ramalarni ikkitasini qoraga (ikkita shitniqi) va ikkitasini oqko (boshqa ikkita shitniqi) bo'yash mumkin.

Pardalar

Parda va uning turli rang, shakldagi ko'rinishlari zamonaviy sahna bezagining juda keng tarqalgan qismi xasoblanadi. Odatda juft yoki bir necha donadan uzaro boglangan yog'och romlari qandaydir matolardan tortilgan yopqichlarni «parda» so'zi bilan nomlanadi. Polga burchak qilib qo'yilgan pardalar nihoyatda qulay, ularni polga xech qanday usulda mahkamlash shart emas, ularni holatini tez o'zgartirish mumkin, ularga dekorativ elementlar mahkamlash ham mumkin bo'ladi. Bulardan tashqari ular nur bilan ishlaganda yahshi yuzalar bo'la oladi, bir kator qilib qo'yilsa hatto ekran vazifasini ham bajara oladi.

Pardalar xajmini aniq belgilab bo'lmaydi, hammasi sahnaning hajmiga bog'liq, umuman ular katta xajmda bo'lmagani ma'qul. O'tacha sahnaga har biri ramasi 2x1 metr xajmligini ishlash mumkin, ya'ni undan insonning bo'yi ko'rinmasa bo'ldi va unda polda yoki ko'rsi qo'yib narvonsiz ishlansa bo'lgani (qisimlarni osishda).

Bunday pardalar sahna makonini saklash uchun xizmat qiladi, unga kerakli shaqlni parda bo'laklari bilan cheklangan sahna polida qurilma hajmiga kerakli shaklni berishga hizmat qiladi. Pardalar bilan «pavilon» ko'rishni uylash (uch devorli hona) mumkin emas. Pavilon sahna yuzasini tashkil qilish uchun qulay, hajmi qo'polroq, o'zgartirish qiyin va xokazo. Alohida pardalar ishlashga ancha qulay va polga o'zining uzun tomonini qo'yish bilan ham foydalanish mumkin, bu bilan unga yangi shakl beriladi.




6-rasm

Zarur bo'lganda pardalarni ketma-ket uzun zanjir qilib birlashtirish uchun oshiq-moshiq izmasi bo'lishi maqsadga muvofikdir. 6-rasmda tasvirlangan oshiq-moshiq izmalari nihoyatda aniq mahkamlangan bo'lishi lozim, Bunda ularning har bir chap qismi har bir o'ng qismiga nihoyatda aniq tushishi zarur, bu sahnadagi shoshilinch holat paytida o'lchamdan qutqaradi. Izmalarni birlashtiruvchi sterjen doim ularning yoniga ilib qo'yilgan bo'lishi lozim. Bu pardalarning eng sodda turidir, lekin yangi imkoniyat yaratuvchi ularning boshqa turlari ham mavjud.

Aylanuvchi pardalar

Bunday pardalarning tuzilishi quyidagicha: metal burchaklar qoqilgan mahkam ramaga ikki tomonidan mato tortilgan kichikroq rama kiydiriladi. Kichik rama erkin, lekin hech qanday tirqishsiz katta ramaga joylashishi kerak. Ramalarning yuqori va pastki brusoq orasida o'rtada to'g'ri ochilgan bo'lishi kerak va u tashqi tomondan ularni metall sterjen bir-biriga mahkamlab turadi, bu sterjen kichik ramani bimalol aylanib turishiga yordam beradi. Aylanadigan joyiga sterjen uchun teshiklar qo'yilgan metall plastinkalar mahkamlanadi va charimdan xalqalar kiydirib ko'yiladi. Boshqa yunalishda aylanadigan shitlar ham yasash mumkin, ular yuqoridan pastga aylanadi, bu 7-rasmda ko'rsatilgan.



7-rasm.

Tashqi ramalar mu'tadil (yorqin emas) rangga bo'yaladi, lekin ikki tomoni turlicha rangda bo'ladi, aylanuvchi o'rta rama yorqin rangga bo'yalishi mumkin, lekin uning ikki tomoni ikki hildagi rangda bo'ladi.

Markaz qismi aylanadigan parda spektakl chog'ida eshik, aylanma plakat, diagramma, plakatlar, illyustraciya uchun taxta sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu holatda ishdan quyidagicha foydalaniladi: ya'ni, aytaylik ma'ruzachi ko'rinadigan tomondagi plakat xaqida tushuntirish bilan band, boshqa shaxs esa orqa tomonga keyingi varaqni iladi va zarur bo'lganda ma'ruzachi aylanuvchi shitda tayyor illyustrativ materialga ega bo'ladi.

Qator qo'yilgan, oshiq-moshiqlar bilan birlashtirilgan va polga mustahkamlab qo'yilgan pardalar tomoshabin ko'z oldida tezlik bilan bir necha marta dekoraciya o'zgarishini namoyon etish imomkin. Buning uchun avvakdan ularning har ikki tomoniga tegishli rangdagi va tasvirdagi zaruriy bezak qisimlari osib qo'yiladi. Zaruratga bitta yoki bir necha shitni birdaniga aylantirish mumkin. Bunday pardalardan uch donasi bo'lgani ma'qul.

Sinch-pardalar

Bunday pardalar tegishli bezak qisimlari osilgan birlashtirilgan yoki birlashtirilmagan ramalar panjarasidan iborat bo'ladi. Bezak qismlari osilgan (portret, soat, parda, chiroq) yuzalar bo'lmasligi ham mumkin. Bu erda dekorativ ashyolarni yuzaga osib ko'rsatish va ramalarning chiroyli aniq panjarasi bilan samaraga erishiladi. Sinchli pardalar ramalari bir tomondan oq rangli bo'lishi va barcha bezaklarni aniq namoyon etishi hamda boshqa tomoni bezak ashyosini nihoyatda yahshi ko'rinishini taminlash maqsadida qora rangda (sezilmaydigan) bo'ladi.

Pardaning asosiy ramasining O'zi bir necha tomonga ochiladigan bir necha yunalishdagi taxtachadan iborat bo'ladi, ular ochiq holda turli liniyalı suratlar va osish uchun ortiqcha joy beradi. Ba'zan zaruriy surat ko'rinishini matodan qilingan

lentalarini, karton yoki faneradan tasmalarni osish yuli bilan suratlarni osish yuli bilan hosil qilinadi.

Pardalarning agar bu ramalari o'zining ichki tomon tirqishi yoki doirasi bo'lsa, Bunda har qanday tasviri bo'lgan fanera bo'lagini qo'yish mumkin. Bu aynan bir holdagi parda ramasini ham odatdagi va ham sinchli parda sifatida foydalanish imkonini beradi.

Siljituvchi shiti bo'lgan sinchli pardalar jonli gazeta va estrada nomerlarini bezatish uchun nihoyatda qulay. Siljituvchi shitlarda spektakl chog'ida zarur bo'lgan chaqiriklar, reklamlar, sodda surat-illyustrაციyalar bo'lishi mumkin. Aylanuvchi shitli pardalar bezaklarning harakatdagi qisimlari sifatida hizmat qilishi mumkin.

Qo'shimcha bezak qisimlar

Yuqorida ko'rsatilgan bezak qisimlariga yasash mumkin bo'lgan bir holdagi qurilmalargina etarli bo'lmaydi: ular faqat «uzaq», «asos» bo'lishi mumkin, ularni yanada tukisroq qilib boyitish mumkin. Birinchi qisimda tasvirlangan bezak qisimlariga bu maqsadda bevosita asosiy parda bilan bog'liq qisimlarni qo'shimcha qilish mumkin. Ular yuzalarni tezlik bilan tashkil qilish, olib tashlash va ularning turlarini o'zgartirish imkonini beradi.

Ular aylantirish, «klapan» ni ochish, yonini o'zgartirish, pardalarni ilon izi holatidan to'g'ri holatga keltirish va xoqazo kabi usullarga asoslanadi. Bu yunalishda yanada ko'proq imkoniyatlar hosil qilish, kashfiyotlar ochish sahna xodimlari qo'lidadir, ushbu qitobda esa shu yunalishdagi ishlar principi bilan tanishtiradi.

Agar aylanuvchi shitli pardani olinadigan bo'lsa, Bunda shitni shunday aylantirish bilan darhol o'zgarish yasaladi. Bu principda boshqachaga o'zgaradigan portret (bezak qismini ramaning yuqorisiga joylashtirish mumkin), stul yoki divanning so'ychig'i kabilarni tuzish mumkin.

Shitning tashqari tomonini kundalang «klapan» yordamida tez o'zgartirish mumkin. Bunda izmalari bilan shitning o'rtasiga mahkamlangan, uning yarmicha xajmicha yupka faner bo'lagi klapan deb nomlanadi. Yopik ko'rinishda u pardaning ustki chetiga qandaydir ilmoq, engil zulf yoki tugun yordamida mahkamlanadi. Klapaning tashqi yuzasi va parda bir hilda va bir yahlit yuza sifatida tasavvur hosil qilish kerak. Agar spektakl chog'ida klapaning ustiga bog'langan ip tortilsa, u ochiladi va shu bilan ayni paytda pardaning yuqori shit yarmini ham ochib yuboradi, shunda uning shu paytgacha ko'rinmagan ichki ko'rinishi ham ochilib qoladi. Ularning har ikkalasida yangi tasvir yoki fon namoyon bo'ladi. Shunday qilib butun en buylab hajmdagi yangi yuza hosil bo'ladi, bu qurilma kichik shakl va spektakllarni bezashda qulaydir.

Aynan shu klapanidan unga va uning ostidagi parda qisimga knopkalar bilan zaruriy tasvirlarni yopishtirish yuli bilan bir necha marta foydalanish mumkin.

Agar klapaning tashqi burchagiga ip mahkamlansa, ipning boshqa uchi pardaning yuqori burchaklariga bog'lansa, klapani ochgan paytda chiziq bo'ylab kesilgan buklama yuza tasviri bo'lgan «polka» paydo bo'ladi. Agar klapaning tugunli chizmalari osilsa, uni zarurati tugashi bilan olib qo'yish mumkin va pardaning «yarim» buyog'i kerak bo'lgan joyga osish mumkin.

Bu klapani kundalang deyilishiga sabab shundaqi, uni rama bilan pardaning kundalanga birlashtirib turadi. «Bo'ylama» klapan ham unga o'hshash joylashtiriladi u pardaning tik chizig'iga o'rtasi bo'ylab mahkamlangan va uning uzunligi bo'ylab parda yuzasining yarmigacha yarmini tashkil qiladi. Bunday klapani ag'darib uning ortiga yashirilgan ustun, ferma va boshqalar tasvirini ochish mumkin.

Pardaning butun yuzasini o'zgartiruvchi «butun» klapanlardan tashqari zarur joyda va zarur hajmda ko'rilgan «qisman» klapanlar ham bo'lishi mumkin.

Gildirakchalar o'rnatilgan ikkita shit yoki ikki juft parda bilan ularni tez siljitish yuli bilan ajoyib «tryuk» yasash mumkin. Bu qo'yidagicha amalga oshiriladi: shitlarning yoki pardalarning ichki chetlari orasiga xar qanday ma'nodagi polotno yoki engil materialdan har qanday engil tasvirli to'r mahkamlanadi. Orasiga

imto qoqilgan parda yoki shitlar bir-biriga yonma-yon tirkab qo'yilgan yon taxta bo'lib qoladi, zarur bo'lgan sahnadagi ikkitasi bilan turli tomonlarga tez jildirib yuboriladi, Bunda ularning orasiga maxqimlangan tasvir yoki yozuv chiziladi va namoshabin ko'z o'ngida bezakning butunlay yangi qismi paydo bo'ladi. Jildirayotgan paytda sahna bo'ylab nur harakati yoki almashtirish uchun zarur bo'lgan paytda chiroqni bir lahzaga uchirib-yondirish zarur bo'ladi. SHu tarzda pardalar orasiga qichikroq ekran o'rnatilishi, spektakl davomida unda filmdan parcha ko'rsatilishi yoki sehirli chiroq yozuvi yoxud zaruriy kartina ko'rsatilishi mumkin.

Yuqorida so'z yuritilganlarga o'hshash yana ko'plab usullar mavjud, ularning ko'pchiligi qo'lbola bezatishda imkon bulmaydigan texnik jixatdan yuqori mahorat bilan ishlashni talab qiladi. Bu sodda princplardan elpigich princpini ko'rsatib o'tish mumkin, Bunda uni turli tomonlardan ochilsa turli ya'ni varaqlanuvchi (kitob singari) yuzalar, tashlab ochiluvchi yuzalar (amerikacha tugun), qaychi singari yuzalar hosil bo'ladi. Modellar ustida e'tibor bilan hamkorlik ishida shu soxada o'ziga hos yulni uylab topish mumkin: goh qandaydir fikirga duch kelinadi yoki mashinaning buklanadigan, goh sinadigan qismi ko'rinib qoladi, umuman bu xayotning o'zi kuzatuvchanlik hamisha sahnaga olib chiqish mumkin bo'lgan har qanday materialni beradi.

Bezak mantaji

Sahna qurilmasi bilan mizansahna aloqasidan foydalandi.

Bezakning yuqorida tasvirlangan qisimlari (stanok, zinapoya, pardalar) sahna uchun ko'pgina bezaklarni yasash uchu asos bo'ladigan qisimlardir.

Har bir yangi spektakl uchun bezaklar mantajini imkon qadar hilma-hil qilish lozim. Ular uchun nima asos bo'lishi, bu o'zgarishlar qaerdan paydo bo'lishi, ular nima bilan ifodalanilishi kabi masalalar e'tiborni tortadi.

U yoki bu bezak qismini o'rnatish uchun sahna bezatuvchi bilan kelishib olingan rejissyorlik-sahnalashtirish rejasi asos bo'ladi. Rejissyorlik rejasi pesa

mazmuni, spektakl maqsadi, ijrochi kuchlarning umumiy darajasi kabilar bilan bog'liq talablardan kelib chikadi.

Birinchi qisimda sahna bezagi taxlilida u yoki bu sahna anjomlarning asosi bo'lib asosiy rol uynash joyi «kartinasi» xizmat qiladi, Bunda sahnada hizmat qiluvchi odamlar va ular harakati, bu harakatlar osoyishta, jo'shqin namoyish ekanligi xaqidagi xususiyatlar xisobga olinmadi.

Endi tahlil qilinadigan dekorაციyalar qurilmasi ana shu masalalarni hal qilib berishi lozim.

Jushqin namoyish harakatlari uchun bir necha yunalishlarda o'nqir-cho'nqir ko'rinishdagi yuzalarni tayyorlash lozim. Buning uchun stanoklardan tushish uchun uyaliklar ko'tarilish uchun zinapoyalar qo'yiladi.

Ishga ketish harakati ommaviy bo'lmasligi mumkin, Bunda harakatni mo'tadillashtirish uchun maqsadga erishishning qisqaroq yullaridan foydalaniladi. Maqsadga yaqinlashgan sayin xarakt sur'atini kuchaytirish uchun balandlikka ko'tarilish harakatini bergan ma'qul. Buning uchun ish honaning «kirish» joyiga etguniga qadar stanoklardan kiya yo'l (1-3 m.) hosil qilinadi. Bu o'z navbatida inson maqsadga intilayotganda balandlikka chiqish-tushish bilan bog'liq harakatini ifodalash imkonini beradi. Rejissyor ishiga e'tibor berishdan maksad rejissyor va bezakchining hamkorlikdagi ishini oydinlashtirish va ularning ishida kanchalik yaqinlik bor ekanligini yana bir bor ko'rsatishdan iborat bo'ldi.

Ko'pchilik qishilar harakatini ifodalash uchun ular bir necha yunalish yoki tamonlarga qarab harakatlar tashkil etiladi. Birinchi planda harakat pol bo'ylab, ikkinchisida stanoklar va utish joylari, uchinchisida yo stanoklar yoki yanada balandroq joylar buylab tashkil etiladi, zero uchinchi planda balandroq joylarga o'rnatiladigan bayroq, mazmuniga qarab chaqirik, ishlab chiqarish qurollari va boshqalar beriladi.

Umuman olganda imkoniyati bo'lgan joyda ko'p sonli odamlar bilan sahnani to'latish holatlarini kamaytirgan ma'qul. Bulardan tashqari ko'pchilik to'planadigan namoyish yoki yig'inlarni kamroq sonli odamlar bilan ifodalab qo'yish imkoniyati ham bor.

Namoyishni 10-20 kishi bilan hal qilib qo'ysa bo'ladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi: agar shu zarur bo'lsa plakat va chaqiriklar osilgan parda oldidan birinchi plin bo'ylab asta harakatlanayotgan kishilar guruhi o'tadi. Shu paytda ulardan keyin pardalar ustida bir necha taxtachalarga mahkamlangan bayroqlar, shiorlar asta hilpirab o'ta boshlaydi, ularni bir necha qishi boshqara olishi kerak. Ular bir qator o'tgach, boshqacha marom va sur'atda yana olib o'tadi. Harakat orasida o'zlashish bo'lib qolmasligiga e'tibor berish kerak. SHu asnoda 3-4 qishi sahna ortida butun bir namoyishchilar yurayotganligi tasavvurini berish mumkin. Albatta Bunday sahna ortida harakatlarni badiiy did bilan tashkil etish lozim, aks holda opera «vampuchka» siga o'hshab qoladi. Sahnadagi harakat jarayoni chiroq nurlari bilan boyitilsa yanada yaxshi bo'ladi. Bu harakat tasavvurini kuchaytiradi.

Sahna ortida odamlar yuradigan joyning eni sahnaning yarmidan ortmasligi kerak. Buning uchun sahna yonlariga stanok ustiga baland shitlar qo'yish mumkin, bayroqlar esa ularning yonida pastroq pardalar ustida harakat qiladi.

Sahnada bir necha qishi bilan ko'p mikdordagi odamlar harakatini yani bir yaxshi usuli bor. Buning uchun sahnaning chetlari bo'ylab baland shitlar qo'yiladi, bayroqlar esa ulardan pastroq pardalar orasida harakat qiladi. Pardalar orasiga tortilgan kichikroq ekran ortida birin ketin ketayotgan kishilar tasviri orqali ham ko'pchilik kishilar yurishi tasavvurini berish mumkin bo'ladi. Stanok, zinalar bo'ylab yurish mumkin. Yaxshi soyalar hosil bo'lishi uchun orqadan ekran markaziga yunaltilgan nur manbasi kuchli bo'lishi kerak. Yurayotganlar ekranga yaqin bo'lishi kerak shunda soyalar siyrak bo'lib qolmaydi.

Ekrandan soya kanchalik uzoqlashsa, u shunchalik kattaroq, lekin chaplashganroq bo'ladi. Bu holatni ham nazarda tutish va foydalanish kerak bo'ladi.

Ayni bir necha shaxs komati va yurishini o'zgartirib ekran oldidan qayta-qayta o'tishi mumkin. Ish qurollari bilan o'tayotgan soyalar juda yaxshi ko'rinadi. Sahnadagilarga qo'shimcha ravishda ekrandagilarni ko'rsatishning afzalligi shundaqi, ekran ortidagilarga ko'p xollarda mahsus libosning zarurati bo'lmaydi, negaki odatdagi liboslarga birorta qo'shimcha qilish bilan tegishli komat tasvirini

olish mumkin. O'z libosini qo'li bilan «chimarish» yuli bilan komatni o'zgartirsa bo'ladi.

Yoritilayotgan ekran tantanali kunlarda tantanali yig'ilishlar va estrada tomoshalari uchun sahnani bezashda foydalanish yahshi samara beradi. Buning uchun karton yoki fanerdan qirqilgan ko'rinishlarni ekran orqasiga joylashtiriladi. Sahnaning o'ziga ekran yon tomonlariga shitlar joylashtiriladi, ularga tadbir mazmuniga to'g'ri keluvchi portretlar, chaqiriqlar ilib qo'yiladi. Ekran yonlarini yog'och taxtachalardan fermalar bilan chegaralab qo'yish mumkin. Ekran ustiga yorituvchi chaqiriq osilgani maqsadga muvofik. Buning uchun kartondan harflar kesib olinadi, orqasiga nur qaytaruvchi kog'oz yopishtiriladi. Kartoning oldi avvaldan yahshi osoyishta tusga bo'yaladi. Unga chiroq nurlari tushgandan so'ngra yanada yahshiroq ko'rina boshlaydi.

Agar shior, plakat, qarta diagrammalarni orqadan yoritish zarur bo'lsa tasvir kesib olingan shit orqasiga chiroq o'rnatilgan yashik mahkamlanadi. Yashik yorug'likni yonga tarqab ketishga yul qo'ymaydi. Bunday transporantni sahnaga ham, boshqa xonalarga ham osish mumkin. 9-rasmda ekranli tasvir ko'rilmasi berilgan.



8-rasm.

Dekorაციyalarni o'rnatish

Bezakning barcha qismlari maketda yaxshilab joylashtirilganidan va muhassabiga ko'ra aniq ishlangandan keyin, ularni endi sahnaga olib chiqiladi, Buni qoralama mantaj repeticiyasi deb yuritiladi. Unda yana hamma narsa to'g'ri bajarilganligi, mustahkamligi, ortiqcha narsalar yukligi kabilar tekshirib olinadi. Turli yoritilish sharoitida dekoraciya qismlari o'rmini almashtirish ko'rib chiqiladi va ular o'rnatiladi (sahna poliga belgilar qo'yiladi). Aniqlangan kamchiliklar tezlik bilan bartaraf etiladi va shundan keyinoq to'la mantajlash repeticiyasiga kirishiladi, uning ma'nosi quyidagicha: aniq va nihoyatda tezlik bilan o'rinni almashtirishga erishish. Spektakl jarayonida aniq ishlash uchun butun ish aniq taksimlanib olinadi. Polga aniq belgilar qo'yiladi, mustahkamlanadigan joylar yodda saklanadi. Har bir o'zgarish ishlarini bajaruvchi shaxs u qaysi tartibda va nima qilishi lozimligini aniq bilib olishi bu bir-biriga turtinib ketishdan asraydi.

Libos qiyib olgan aktyorlar bilan o'tkaziladigan to'la mantaj repeticiyasi bezak qismlari va mizansahnani joylashtirishdagi qulaylik ma'nosida qator nuqsonlarni ko'rsatib qo'yish mumkin. Bunday holatda qurilmalarni qayta joylashtirish yoki takomillashtirish ishlarini amalga oshirish zarurati paydo bo'ladi. Shunday qilib bezakni bir necha bor tekshiruvdan keyin u spektakl uchun o'rnatilishi mumkin.

Bezakning tashqi ko'rinishi

Bezak nima ekanligi, uning tashqi ko'rinishi qandayligi, u nimani tasvirlayotganligi yoki eslayotganligi xakida hali hech narsa deyilmadi. Bu shuning uchun qilindiki, sahna ustalarining o'zlari har bir spektakl uchun qulay va ma'qul bo'lgan bezaklarni yuqorida tasvirlardan tanlab olish va o'zlariga qulay bo'lgan uzgartirishlarni kiritishlari imkon yaratadi. Shunda to'la erkin fiqirlashga va ba'zi narsalarni aynan kuchirib olmay ularga ijodiy yondashishga imkon yaratiladi va aynan shundan katta foyda bo'ladi.

Spektakl uchun qurilma qanday barpo etiladi va joylashtiriladi

Dastlab barcha qurilmalar sxemasini tuzib olish zarur. Qurilmalarni o'zgartirish qismlari biroz o'zgartirish va ba'zi shitlar yoki pardalarni o'rniini almashtirish yoki ularni boshqa tomondan ko'rsatish kabilar bilan amalga oshirish zarur bo'ladi. Bunday princp barcha bezaklarni butun spektakl davomida birligi va butunligini his qilishga imkon beradi.

Soddalik barcha qurilmalar uchun asosiy qoida bo'lib qolishi kerak. Sahnaga ortiqcha narsa olib chikmaslik lozim, negaki bu aktyorga halaqit beradi, bulardan tashqari tomoshabinga ko'rsatilmagan har bir shitdan mahorat bilan foydalanilsa o'nlab yangi o'zgartirishlarga yo'l ochadi.

10-rasmlarda ba'zi qurilmalar sahnada tayyor holda qanday ko'rinishi namoyon bo'ladi.



10-rasm.

Dekorაციyalar yasashda duradgorlik ishlari

Deyarli barcha yog'ochdan ishlanadigan zamonaviy dekoraciyada barcha qisimlarni texnik jihatdan bekamiko'st ishlanishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa aktyor yuradiga qisimlar O'zining nihoyatda mustahkamligi bilan ajralib turishi kerak. Shuning uchun materialning o'zi va u bilan ishlash usullari tegishli bo'lgan (qisimlarni mustahkamlash, burchaklarni mahkamlash va boshqalar) bir qator amaliy ko'rsatmalar berish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo qurilish materiali yaxshilab quritilgan bo'lishi kerak. Qurimagan materialdan yasalgan qisimlar bir muncha vaqt o'tgach albatta egilib-bukilishi mumkin, bu bilan qurilma o'zgarib ketishi mumkin va hatto uni ishlatishning imkoniyati ham bulmay koladi, masalan xo'l yog'ochdan yasalgan stanoklar mustahkam bo'lmaydi, qoplama shitlar to'g'ri kelmaydi, ishlayotganda qimirlab va giyqillab turadi.

Yashik, taxta o'rama, taxta bo'laklari kabi birdan to'g'ri kelib qolgan materiallar juda yahshi qurigan bo'ladi. Afsuski, Bunday materiallarning taxtalari hajm jihatdan doim ham to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun ulardan faqat qichikroq qisimlarni va dekorativ bo'laklarni yasash uchungina foydalanish mumkin bo'ladi xolos.

Umuman olganda turli yog'och materiallarni (taxta, reyka, fanera) zaxirada ushlab turish foyda beradi, zarur bo'lib qolganda bu quruk materialni darhol ishlatish mumkin bo'ladi.

Teatr ishida taxtalarni ko'pincha brusok va reyka shaklida arralab qo'yishga tug'ri keladi, keyin ular ishlatilaveradi. Brusoklarni yog'och omborlarida tayyor holatda uchratish mumkin.

Qisimlarni mahkamlash, elimlash

Kerakli duradgorlik asboblari, materialni arralash va tayyorlash kabilarga to'xtalmasdan, yog'och qisimlarni bir-birga mahkamlash usullariga o'tamiz. Eng avvalo ta'kidlash lozimki, katta ko'zlari bo'lgan brusoklar umuman ishga

yaramaydi, negaki ular mo'rt bo'ladi. Yog'och qismlarni mahkamlash uchun mih, shurup va yog'och elimidan foydalaniladi.

Mihlar tekis boshli bo'lishi kerak. SHuruplar tugunlarni mahkamlash va kattik yog'och (oqqayin, eman) qismlarini mahkam bog'lash uchun xizmat qiladi. Duradgorlik ishlari uchun suyak va tuqimalardan qaynatilgan eng yahshi duradgorlik elimining eng yahshi navi ishlatiladi. Singdirganda mustahkamligi, shaffofligi, qattikligi, shishasimonligi bunday elimning belgilari hisoblanadi, xavoda u namlanmaydi. Elim quyidagicha tayyorlanadi: maydaroq qilib sovuk suv quyilgan idishga tun bo'yi solib qo'yiladi, so'ngra shishgan bo'laklarni vannali elim qaynatiladigan idishga solinadi va olovga qo'yiladi (yuqoridagi kichik idish qaynoq suv bilan to'ladigan quyidagi katta idishga solib quyiladi). Elim Bunday ikki qavatli idishda qo'yib qolmaydi va uzoq sovimay turadi, lekin juda mahkam ushlaydi. Agar u quyilib qolsa qayta qaynatishda ozroq suv quyiladi.


Teatr ishlarida qismlarning deyarli barcha birlashtirilgan qismlari elimlanadi va elim qotib qolmasidan mihlab quyiladi.

Agar uzunroq taxta bo'lmasa, brusoklarni ulab uzaytirishda ham elimdan foydalanib bir-biriga yopishtiriladi. Uzaytirish uchun ulanayotgan brusoklarni diaganali bo'ylab to'la qir qiladi va elimlanadi. Ulangan joyga o'rtacha quyuqlikdagi yog'och elimga botirib va siqib olingan mato mahkam qilib o'raladi. Ko'pincha orqa pardalar uchun brusoklar tayyorlashda ulash usulidan ko'proq foydalaniladi. YOg'ochlar ochiq holda ishlatiladigan holatlarda brusoklarni ulab ishlatish mumkin emas.


Burchaklarni birlashtirish

Har qanday ramani (parda, shitlar) burchok holda birlashtirish uchun «kaft» ga mahkamlash uchun qo'llanadi. 11-rasmda uni yopishtirilgan va yopishtirilmagan holati ko'rsatilgan. O'rtadan kundalang birlashtirish, ramaga ikki tomondan mato tortilganda, shuningdek ustunni ostonaga ulash chog'ida 12-rasmda ko'rsatilgandek

boshqacha «kaftlar» qilinadi. «kaft» usulida kundalangiga birlashtirganda butun eni bo'ylab kesish mumkin emas, Bunda u mustahkamligini yuqotadi.




11-rasm.



12-rasm.


Ustma-ust qilib ko'ndalangiga birlashtirish uchun kaftni materialga bir tomonlama mahkamlash usuli 13-rasmda ko'rsatilgan.



13-rasm.

Burchakni burchak qilib qiya kesilgan kaftga mustahkamlash uni yanada mahkam bo'lishga va qiyshayib ketishning oldini olishga imkon beradi. Burchakni yanada mustahkamlash uchun yarim dyuymli taxtadan yoki 5-6 millimetrlil elimlangan faneradan yahlit burchak mihlanadi. Burchaklarni birlashtirishdan avval u albatta elimlanadi.

«Tyurm» usulida burchaklar deraza va eshik romlari, shuningdek boshqa joylarda qo'llash mumkin. Tyurm shaklida burchakni birlashtirish 14-rasmda ko'rsatilgan. Tyurm usuli odatiy burchaklarda qo'llanmaydi, negaki u burchak va brusoklarni ancha zaiflashtirib quyadi.



14-rasm.

Burchak mahkamlashning yana boshqa anchagina usullari bor, lekin ular o'zining murakkabligi va aniq ishlanishini talab qilishi bilan teatr ishi sharoitiga tug'ri kelmaydi.

Oshiq-moshiq

Ikkita shit bir-biriga o'zaro oshiq-moshiq yoki ilgak bilan birlashtiriladi. Odatdagi oshiq-moshiqlar shitlarni faqat bir tomonga harakat qilishga imkon beradi va ularni bir-biriga «abadiy» birlashtiradi. Zarur bo'lganda ularni bir-biridan ajratish uchun «tishli» oshiq-moshiqdan foydalanish xaqida yuqorida aytilgan edi. Bunday ajraladigan oshiq-moshiqni qo'lda yasasa ham, tayyorini sotib olsa ham bo'ladi.

Bunday oshiq-moshiq tizimi 16-rasmda ko'rsatilgan. Har ikkala qisimni birlashtirib turuvchi mix yoki mahsus ip boylangan tyurmcha oshiq-moshiq yoniga doim boylab qo'yilishi kerak.



15-rasm.

Shit va pardalarni har qanday yunalishda siljitish va shu bilan ham ichki, ham tashqi burchak imkoniyatiga ega bo'lish uchun shitlarni yuqoridan pastgacha (ramka cheti bo'ylab) mahkamlanadigan «qirra oshiq-moshiq» dan foydalaniladi. Bunday oshiq-moshiqlarni sotib olish yoki o'z qo'li bilan tayyorlash mumkin. 15-rasmda uning tuzilishi berilgan.

Pardalarning ikki tomonlama aylanishi uchun mahsus parda yoki amerikacha oshiq-moshiqlar bor, ular juda kulay va shitlar (chetqi oshiq-moshiqda ham) tirqish qoldirmaydi, lekin ular ancha qimmat va sotuvda kam bo'ladi.

Elim bo'yoqlari va grunt xaqida

Yaqin o'tmishda dekoraciya asosan matoga elimli bo'yoq bilan echilgan bo'lar edi. Dekoraciya muvoffaqiyati ko'proq bo'yoqqa bog'liq bo'lar edi. Hozirgi davrga kelib qurilma va ashyoviy dekoraciyalarni ko'payganligi tufayli elim bo'yoqlarning o'mi nihoyatda kamayib ketdi, negaki yog'och va boshqa qisimlarni bo'yash uchun lok, anilin singari yuzaga ishlov beriladigan usullar kupayib ketdi.

Elimli bo'yoq ayrim shitlar, turi pardalar, deraza va eshiklarni bo'yashga ketadi. Undan yana bezak plakatlar, chaqiriklar yozish va ba'zi dekorativ qismlarni (daraxt tanalari, berejoklar va boshqalar) bo'yash uchun foydalaniladi.

Elimli bo'yoq suyuq elimda eritilgan quruq bo'yoq kukunidan iborat bo'ladi. Savdoda quruq bo'yoqlar mayda kukun, yumaloqlangan narsa va ba'zan kristall shaklida bo'ladi. Yumaloqlangan narsaga o'hshash bo'yoqni ivitishdan avval kukunga o'xshatib maydalash kerak. Bo'yoqni marmar taxta, qalin oyna, metal

parchasi singari qandaydir tekis yoki qattiq yuzaga to'kib oddiy shisha yoni bilan ezish mumkin.

Ishlash uchun bo'yoq tayyorlash quyidagicha amalga oshiriladi: biror idishga bo'yoq kukuni solinadi va uni qaymoq quyuqligicha aralashtiriladi va shu holatda u yahshi ivigunicha qo'yiladi. So'ngra suyuq qaynatilgan elim quyiladi va aralashtiriladi.

Bo'yoq yuzani yahshi qoplashi va yuzada yahshi turib qolishni bilish uchun uni bo'yalayotgan yuzaga suriladi va qurigunicha kutiladi. Har hil material elimli bo'yoqni turli miqdorda talab qiladi: yangi matoga eskisiga qaraganda kamroq bo'yoq ketadi, yog'och va karton matoga nisbatan ko'proq elim talab qiladi. Agar qurigandan keyin bo'yoq qo'lga yuqmasa, demak elim yo ko'p, yoki etarli. Shuni unitmaslik kerakki, elim ko'p qo'shilgan bo'yoq quriganidan keyin yorilishi va tukilishi mumkin va uzoq saqlanmaydi.

Bo'yoqqa elim qo'shish proporciasi qo'yidagicha bo'lishi kerak, ya'ni agar unga ozroq suv qo'shilsa, quriganda yuqib koladi. Bir necha marta sinab ko'rish yuli bilan bo'yoqning mustahkam bo'lishi uchun zarur bo'lgan elim miqdori aniqlab olinadi.

Keyinchalik amaliyotdan ko'rinadiki, nafaqat turli bo'yadigan yuza turli miqdordagi elimni talab qiladi, balki bo'yoq kukunining o'zi ham shunday, negaki u turli bo'yoqlarda turli tarkib va og'irlikdagi zarralardan iborat bo'ladi.

Sotuvda quruq bo'yoq turlari ko'plab topiladi. Bizga esa ulardan ba'zilari kerak. Quyidagi bo'yoqlardan ko'proq foydalanilishi mumkin:

1. Bo'r-oq bo'yoq grunt va rangtasvir uchun ishlatiladi, quruk belila o'rnini bosadi.
2. Och oxra-sariq bo'yoq.
3. Och sariq mineral-yorqin sariq.
4. Qizil rangli mineral-yorqin qizil.
5. Mumiyo-qizil-jigarrang, g'ishtrang.
6. Francuzcha yashil №707-juda yorqin, och moviy-yashil.
7. Francuzcha to'q yashil-yashil.

8. Ultramarin (sinka)-ko'k.

9. Qorakuya yoki yongan suyak-qora.

Bo'yoqlar narhi turlicha. Kimyoviy tarqibiga qarab bo'yoqlar turli narxda bo'lishi mumkin. Bur, oxra, mumyo-eng arzon bo'yoqlar, kinovar, 707, ultramarin-eng qimmat bo'yoqlar.

Bu bo'yoqlarni kukun yoki tayyor holda aralashtirish yuli bilan turlicha ranglarni olish mumkin. Sariq bo'yoqni qinevar bilan aralashtirilganda sariqdva qizil-pushtikacha bo'lgan tuslar olinadi. Sinkani sariq bilan aralashtirib turli darajadagi yashil tuslar olinadi.

Qorakuya oxra bilan och sariq hosil qilinadi.

Qorakuya mumyo bilan-jigarrang.

Krakuya bur bilan-sovuq kulrang.

Mumyo bur bilan pushti tus beradi.

Kinovar bur bilan toza pushti, qizil tus beradi.

Hosil qilingan ranglarni aralashtirib yana ko'plab tuslar olish mumkin. Bo'yoq bilan ozroq tanish bo'lgan xech bo'lmaganda akvarel bilan ishlash amaliyotidan buni yahshi bilasiz. Barcha bo'yoqlar quriganda och bo'lishini ya'ni ular o'z kukuni rangiga kirib qolishini yodda tutish zarur.

Eslatma. Qorakuyani daslab suvda yahshilab kaynatiladi yoki spirtida ivitiladi, so'ngra elim bilan aralashtiriladi, negaki u engil bo'lib ko'pgina katron-moy moddalarni o'z ichiga oladi va ular suv yuzasida suzib yurib bo'yoqni elim bilan aralashishga xalaqit beradi.

Elim bo'yoq bilan ish hususiyati ga qarab turli nomerdagi yalpoq yoki dumaloq jun cho'tkalar bilan surtiladi.

Ba'zi yuzalarni bo'yashdan avval gruntovka qilinadi. Eng sodda grunt elimga aralashtirilgan bo'rdan iborat bo'ladi. YAnada yopishkoq bo'lishi uchun unga ozroq sovin yoki glicerin (chelakka bir koshiq) kushiladi.

Gruntlangan yuza tekis bo'lib koladi, bo'yoq bilan yahshiroq qoplanadi, u kup ham singib ketmaydi va gruntlangan yuzaga qaraganda undagi tus tozaroq bo'ladi.

Anilin bo'yoqlari xaqida

Anilin-bu qorishmasi va rangiga ko'ra nihoyatda kuchli bo'lgan sun'iy kimyoviy bo'yoq, u kukun yoki kristall holatda sotiladi. Bu nisbatan qimmatroq, ammo u juda suyuq qorishma hosil qilganligi uchun toza va shaffof rang beradi va u bilan ishlash elim bo'yoqqa qaraganda arzonroq tushadi. Eng yahshi, ya'ni tusiga ko'ra kuchli va yorqin bo'lgan, kaynoq suv bilan aralashtirilganda cho'kma hosil qilmaydigan, shunga ko'ra arzon bo'lgan anilin kristall ko'rinishida bo'ladi.

Anilin ozroq spirtda aralashtiriladi, so'ngra qaynoq suv quyiladi. Bunday aralashtirish ma'qul, negaki u spirtida mayda zarrachalarigacha erib ketadi va anilin maksimum bo'yash hususiyati paydo bo'ladi. Odatda yanada oddiyrig'i uni suvda qaynatishdar.

Anilinning ortiqcha quyuq qorishmasi ham yaramaydi, negaki u quriganda yuzada kristallar paydo bo'ladi va bashqa narsalarga yuqadi. Anilin-bu pushti (och qizil), binafsha, yashil va sariq ranglardir.

Safsar bilan yashil aralashmasi ularning qaysi biri ko'pligiga qarab turli tusdagi ko'k rangni beradi. Pushti va sariq yorqin qizil rangni beradi va xokazo. Tuyinganlak darajasi qorishmani kuchliroq (quyuq) yoki kuchsizroq (so'yuq) qilib qo'yadi.

Anilin bilan yog'och, karton, kog'oz va mato yuzalarni bo'yash mumkin. Anilin bilan bo'yashning hususiyati shundaqi, u bilan bo'yalgan yuza o'zining dastlabki ko'rinishini saqlab qoladi, negaki anilin elim bo'yoq kabi qatlam hosil qilmaydi. SHuning uchun ham buyagandan keyin ham material yuzasi tuzilishini saqlab qolish xohishi bo'lganda anilindan foydalaniladi.

Xususan yahshi ishlov berilgan yog'och yoki fanera yuzasi anilin bilan bo'yalganidan keyin yanada yahshi ko'rinishni oladi.

Anilin yordamida yoritishga mo'ljallangan qismlar uchun turli holdagi tuslar tayyorlanadi, shuningdek bo'yalgandan keyin yumshoq va salqin qolishi kerak bo'lgan mato ham bo'yaladi. SHuning uchun anilin bilan pardalar, matolar va padugalar bo'yaladi.

Teatr liboslari materiallari xam anilin bilan bo'yaladi.

Oq spirt lokida eritilgan anilin daopozitlarni (sehrli chiroq uchun kartinalar) bo'yash uchun ham va elektr chiroqlari, oynalariga tus berish uchun ham yaraydi.

Loklash va sayqallash

Yahshilab yasalgan yog'och ashyoni jilvirlash kerak bo'ladi. Hatto faneradan yasalgan pardaning soddagina aylanuvchi shiti ham agar unga yahshilab ishlov berib saykallansa chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi. Kartina uchun ramka, dekorativ ashyolar singari qisimlar (yozuv stoli) ham saykallashni talab qiladi.

Sayqallangandan keyin chiroyli ko'rinishga keladigan yog'ochdan yasaladigan dekorativ qisimlarni qoplagich bo'yoq bilan bo'yash shart emas, anilin bilan bo'yagandan keyin to'g'ridan-to'g'ri saykallab qo'yaversa bo'laveradi.

Saykallanadigan qism yahshilab randalangan va qum kog'oz yoki oyna qog'oz bilan ishqalab tozalangan bo'lishi kerak.

Sayqallash uchun lokni yasash mumkin, lekin yahshisi tayyorini sotib olinsa arzonroq tushadi. Tozalangan yuzaga lokni tomon bilan beriladi. Buning uchun movut mato olinadi va bir necha marta buklanadi, uning ustidan matoli yoki kog'ozli latta o'raladi va qulda ushlab uchun qulay bo'lgan dumaloq asbob hosil bo'ladi. Lattani bukib uni shishaning ogziga olib kelib u ozroq lok tushadi, so'ngra lattani yoyib unga 2-3 tomchi yog' tomiziladi, tomon bilan doira shaklida butun yuza bo'ylab surib chiqiladi. Doirali harakat bilan bir qator o'tib chiqqandan keyingi katarga o'tib chiqishda davom etiladi va butun yuza qoplanmagunicha davom ettiriladi. Vaqti-vaqti bilan lokdan olib turiladi, matoga tomon yahshi yurishi uchun moy tomiziladi, shunda u yuzaga yopishib qolmaydi.

Agar yuza yahshi sayqal topmasa, sayqallashni ikki-uch kundan keyin davom ettiriladi, lekin Bunda spirt qo'shilgan loqdan foydalaniladi. Qurigan qatlam ustidan har gal lok bilan qoplashda uni suyuqroq qilinaveradi.

Sahnada lok bilan ishlash ko'p uchramaydi, lekin teatning boshqa honalari, xususan kutubhonada lok bilan ishlash tajribasi kerak bo'ladi.

Ishkor (tezob)

Ko'pincha yog'ochni oddiy «tezoblash» ko'p uchraydi. YOg'ochni ishkoriash degani bu kerakli rangdagi bo'yoq bilan uni ishkoriash va tezoblash orqali bo'yash deganidir. Tezoblash orqali jigarrang, kulrang, qora va qizil rangdagi yog'ochlarni hosil qilish mumkin. Ishkor kaynoq suvda eritiladi. Cho'tka, gubka yoki latta bilan qoplanadi.

Agar ishkor bo'lmasa har qanday dorihonadan topish mumkin bo'lgan marganciliy kaliy bilan almashtirish mumkin. Bu kuchli ishkor jigarrang bo'yoq urnini bosadi.

Ishkor bilan qoplangan yuzani loklash yoki mumlash mumkin. Ishkorlangan yog'ochning chiroyli qatlami ochiladi, lekin bu sayqallangandan ko'ra noaniqroq bo'ladi, shuning uchun chiroyli tuzilishga ega bo'lgan yog'ochdan tashqarisini tezoblash mumkin.

Loklash

Spirтли, kopali yoki dommarli loylar bilan loklanadi, uni keng yumshoq cho'tka yoki yuqorida tasvirlangan tampon bilan beriladi. Ayni paytda bir qator lok ham berib chiqiladi. Ikki-uch soatdan keyin yana bir qatlam beriladi, biroz tanaffusdan keyin yana beriladi, bu ish yuza tekis va yiltiroq bo'lguniga qadar davom ettiriladi. Loklangan yuza yanada shaffof bo'lishi uchun so'nggi lok quriganidan keyin so'yuq lok bilan yana bir qator berib chiqiladi.

Mumlash

Ishkorlangan yuzani mum bilan ishlov berish bu uni mumning skipidardagi eritmasi bilan qoplash deganidir (2 qism mum va 1 qism skipidar), Bunda chiroyli yaltiroq yuza hosil bo'lguniga qadar cho'tka yoki movut mato bilan ishqalanadi.

Bulardan tashqari yuzaga yana ko'plab usullar bilan ishlov berish mumkin. Bu usullar qisman ma'lum bo'lsa (kog'oz yopishtirish, mato o'rash, modda sepish va boshqalar), qisman bajarish qiyin, shuning uchun ular xaqida gapirish shart emas.

Yakunida shuni ta'qidlash lozimki, bezakning yangi shakillari va qisimlarini yaratish sohasida kashfiyotchilik ishi nihoyatda muhimdir, u bezak soxasiga yangidan-yangi materiallarni (shoxlar, kamichlar, ola gilam darojkalar, taxtachalar va boshqalar) olib kirishi va ularga ishlov berishda ham ahamiyatlidir, negaki nimani hadeb takrorlayverilsa, u odamlarning san'atga bo'lgan ihlosini kaytaradi.

Tayyor usullarni qo'llayvermay, tomoshabin har safar qiziqarliroq jihatlarni kutishini hisobga olib ishlashi kerak.

III- qism.

Teatr bezaklari qanday tayyorlanadi

Takrorlash uchun nazorat savol va topshriqlar:

1. Dekoraciya so'zi nima? Spektaklda dekoraciyaning roli.
2. Turli holatlarda bezatish imkoniyatlari material va shakllar nimaga bog'liqligini aniqlang?
3. Bezatish asoslari nimadan iborat?
 - a). Bezatish elementlarida kompoziciyaning roli
4. Libos va dekoraciyaning bog'liqligi?
 - a). Pardalarning ahamiyatini taxlil qiling
 - b). Dekoraciya qismlari va tuzilishi
5. Bezatishning boshqa usullarini aniqlang
 - a). Sahnada vertikal foydalanish
 - b). Bezak montajini tahlil qiling
 - v). Dekoraciyalarni o'rnatish
 - g). Duradgorlik ishlari, bo'yash, grunt, elimlash.
 - d). Laklash, sayqallash, mumlash.
6. Qattiq teatr bezaklariga nimalar kirishini aniqlang.
7. Deraza, eshiklar, shiftlar, ustunlar, temir, metall, daraxtlar, metall zinapoyalar, sahna bezaklari va hakoza haqida sharxlab bering.

8. Yumshoq teatr bezaklariga nimalardan tayyorlanishini so'zlab bering.
- a). Sahna qiyimi deb nimani ko'zda tutiladi.
 - b). Applikაციyalar nimadan tayyorlanadi.
 - v). To'shamalar nima?
9. Yumshoq sahna bezaklari qanday osiladi?
- a). Ferma yo'lakchalar, kulislar, panoramalar, zadniklar, antrakt pardasi, padugalar nimalardan yasiladi va ularning roli.

Mustaqil ish

(Vazifalar kompyuterda bajariladi)

1. Dekoraciya nimaga xizmat qiladi?
2. Qaysi holatlarda bezatish imkoniyatlari bir biriga bog'liq bo'ladi?
3. Bezatish asoslarida kompoziciyaning roli nimada?
4. Libos va dekoraciyaning bog'liqligini aniqlang?
5. Bezaklarda vertikal uslublar, montaj, duradgorlik ishlari: bo'yash, grunt, elimlash, laklash, mumlash usullari qanday kechadi?
6. Qattiq teatr bezaklariga nimalar kiradi?
7. Yumshoq teatr bezaklari deb nimaga asoslanib aytilishini tushintiring
8. Osmo yumshoq bezaklarning osish usullari va qaerga nimalarga osilishni sharxlang.

IV-QISM

Sahna pavilonlarining yig'ma portativ konstrukciyasi

Yurtimizdagi teatrlar ba'zan boshqa joylarda spektakllar namoyish etishlariga to'g'ri keladi. SHuning uchun ularning ishlab chiqarish hayoti sahna maydonini doimiy o'zgartirib turishga moslashgan bo'lishi kerak. Bu ko'proq viloyatlar markazlardagi teatrlarga tegishli, bulardan tashqari barcha teatrlar qishloq joylar, sanoat markazlariga ko'chma gastrollarga chiqadi.

Hozirgi paytda aholining ma'naviy ongini o'stirish sohasida jiddiy ishlar olib bormoqda. Bu vazifani bajarishda teatr san'atining alohida o'rni borligi sir emas, negaki teatr bu ibrathonadir. O'z navbatida teatr ana shu vazifani sharaf bilan bajarish maqsadida tomoshabinga badiiy xizmat ko'rsatish uchun turli shahar va qishloqlarga gastrollar uyushtirilmoqda. Buning uchun talaygina yo'l bosish bilan birga ayrim sahna bezaklarini ham olib yurishga to'g'ri keladi.

Ma'lumqi, spektaklning umumiy badiiy darajasi ko'p jixatdan sahna bezagi sifatiga bog'liq bo'ladi. Sifat tushunchasiga nafaqat sahnalashtiruvchi rassomning g'oyasi, balki bu g'oya qanchalik takomillashgan texnika bilan amalga oshirilganligi ham kerak. Bularning barchasi teatring sahnalashtirish madaniyati darajasini ko'rsatadi va spektaklni tomoshabinga badiiy ta'siri belgilaydi. Sahna bezagi ko'plab qismlardan iborat bo'lganligi tufayli ularning ulanish joylari, choqlari, devorni pol, karniz yoki shift bilan tutashgan joylari juda pishiq ishlangan bo'lishi kerak.

Bunday talabalarni har bir spektakil uchun o'zining doimiy sahnasi hajmiga mos ravishda sahna bezagi quriladigan muhim teatr sharoitlaridan bajarish oson bo'ladi. Ularni odatda teatr yonida joylashgan omborhonadan sahnaga tashib keltiriladi. Uzoq muddatli gastrolga ketayotgan ko'chma teatrdagi ishlar butunlay boshqacha bo'ladi. Gastrollar uchun tayyorlangan spektakllarning sahna bezaklariga ixchamlik, engillik va mustahkamlik xususiyatlari bilan bog'liq talabalar qo'yiladi.

Teatrlar ko'chma spektakllar namoyish etayotgan paytda sahna pavilonlarida odatda qo'llanadigan qattiq devorlarning (mato tortilgan yog'och ramka) noqulayligi, qo'polligi va qimmatligini xis qilish mumkin. Har bir sahna asari yangi ramkalar tayyorlashni talab qiladi. Buning uchun taxta, mihlar, ishchi kuchi zarur bo'ladi.

Bunday sahna bezaklarini teatr omborhonasida saqlash noqulay va qimmatga tushadi, negaki katta hajmdagi devorlar uchun quruq omborhona talab qilinadi.

Teatr har gal gastrolga chiqqanda u yoki bu sahna bezagiga zarar etadi. Spektakl bezagi birinchi marta gastrolga borgandayoq nosoz ko'rinishga ega bo'lib qoladi, bir necha ko'chma spektakllardan keyin esa bezaklarni ko'p pul sarflab ta'mirlash lozim bo'ladi.

Qattiq devorlarni tayyorlashda arzon chipta matolarni ramkaga tortib bulmaydi, negaki bunday mato mustahkam bo'lmaydi va bir necha marta avtomashinaga ortilganda chetlari yirtilib ketadi. Bulardan tashqari bir necha spektakllarning sahna bezagini bir mashinaga sig'dirib bo'lmaydi. Bu teatrlar ayni bir pavilonda ikki-uch spektakllar ko'rsatishga majbur bo'ladi, Bunda faqat devorlarni pardalar, matolar va kartinalar osish yo'li bilan bezaklar o'zgartiriladi, bu o'z navbatida spektakllarning badiiy darajasini tushurib yuboradi.

Shtangaga osiladigan surat chiziladigan mato ko'rinishidagi yumshoq devorlardan foydalanishga intilish kutilgan natijani bermaydi. Shunday sahna bezaklari teatr rassomining ijodini anchagina chetlab qo'yadi, u spektakllarda yuzaki tasvirlar bilangina bezashga majbur bo'ladi. Bulardan tashqari Bunday bezaklarda devorlar qimirlab turadi, buklanib qoladi, qattiq eshik va derazalarni qo'llab bo'lmaydi.

Qoidaga ko'ra sahna paviloni qattiq bo'lishi kerak, ochilib yopiladigan katta xajimdagi eshik va derazalar bo'ladi, ko'chma teatr uchun esa ular qo'shimcha ravishda ixcham bo'ladi. Bu so'nggi shart doimiy sahna uchun ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Agar shu vazifalardan kelib chiqib, ushbu risolada sahna uchun zarur bo'lgan qurilmalar tasvirlab beriladi. Faqat shaxsiy tajribaga tayanmasdan mazkur chizmalar ko'pgina mutaxassislar nazaridan ham o'tkazib olindi. dastlabqi variantlar ko'rsatilgach, ularni yanada yahshilash yuzasidan qimmatli maslaxatlar olindi.

Qurilmalarning umumiy tasviri

Teatr paviloni yig'ma devorlari qurilmasi asosini uzunligi 203 sm dan kam bulmagan yog'och reykalar tashkil etadi.

Mahsus tayyorlangan temir murvatlar yordamida reyakalarni kombinaciyalash yo'li bilan har qanday hajmdagi va har qanday shakldagi pavilon devorlari sinchi yig'iladi.

Agar teatr gastrolga bir necha spektakl olib chiqadigan bo'lsa, komplektni yig'ish uchun yashiqqa taxlangan alohida yog'och reykalar va temir murvatlarni olib ketadi. Yaqinroq joyga boriladigan bo'lsa, bu sahnada ko'rsatiladigan birinchi spektaklda o'rnatiladigan devorni yig'ma ko'rinishida olib ketishi mumkin. Bu birinchi spektakl sahna bezaklarini tezroq o'rnatish imkonini beradi.

Pavilon sinchini yig'ishda mih umuman ishlatilmaydi. Sahnaga bezagini har qanday matoga ishlash mumkin, eng arzon yumshoq chipta mato ham ishlatilaveradi. Pavilon devoriga anilin buyog'i bilan ishlov beriladi va surat chiziladi. Matoni tez-tez o'rab va yoyib turganda elimli bo'yoq tukilib ketadi va tirishib qoladi, shuning uchun undan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Rassom eskiziga ko'ra bezak berilgan mato butun pavilon yoki uning bir qismini egallaydigan qilib tikib chiqiladi, bu rassomning mazkur kartinani qanday ishlashiga bog'liq.

Bezak yuzasiga eshik va derazalar uchun tegishli o'rinlar ochiladi.

Katta hajmdagi ochilib yopiladigan deraza va eshiklar sahna eksperimental laboratoriyasi tavsiya etgan usul bilan tayyorlanadi, yig'ilayotganda bezaklarni

tegishli o'rinlariga qo'yiladi.

Teatr qiyinchiliklarga duch keladigan alohida holatlarda, ya'ni yo'llar yahshi bulmagan yoki samalyotda bezakni tashish chog'ida yassi va bo'rtma eshiklar va derazalar mahsus yog'och murvatlardan yig'iladi. Deraza ramalari va kesakisi deraza ramasi tashqi ko'rinishga mos keladigan murvatlari moybo'q bilan bo'yab qo'yiladi. Eshik qanotlari sinchlariga moybo'yoq bilan surat chizilgan mato bilan, deraza ramalariga esa surat chizilgan to'r tortib qo'yiladi.

Qanday holatda tashilmasin yumshoq bezaklar dumaloqlanib suv o'tkazmaydigan matodan g'ilof kiydirib qo'yiladi.

Bunday yig'ma sinchlar tizimi sahna pavilonlari bezaklarni tayyorlashning odatdagi usullari oldida afzalliklarga ega.

Birinchidan, har bir spektakl uchun yog'och romlarni alohida tayyorlash zarurati bo'lmaydi. Bu ishchi kuchi, yog'och taxtalar va mihlarni iqtisod qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, bezaklarni doimiy ravishda ta'mirlash zarurati qolmaydi, bu ham anchagina mablag'ni tejaydi.

Uchinchidan, pavilonga yahlit g'ilof tortilganligi tufayli bezakda teshik yoki yoriqlar hosil bo'lmaydi, ayrim devorlardan hosil qilingan pavilonni yig'ishda esa bunday narsalar albatta bo'ladi. Pavilon yahlit g'ilof tortilishi oraliqlarda o'matiladigan sinch ramalari miqdorini kamaytirish imkonini beradi, bu pavilonni yig'ishni tezlatadi va umuman bir qator holatlarda qo'shni devor-sinchlarni aralashtrish zaruratini yo'q qiladi. SHunda pavilon to'la mustahkamlikka va burtma va toqchali ochilib yopiladigan katta xajmli deraza va eshiklarga ega bo'ladi. To'rtinchidan, bir necha spektakllar bezaklarini bitta yuk mashinada tashish imkoniyati yaratiladi. Beshinchidan, teatr bezaklarini saqlash uchun ombor honalari kamroq talab qilinadi. Nixoyat mazkur spktakl reptuaridan olingan, bezak matosidan qaytadan foydalanish mumkin negaki ximoya g'ilofida tashilgan mato kamroq zarar etadi.

Yig'ma sinchli pavlon devori tizimi rassomga planlashtrish uchun katta


imkoniyatlar yaratadi, negaki u pavilonni turli-tuman variantlarini hosil qiladi.

Yog'och murvatlar

Yog'och anchayin arzon, oson ishlov beriladigan material hisoblanadi. Shuning uchun pavilon devori asosini qarag'aydan eni 7 sm, qalinligi 3 sm bo'lgan yog'och reyklar tashkil etadi. Bunday nisbat turli xajm va shakldagi devorlar sinchlarni asosan ulash va almashtirishga imkon beradi. Reykaning eng ko'p uzunligi 203 sm, eng kami 21 sm bo'ladi. eng ko'p qo'llanadigan reyklar 21, 49, 63, 77, 91, 98, 105, 112, 126, 133, 156, 203 sm bo'ladi.

Reyklar uchun 203 sm uzunlik muruvatlar majmuini har qanday transportda (yuk mashinasi, temir yo'l vagoni yoki samolyotda) tashish qulay bo'lsin uchun qabul qilingan.

Devor yig'ish uchun tayyorlangan reykalarni ikki chetida tryum qilinadi (1 rasm).



1-rasm.

Komplektni yog'och qismlarini markirovka qilish.

Tryum va zo'g'ota markazida 6 mm diametrli standart teshik ochiladi, Buning uchun 65 mm parmalash asbobidan foydalanish mumkin, negaki teshik ichidagi yog'och g'udurlar sof xajm bera olmaydi, bulardan tashqari yog'ochga oson singib ketadigan namning singishi teshikni qisqartiradi va temir murvatlar o'tishni qiyinlashtiradi. Bu teshik orqali 6 mm diametrli mahkamlash sterjenini o'tkazishga xizmat qiladi.

Xuddiy shunday 66 mm teshik reykaning keng tomoni (7si) markazida o'yiladi. Bu teshik devor mustahkamligini ta'minlovchi tutqich vazifasini bajaruvchi mahkamlash, chetlarni mahkamlash qulay bo'lishi va yig'ilgan sinch devorni ko'chirish oson bo'lishi uchun xizmat qiladi.

20 sm masofada yani xuddi shunday teshiklar ochiladi. Bu teshiklarning vazifasi agar reyka yig'ish paytida devor burchagiga tushub qolgudek bo'lsa burchak changaklarni o'rnatishga xizmat qiladi.

Chetida na tryum, na zo'g'otasi bo'lgan reykalarda mahkamlash uchun ularning chetidan 3,5 sm masofada (markazida) mahkamlash uchun dumaloq teshik bo'lishi kerak.

Reykalar faqat quruq taxtadan tayyorlanishi lozim. churuq bo'lmagan taxtadan tayyorlangan reykalar, ayniqsa uzunlari quriganda egilib qoladi, Bunda devor sinchlari to'g'ri shaklini yo'qotadi. teshiklar to'g'ri kelmay qoladi.

Reykalar tayyorlash uchun nafaqat quruq materil tanlash, balki ayniqsa tryum va zo'g'ota uchun ishlanadigan joylarda taxtaning ko'zi bo'lmasligiga e'tibor berish lozim. Taxta ko'zlari reykaga ishlov berishni qiyinlashtiradi, eng muhimi yog'och murvatlarni mo'rt qilib qo'yadi, bu reykani tez ishdan chiqaradi.

Reyka yuzasiga yahshi ishlov berish, burchaklaridan esa qirrasi biroz olib tashlanish lozim, bu mahkamlovchi temir muftalarni qiydirishni osonlashtiradi. Reykalar shaffof lak bilan qoplanadi, bu ularni namlikdan asraydi va yig'ish jarayonini osonlashtiradi.

Tryum va zo'g'ota yuzasi yahshiroq sirpanishi uchun ularni yig'ayotgan paytda stearin bilan ishlov beriladi. Tryum va zo'g'otalar chizmaga qatqiy amal qilgan holda yahshi bir-biriga kirishadigan bo'lishi lozim.

Har bir reyka cheti bo'ylab ikki tomonidan tamg'alangan bo'lishi lozim. Tamg'alash tizimini teatr o'zining saqlash sharoitini hisobga olgan holda belgilaydi. Mavjud tajribadan kelib chiqib tamg'alashni quyidagi princip asosida amalga oshrishni tavsiya etiladi.

Agar reyka tutqich uchun mo'ljallanib chetlariga hech qanday ishlov berilmagan bo'lsa, reyka uzunligi santimetrlarda raqamlarda ko'rsatiladi va chiziqchadan so'ng "0" raqami yozib qo'yiladi; agar reykaning har ikkala cheti tryum uchun ishlangan bo'lsa, "1" raqami qo'yiladi; reykaning ikki chetida zo'g'otasi bo'lsa "2" raqami qo'yiladi; agar reykaning bir tomonida esa zo'g'ota bo'lsa "3" raqami qo'yiladi (1-rasmga qarang).

Devor yig'ish uchun mo'ljallangan reyka boshqa reyka bilan to'g'ri burchak holatida emas balki, har ikkala yoki birortasi bilan ma'lum burchak hosil qilib kesilgan holda chetlaridagi tryum yoki zo'g'ota o'tmas yoki o'tkir burchak ko'rinishida birikadi. Bunday holatlarda yuqorida ko'rsatilgan tamg'aga burchak darajasini ifodalovchi raqam qo'shtirnoq ichida ko'rsatiladi. agar faqat, bir tomoni burchak qilib kesilgan bo'lsa "1", ikki tomoni kesilgan bo'lsa "2" raqami qo'yiladi. Agar turli tomonidangi kesilgan burchak darajasi xar hil bo'lsa har ikkala burchak darajasi qavis ichida ko'rsatiladi.

203 sm uzunlikdagi reykaning tamg'alash quyidagiga ko'rsatiladi (1-rasmga qarang):

203-1-reyka har ikkala chetida tryumga ega;

203-2-reyka har ikkala chetida zo'g'otaga ega;

203-3-reyka bir tomonida tryum. boshqa tomonida zo'g'otaga ega;

203-0-203 sm uzunlikdagi ishlov berilmagan reyka;

203-1- (60-120)-reykaning ikki tomonida tryum bor, biri 60° , boshqasi 120° da kesilgan.

203-2-(45-1)- reykaning har ikkala tomonida zo'g'ota bor, ulardan biri 45° qiyshqlikda kesilgan.

203-1-(45-2)- reykaning har ikkala tomonida tryum bor, har ikkala tomoni 45° burchak bilan kesilgan.

Reykalarni tamg'alash nihoyatda zarur, negaki ko'z bilan chamalaganda murvat uzunligini aniqlashda xato qilish mumkin. Tamg'alash yordamida reykalarni teatr omborhonasi toqchalarida tartibli saqlash mumkin bo'ladi, buni yig'ayotganda zarur hajmdagi murvatlarni topish osonlashadi.


Reykaning har ikkala chetini tamg'alash maqsadga muvofiq, negaki ularni yig'ish yoki mazkur reykaning hajmiga mos ravishda ma'lum joyga taxlab qo'yganda tamg'asini qidirib aylantirib ko'rish shart bo'lmaydi.

Tamg'ani reykaning keng tomoniga qo'yib bo'lmaydi, negaki bezakning oq matosi ostida qora tamg'a ko'rinib qoladi. reykalarni tokchalarda saqlash chog'ida tamg'a ko'rinmay qoladi.

Reykaning butun uzunligi 203 sm bo'lganligi va ko'chma teatr paveloning odatdagi balandligi 2,8 dan 4 m gacha bo'lganligi tufayli ramkaning asosiy tayanchi balandlikdagi 203-2 reykaga (ya'ni har ikkala uchida zo'g'otasi bo'lgan 203 sm uzunlikdagi reykaga)ikki uchida zo'g'ota emas tryumi bo'lgan ikkinchi reyka tegishli balandlikkacha ulanadi. Bu ikkinchi reykaning uzunligi rassomning ishchi chizmasiga bog'liq. Agar 4 m balanlik kerak bo'lsa, 203-1 reyka qo'shiladi. Bunday devorning sof balandligi 399 smni tashkil etadi, negaki umumiy balanlik 406 sm dan $(203-203=406)$ 7sm ni olib tashlash kerak, bu bo'lak boshqa reyka tryumini zo'g'otasiga qirib ketadi. Agar 3, 5m balandlik kerak bo'lsa ,203-2 reykaga 154-1 reykaga ko'shiladi. Bunday ulashda devorning sof balandligi 350sm bo'ladi negaki 357 dan $(203+154=357)$ 7 olib tashlanadi, har qanday holatda ham 7 sm farq hisobga olinadi.

Komplektning yog'och qismlari va reykalarni tang'alash

Reykalar ulovchi temir mufta yordamida uzaytiriladi (2-rasm). Payvand



2-rasm.


Bog'lovchi temir mufta

Bu mufta devor sinchini mustahkam bo'lishini taminlaydi. Agar sinch balandligi talab qilsa bir necha shunday muftalar bilan uch va to'rt reyka balandligini hosil qilish mumkin.

2-rasm. Payvand ulovchi temir mufta.

Ko'chma teatrlar amaliyotida ko'p uchraydigan 4m balandlikdagi va 1m enlikdagi to'g'ri to'rtburchak devorni yig'ish jarayonini ko'rib chiqamiz.(3-rasm).

3-rasm. Yig'ilgan sinch devor, tutqichni sterjen bilan mahkamlash, burchaklarni changaklar bilan mahkamlash va reykalarni mufta bilan o'stirish.



3-rasm.

1-Trumli reyka, 2-Tutqich, 3-Mufta, 4-Tutqich, mahkamlash sterjeni, 5- quloqli reyka, 6- Qisqich, Karkasning yig'ilgan devorini, qo'l ushlagich joylarini sterjen va qiqich bilan burchaklarini mufta bilan reykalarini mahkamlash.

100 raqami 7 ga qoldiqsiz bulinmagani uchun reyka uzunligi 7 raqamiga bo'linadigan raqam tanlashga qaror qildik, unga mosroq bo'lgan 98 sm uzunlikni tanladik.

203-2 reykani 203-1 reyka bilan ulab yig'ishni boshlaymiz. Buning uchun 203-2 reykani biror uchiga ulovchi muftani kiydiramiz, uni zo'g'otadan biroz pastroqqa tushiramiz. So'ngra 203-2 va 203-1 reykalarining tryum va zo'g'otasini birlashtiramiz, Bunda har ikala reykalar tryumi va zo'g'otasi markazi teshikka mos kelishi kerak. Shundan keyin ulovchi muftani reykalar ulangan joyiga asta siljiriladi,

Bunda muftadagi teshik reykarlar birlashgan joyidagi teshikka mos kelishiga e'tibor berish zarur va bu umumiy bo'lib qolgan teshik orqali boshchasi bo'yab qo'yilgan mahkamlash uzun sterjenini o'tkazib qo'yamiz.

Bunday 4 m li reykalardan ikkitasini yig'amiz. Ularni so'ngra ichki tomonini bulajak devorining yuqorisiga qo'yib polga parallel yotqizamiz muftaga ikki reyka chiqib turgan mahkamlagich katta sterjinlarning boshqa uchiga tutqich vazifasini o'tovchi 98-0 reykaning kiydiramiz va sterjin plankasini burab yig'ilgan reykalarni qulf bilan berkitamiz.

"N" xarifiga o'xshash shakl hosil bo'ladi. 203-1 reykaning bush tomonlarini (devor yuqorisi) o'zaro 98-2 reyka (chetlarida trumi bilan) birlashtiramiz, ularni yig'ilgandan so'ng ulangan joylaridagi teshiklarga qichik sterjen kiritib qo'yiladi. 203-2 reykalarning bo'sh uchlari (devorning pasti) 98-1 reyka (chetlarida tryumi bo'lgan) bilan ulanadi va bo'rchaklardagi teshiklarga ham qichik mahkamlash sterjeni kiritib qo'yiladi (3-rasmga qarang).

Devor yig'ildi. Mustahkam bo'lishi va tashiganda qulay bo'lishi uchun 203-1 yuqoridagi reykarlar 203-1 reykarlar markazidan ochilgan teshik orqali 98-0 tekis tutqichni ustama qilib qo'yib o'zaro birlashtiriladi. 203-2 reykaning ustiga qo'yib 98-0 tutqich bilan birlashtiriladi.

Agar tutqichni qandaydir sabab bilan reykaning o'rtasiga emas, balki standartda ko'zda tutilgan joyga mahkamlash zarur bo'lsa, unda tutqichni reyka ustidan oson va tez strubcina yordamida mahkamlash mumkin.

Endi devor ancha mustahkam, ammo burchaklari qiyshayib qolishi mumkin. Odatdagi qismlarga bulinmaydigan devorlarda burchaklar uchburchak qilib kesib olingan uchburchak fanerani mih bilan qoqib mahkamlanadi. Buni bizning qurulma uchun bo'tunlay qo'llab bo'lmaydi. Buning o'rniga yig'ilgan sinchni yuza tomonini yuqoriga to'rtala burchakda mavjud bo'lgan teshiklarga burchak changaklari o'rnatib ichkari tomonidan burma sterjen bilan mahkam siqib qo'yiladi.

Endi devorning barcha burchaklari mustahkamlandi bu holatda devor sinchlari

ko'rinishi elim va mih bilan mahkamlangan ramkadan farq qilmaydi.

Yig'ma sinchli devor tizimiga o'tishga qaror qilgan teatr quyidagi ishlarni amalga oshrishi kerak. Bir murakkab yoki bir necha pavilonlar talab qilinadigan yaqin atrofda namoish qilinadigan spektakl tanlab olinadi. Sahnalashtiruvchi rassom eskizga ko'ra odatda ishchi chizmalarni qiladi. Teatrni sahnalishtirish bo'yicha xodimlar ushbu risolada berilgan ilovadagi tahminiy hisob qitoblardan foydalanib va reykalar balandligini 7 raqamiga qirrali ekanligini xisobga olib mazkur spektaklni bezash uchun zarur bo'lgan barcha devorlarni yig'ish chizmasi asosida albom tayyorlanadi. Bir hil hajmdagi devorlarni zaruriy sinchlari sonini xisoblashda yig'ilgan devorlarni spektakllarning barcha o'zgarishlarni almashtira olish imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Shunday qilib teatrdagi mazkur spektakl uchun o'zining yig'ma konstrukciyalar albomi bo'ladi. Agar biror devor rassom rejasida bir necha bor takrorlansa yig'ish albomida spektakl uchun bunday devordan nechitasi zarur bo'lishi yozib qo'yiladi. Albomda yig'ish chizmasi bilan bir qatorda bir devor uchun zarur bo'ladigan barcha murvatlar hisobi qilib qo'yiladi. Albom to'zishdan avval sahnalashtiruvchi rassom bilan birga eskizni o'tish reykasi, karniz va boshqalarni qo'llash yo'li bilan sinchli devor sonini qisqartirish imkoniyati nuqtai nazaridan tanqidiy ko'rib chiqishi lozim.

Albomni kamida ikki nushada qilib qo'yish zarur, ulardan biri sahna mashinisti uchun ishchi albom bo'lib qoladi, ikkinchisi esa ishchisi turli hildagi ma'lumotnomalar va boshqalar yo'qolib qolgudek bo'lsa, teatr ish qog'ozlarida saqlanishi lozim (qarang ilova yig'ishning tahminiy hisobi). Tayyor albom bo'yicha komplektning murvatlari hisobi vedomosti to'latiladi (qarang, 14-betdagi shakl), unda sinish va yo'qotish holatlarini hisobga olib murvatlarning umumiy soniga 10-15% hajmida kichikroq zahira ko'zda tutib qo'yish kerak. Ushbu vedomostda shift matosi, sahna orti bezagi, bezaklarni mahkamlash uchun shtanketda zarur bo'lgan reykalar miqdori va xajmi hisobga olinadi.

Agar teatr yomon yo'llar bilan bog'liq qiyin sharoitda borishni rejalashtirmayotgan va havo transportida safarga borishga ehtiyoj bo'lmasa

pavilonlar deraza va eshiklari devorlar bilan bir butun qilib tayyorlanadi. Shunga qaramay agar teatr o'z ishi uchun yig'ma eshik va derazalar zarur deb hisoblansa, unda vedomostga tegishli murvatlarni kiritish va deraza hamda eshiklar yig'ish albomini ham qilish kerak bo'ladi. (yig'ma eshik va derazalar haqida quyidagicha so'z yuritiladi).

Umumiy vedomost asosida teatr birinchi spektaklni bezash uchun zarur bo'lgan yog'och va temir murvatlar uchun buyurtma beriladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiqi, pavilonlarni qo'llash yo'li bilan bir murakkab spektaklga yaratilgan komplekt teatrni har qanday spektakl bezaklari sinchlarini yig'ish uchun murvatlar bilan ta'minlaydi. Bezashda faqat teatr uchun bajarish qiyin bo'lmagan o'tmas yoki o'tkir burchakli qo'shimcha yog'och murvatlarni uncha ko'p bo'lmagan miqdorda tayyorlash ehtiyoji paydo bo'ladi halos.

Teatr ichida murvatlarni butun kompleksini tayyorlash ishlab chiqarish ustahonalrida tegishli uskunalar va yog'och hamda temir murvatlar tayyorlash uchun yahshi material bo'lgan payitda amalga oshrilishi mumkin.

Agar ko'chma teatr bir paytning o'zida ikkita spektakl tayyorlayotgan bo'lsa, yoki tayyor spektakllarni bir payitda namoish qilishni tajribadan o'tkazayotgan bo'lsa yoxud uni ko'chishi spektakl orasidagi ma'lum bir vaqtda devor sinchlarini yig'ishga imkon bermasa, shunga ko'ra murvatlar komplektda ko'paytirilishi zarur.

Teatr yig'ma devorlar bilan bezaydigan keyingi barcha spektakllar uchun sinchlarni yig'ish albomi tayyorlanishi lozim.

Shu yo'l bilan teatr asta sekin o'z repertuaridagi barcha spektakllarni yig'ma ixcham bezaklariga o'tkazadi va hatto mutaxassis bo'lmagan ishchi uchun ham har qanday spektaklning sinch devorini to'la yig'ish imkonini beruvchi aniq xujjatga ega bo'lishga sharoit yaratadi.

Ulovchi mufta qurilmadagi bosh murvatlardan biri hisoblanadi, negaki u mazkur spektakl uchun har qanday balandlikdagi devorlarni turli reykalardan yig'ish

imkonini beradi.

Mufta 1, 0 mm qalinlikdagi taxta tunukadan tayyorlanadi. Balandligi 22-24 sm bo'ladi (2-rasmga qarang).

Muftalar o'z ichki o'lchoviga ko'ra standart bo'lishi lozim va har qanday uzunlikdagi yog'och reykalarga oson qiydirilishi lozim.

Shuning uchun muftani tayyorlashda har bir tomoniga yog'och reykaga nisbatan 0,5 sm chiqib turadigan metall g'o'la bilan siqish kerak. reykanig xajmi 7×3 sm bo'lganligi tufayli siqadigan g'o'la xajmi $7,5 \times 3,5$ sm bo'lishi zarur.

G'o'lada siqilgan mufta tutashgan joyidan tekis choq bilan kavsharlab qo'yiladi. Mufta bir-biriga ulab uzaytiriladi, Bunda mustahkamroq bo'lishi uchun choq muftaning bukilgan joyiga to'g'ri kelmasligi kerak. Muftani keng (7,5) tomoni chetidan 1,5 sm masofa o'stirish qulayroq. So'ngra keng tomonlaridan birida markaz belgilanadi, mufta ichiga yog'och g'o'la qo'yiladi va topilgan markaz buylab standart 6 mm teshik ochiladi. Bu teshik ichi va tashidan qirralari tozalanadi, ular keyinchalik muftani reykaga qiydrishni qiyinlashtirib qo'yishi mumkin. Muftalarni zanglashdan asrash uchun ularni och sariq (reyka rangida) moy bo'yoq yoki nitrolak bilan qoplash maqsadga muvofiq.

Muftani vazifasi ikkita reykaning ulash ekan xar qanday mufta xech qanday oraliqsiz komplekt tarkibidagi har qanday reyka uchiga erkin kiydirilishi kerak. SHuning uchun komplektga kiruvchi yog'och va metall qismlar aynan bir ishlab chiqarish tashkiloti tomonidan tayyorlanishi lozim, agar komplekt mazkur teatr ustahona tomonidan tayyorlanmasa.

Muftani ulangan reykalari teshigiga to'g'rilangan mahkamlash aylana sterjini (4 rasm) bilan mahkamlanadi. Sterjen muftaning yuza tomonidan qo'yiladi.

Sinchlarni yig'ilgandan keyin muftani polda qoldirmasligi kerak, negaki uni bosib olinsa yaroqsiz bo'lib qoladi: keyingi yig'ish chog'ida mufta reyka bo'ylab erkin harakat qila olmaydi. Mufta yordamida uzaytirilgan reykalarni Bunday yig'ish

va ajratishning oldini olish uchun uni spektakl paytida amalga oshirmaslik kerak, negaki shoshilishda uni yorib qo'yish mumkin.

Muftalar yordamida reykalarni uzaytirib sahna ortidagi mato, yashil arkani va boshqalarni osish uchun tegishli uzunlikdagi shtanket hosil qilish mumkin. Bunday uzaytirilgan shtanketni egilib ketishini oldini olish uchun arqon, tasma yoki trosni har bir reykaning markaziga mahkamlash kerak.


Mahkamlash sterjeni

Reykalarni o'zaro mahkamlash sterjen yordamida amalga oshiriladi. Undan reykalarni ham kertmaklab, ham ustma-ust ulashda foydalaniladi.

Mahkamlash sterjeni to'rt razmerda tayyorlanadi. Kichik sterjen boshchasi asosida kesma boshigacha 30 mm bo'ladi (yog'och reykarlar qalinligiga qarab). Katta sterjen boshchasi asosidan kesma boshigacha 60 mm bo'ladi (ikki yog'och reykarlar qalinligiga ko'ra). 4-rasm. Mahkamlash sterjeni

Qichik sterjenlar tryumga ulangan reykalarni standart teshik orqali mahkamlash zarur bo'lgan barcha holatlarda qo'llanadi. Katta sterjen reykalarni ustma-ust birlashtirilganida foydalaniladi.

Reykalarni mufta orqali mahkamlash uchun ham yuqorida ko'rsatilganidek buraluvchi sterjen qo'llanadi, ammo muftaga kiydiralayotgan reyka qalinlashib ketganligi tufayli uning xajmi kattalashadi. Tutqichsiz mufta ostidagi tryumga yig'ilgan reykarlar sterjen bilan mahkamlanadi, u boshchasi asosidan buralish kesmasi boshigacha 33 mm bo'ladi. Tutqichni mufta ustiga qo'yilganda 63 mm sterjen qo'llanadi, ya'ni standart reykanı yana bir qalinligi qo'shiladi (4-rasm).



4-rasm.


Mahkamlash sterjeni.

Dastakli mahkamlash sterjeni, dastaksiz mahkamlash sterjeni.

Sterjen(6mm diametrli) oddiy temirdan tayyorlanadi (6mm diametrli odatdagi temir zaklyopkadan foydalanish mumkin bo'ladi.Sterjen boshchasi diametri 10mm ga teng va yarim shar shaklida bo'ladi. Qurilmaning barcha qismlarini birlashtiruvchi sterjen boshchasi bezak matosiga ilashib qolmasligi uchun u shunday shaklda bo'lishi lozim. Bulardan tashqari pavilon o'rnatilayotganda bezakni o'rninga tortishda mato u boshchalar ustidan oson sirpanishi zarur.Sterjenning reykalarni bir-biriga mustahkam siqib turish qobiliyati sterjen bilan birlashtirilgan reykalarning qalinligining uning boshchasidan burish kertmagigacha bo'lgan masofaga aniq mosligi bilan aniqlanadi. Shuning uchun sterjenlarni aniq tayyorlashga alohida ahamiyat berish lozim.

Sterjenning burma plankasi 2 mm taxta temirdan tayyorlash kerak. 4-rasmda

ko'rinadiqi,sterjenning burma plankasi 2,1 mm enlikdagi tirqishga ega bo'ladi, u oson buralishi uchun planka o'rtasiga qarab torayib boradi. Ammo shu bilan birga u tirqish ohiridan siqib qolishi kerak , ya'ni sterjen buraluvchi zaklepkasiga nisbatan "T"harfi shakliga kelguniga qadar siljiriladi.Faqat shunday holatdagina sterjen birlashtirilgan qismlarni ishonchli mahkamlaydi.



5- rasm. Ishchi sandiq.

Elka uzunligi jadval bo'yicha belgilanadi,

Sterjenlar hajmidagi uncha katta bo'lmagan farqni ko'z chama bilan aniqlash qiyinligi tufayli mufta orqali o'tkazish uchun mo'ljallangan sterjenlar mufta rangida moybo'yoq yoki nitrolak bilan bo'yalgan boshchalari bo'lishi lozim.

Mahkamlash sterjenlari komplektidagi eng arzon qism hisoblanadi va barcha hajmlarda anchagina extiyoji bilan tayyorlanishi zarur.

Sahna ishchisi komplektni yig'ishda to'rtta bo'linmasi bo'lgan mahsus yashikka ega bo'lishi kerak (5-rasm), ularning har biriga tegishli hajmdagi sterjen solib qo'yiladi.

Mahkamlashning bir necha turlari qo'llangan teatrlardagi ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqat ishonchliligi va tez o'rnatilishi hususiyati bilan farqlanib

turuvchi mahkamlagichgina foydalanishga yaroqli hisoblanadi. Masalan, teatrlar dastlab mufta va reykalarni mahkamlash uchun ichkaridan yirik gayka bilan qotiriladigan rezkali boltlardan foydalangan bu usulda mahkamlash ishonchli bo'lishiga qaramasdan ko'p mehnatni talab qilardi va unda ishchilar shoshib qolib ba'zan gaykani tashlab yuborganlar so'ngra odatdagidek mih bilan qotrib qo'yavergan. Bunga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi, negaki har bir qoqilgan mih reykaning tez ishdan chiqishiga sabab bo'ladi, shunga qaramay, tavsiya etilayotgan qurilmalar samarasi ko'proq kompleksni yog'och qisimlarni xizmat qilishi muddatiga bog'liq. Bu tavsiya etilgan mahkamlash tizimini qayta ko'rib chiqishga majbur qilinadi, undan eng tez va ishonchli mahkamlash usuli sifatida buraluvchi sterjen tanlanadi.

Shunday qilib teatr amaliyoti xisob qitoblarga o'zgartirish qiritadi.

Taqidlash joizki mahkamlashning bu tizimga o'tish sinch devorlarni yig'ish jarayonlarini anchayin tezlatibgina qolmasdan, butun komplekt narxini arzonlashtiradi ham.

Burchak changak

Devorlarni yig'ishni oddiy usulida devor burchaklarini mahkamlash uchun reykalarga mih bilan qoqib qo'yiladigan faner burchaklar qo'llanadi. Bizning yig'ma komplektda burchaklarni mahkamlash uchun burchak changak ishlatiladi (6-rasm)

Elka uzunligi jadval bo'yicha belgilanadi



6- rasm. Burchak skoba.

Yog'och reykalarda burchak changak uchun teshiklar keng tomonga reyka chetidan teshik markazigacha 20 sm masofada ochiladi. Burchak changak reyka

tryumida har qanday kerakli burchakdagi reykani birlashtiradi. Buning uchun tabiiy ravishda uzun yoki qisqa elkali changaklardan foydalaniladi.

Changak 6 mm diametrli temir simdan tayyorlanadi. Rasmdan ko'rinadiqi to'g'ri burchak shaklida changak uchi mahkamlash sterjeni singari buraluvchi plankalar bilan jihozlangan.

Changakning asosiy elkasi devor sinchining yuza tomonida qolgani sababli changak yasalgan sim yalpoqlab qo'yiladi, shunda bu joyda bezak matosi tirishib qolmaydi.

Burchak changak reykaning yuza tomonidan teshikka qo'l bilan osongina qo'yiladi orqa tomonidan buraluvchi planka egiladi va mahkamlash sterjini kabi "T" xarfi ko'rinishida o'rnatiladi.

Changakning asosiy elkasi uzunligi (burchak changaklari uchun teshik istisnosiz barchasida reyka chetidan 20 sm masofada ochiladi) to'g'ri burchak uchun 23, 3 sm ga teng bo'lishi lozim (changakni mahkamlash sterjeni markazi o'rtasidagi masofa ko'rsatiladi) Bunday uzunlikdagi 90° to'g'ri burchak hosil qiladi. Quiyda devor sinchi yig'iladigan burchakka bog'liq ravishda burchak changakning asosiy elkasi uzunligi ko'rsatiladi.

Sinch burchagi (darajada)	Changakning asosiy elkasi uzunligi mm da (mahkamlash sterjenlari markazlari orasidagi masofa)	Sinch burchagi (darajada)	Changakning asosiy elkasi uzunligi mm da (mahkamlash sterjenlari markazlari orasidagi masofa)

(19-betdagi jadval)

Teatr uchun zarur bo'lgan changaklar miqdorini birinchi spektakl uchun

qurilmalar yig'ish albomi bo'yicha belgilash tavsiya etiladi.

Ko'p holatlarda pavilon devorlari sinchlari to'g'ri burchak ko'rinishida yig'iladi, shuning uchun 90^0 li burchaklar uchun (23,3sm) changaklar ko'proq qo'llanadi. Spektakl uchun ayrim devorlarning maksimal miqdori 15 dona ekanligidan kelib chiqib, birinchi komplektdayoq 60 dona 90^0 uchun burchak changaklarini tayyorlab qo'yish lozim bo'ladi.

O'tkir va o'tmas burchaklar uchun changaklar teatrda asta sekin to'planib boradi, shu asnoda har bir yangi spektakl uchun o'tqir va o'tmas bo'rga tryum va zo'g'ota bilan reykalari ishlab chiqarilish davom etaveradi.

Devorlarni yig'ishda zarur hajmdagi burchak changakni omborda oson topish uchun changakning asosiy qismi yuzasiga oq moy bo'yoq yoki nitrolik bilan changak mahkamlanadigan burchak darajasi yozib qo'yiladi. Masalan, to'g'ri burchakni mahkamlaydigan changakka 90 , 30^0 lik burchakni mahkamlaydiganiga 30 raqamlari yozib qo'yiladi. Changaklar xajmi yig'ish albomida ham xuddi shunday tartibda ko'rsatib qo'yiladi.

Ko'proq qo'llanadigan changaklar (90^0) o'tkir va o'tmas burchakli changaklardan alohida saqlanishi lozim.


Oshiq moshikliq changak

Bu anjom 4 mm temirdan qilingan reykani erkin tutib turadigan vilkadan iborat bo'ladi. Vilkaning yon devorlaridan biriga oshiq moshikli 4 mm planka mahkamlangan. shurup qotirish uchun 5mm teshik bo'ladi.

Qurulma reykasiga kiydirishdan iborat bo'ladi. Bu changak bir qator holatlarda qo'llanadi. Uning yordamida devor sinchining patki qismi otkosga tez va mustahkam mahkamlanadi. Buning uchun teshiklar orqali yon oshiq moshiq plankasi otkos pastiga shuruplar bilan qotiriladi. Tegishli joyga o'matilgan sinchli devor oshiq moshiq changak vilkasi bilan ulab qo'yiladi shundan so'ng otkos sahna

poliga mahkamlanadi, ustqi qismiga esa devorning asosiy reykarlaridan biriga qisqich siqib qo'yiladi.

Yig'ma qurilmaga o'tkazilgan teatring spektakllardan birida bu oshiq moshiqli changaklardan pavilon karnizi oshiq moshiqli devorga kiydirish uchun foydalaniladi. Bu quydagicha yo'l bilan amalga oshiriladi: oshiq moshiqli planka changagi karnizga shuruplar bilan mahkamlanadi oshiq moshiqli changak vilkasini sinchli devorini yuqori reykasini qiydirishda qarniz o'rniga ishonchli va mahkam o'rnatiladi (8 rasm).



7-rasm.

SHarnirli skobani yig'ish va ajratish. Oshiq-moshiqli changagi, Bushatish changagi, ochliq,


Teatrdagi 30 dona oshiq moshiqli changak bo'lishi kerak bo'lar bezaklar va otkoslarni quyi qismini mahkamlash uchun etarli.

Ajratuvchi changak

Bu 4 mm qalinlikdagi temirdan tayyorlanadigan soddagina murvat hisoblanadi (7-rasnga qarang) pavilon devori tarkibiga kiruvchi qo'shni sinchlarni to'g'ri chiziqda birlashtirib turadi. Bunday ajratish ishi oson bajariladi. ya'ni ikki qo'shni devor sinchlari ilgichiga ikki oshiq moshiq yordamida bo'ylama reyka osib qo'yiladi.

Bu changak bilan tekislash ishi juda qulay hatto pavelon sinch devorlari orasida ochiq joy mavjud bo'lsa ham undan foydalanaverish mumkin.

Teatr tajribasidan ko'rinadiki tavsiya etilayotgan qurulmalardan foydalanishdagi oroliq masofa pavilonni yig'ish ishini tezlatadi. Ayni paytda butun pavilonga umumiy yopqich tashlanganda sinch devor orasidagi ochiq joy tomoshabinga ko'rinmaydi. Bir biridan ma'lum masofada qo'yilgan sinch devorlar to'g'ri qo'yilishi uchun ajratish changagi yordamida oraliqqa o'sha komplektdan tegishli uzunlikdagi tekis reykani osib qo'yish kerak. Bu reykani tutqichlarga yoki qo'shni devorlarning yuqori reykalarga 8-rasmda ko'rsatilganidek ilib qo'yiladi.




8-rasm

oshiq-moshiq, changgaki, bo'shatish changgaki, ochqich

Karnizni sharnirli skoba bilan qo'shish va ajratish. Payvand,

Otkosni pavilon karkasiga mahkamlash uchun qisqich qo'yiladi. (9-rasm). Teatr amalyotida Bunday vertikal,gorizontal va bo'ylama reykalarning har qanday joyidan mahkamlanadi va qisqich bilan ishonchli qilib kesib qo'yiladi.



9-rasm. Qistirgich. Payvand

Qisqich 7 mm temirdan tayyorlanadi. Kamroq qalinlikdagi temirdan foydalanilsa reykani qisayotgan qisqich devori material etarli darajada mustahkam bulmagani uchun qiyshayib ketadi. O'ta qalin temir ham yaramaydi, Bunday asbob murvatni ortiqcha og'irlashtirib yuboradi. Bulardan tashqari Bunday qisqich bezak matosini ko'tarib qoladi.

Yog'och bilan tutash joydagi yuzada qisqichni qisish maydoni to'rtta sferik bo'rtmadan iborat. Ular reykalarni siqilganda tegishli holatda turishini ishonchli ta'minlaydi. Reykalar rezbali bolt yordamida siqiladi, siqilgan maydonning o'zi esa reykalarni tortib olish erkin aylanish imkoniyatiga ega.

Qurulmadagi reykalami har qanday joyidan va har qanday burchakdan bir-


birining ustidan mahkamlash zarur bo'lganda qisqich qo'llanishi mumkin. Sahna mashinisti qo'lida mavjud bo'lgan extiyot shart qisqichlar atkoslar, tutqichlar va hatto daraxtlar, butalar va boshqa pavilon bilan bog'liq bo'lmagan bezak qismlarni tez va ishonchili mahkamlash uchun har qanday vaqtda xizmat qilishi mumkin.

Teatrdagi bezaklarni mayorida yig'ish uchun 25-30 dona qisqichga ega bulsa etarli.

2 va 8 -rasmlardan ko'rinadiqi, qisqichlar qurulumalarni har qanday nuqtasidan mahkamlash imkonini beradi.

Burash shtirlari

Pavilonlar sinchini yig'ishda devor yuzasini burchak ostida o'rnatish zarurati vujudga keladi (masalan shift, tom, ayvon, toqcha va boshqalar) yoki o'q atrofida aylantirib mahkamlash kerak bo'ladi (soyabon tomining nishab qilib mahkamlash va xakazo).



10 rasm


Aylanma shtirni chizmasi.

Bunday holatlarda burash shtiridan foydalaniladi (11 rasm). 11-rasda

ko'rsatilganidek bu oddiy murvat yuqorida ko'rsatilgan barcha variantlar oson amalga oshiriladi.

Burash shtiri 2 mm qalinlikdagi temir tunukadan tayyorlanadi. Tayyorlash chog'ida rezkali bolt mahkamlanadigan yuza nihoyatda pishiq bo'lishiga erishish lozim, negaki qarshidagi reykaning asosiy og'irligi boltni shtir vilkasiga ulangan joyiga to'g'ri keladi. Shtirning bu qismini mustahkam qilish uchun payvandlash yo'li bilan temir ikki qatlam qilinadi.

Bolt diametri 5,5 mm. qo'lda burash qulay bo'lish uchun kattaroq gayka olinadi. Gaykaning tashqarisida kertigi bo'ladi.




11-rasm reykanı shtir aylantırış bilan mahkamlash

Shtir vilkasining keng tomoni markazidan standart 6 mm teshik ochiladi u

vilhani mahkamlash sterjeni yordamida teshik orqali xar qanday reykaga mahkamlash imkonini beradi.

Teatrdagi komplektda shunday shtirlardan 25 dona bulsa etarli.




12. Deraza va eshiklar

Deraza va osti uchun, chiqarib olinadigan qismi, tokcha, siljish eshigi.

Yuqorida aytilganidak pavilonni sinchli yig'ma devori tizimida eshiklar va derazalar qurilmasi ikki hildagi usul bilan amalga oshiriladi.

Agar, yuqorida yozilganidek, tashish sharoiti bezakni to'raligicha yig'ma bo'lishini talab qilmasa, unda yig'ilmaydigan o'zgaruvchan eshiklar va derazalar tizimini qo'llash lozim.

Bu usul quydagicha bo'ladi: eshik chaspagining yig'ilmaydigan uch tabaqali ramkasi tayyorlanadi (12-rasm). Keng tomoni eshikning osiladigan chaspagi romkasiga orqa tomonidan mahkamlanadi. Qalin tomonining kesaki yuqori qismi kertmaklangan izmalarga mahkamlanadi. Kertmaklangan izmadagi keng tomon orqa devoriga fanera va applikatsiyalar bilan sinchdan tayyorlangan eshik mahkamlanadi. Eshik tegishli rangdagi moy bo'yoq bilan bo'yaladi.



13-rasm O'zgaruvchi eshik. Tirqish bilan

Eshikni tashish chog'ida eshik izmidan, qalin tomon va ayni tushunchasini anglayotgan tyul tortilgan yuqori framiga chiqarib olinadi. Qalin tomon kesakining

yon tomonlari eshik chaspagi (izmasi) ramkasiga taxlanadi. Eshikning barcha qismlari mahsus tayyorlangan sinchli yassi yog'och yashikka solinadi.

Eshikni o'zgartirib deraza yasaladi. Buning uchun yuqori formaga - oyna joyida qoldiriladi, eshik esa oyna tushunchasini beruvchi to'r tortilgan ochiluvchi deraza romkasi bilan almashtiriladi. Ichki qalin tomon deraza romkasiga tokcha mahkamlanadi, uning pastiga pavilon bezagiga moslab ishlangan reykada mato osiladi. Agar teatrga turli hajmdagi tabaqasi bo'lgan bir necha eshik zarur bo'lsa unda shunay o'zgaruvchan deraza eshikning bir necha nusxasi tayyorlanadi.

Teatr nihoyatda ixchamlikka erishish uchun harakat qilayotgan holatlarda komplektning barcha qismini yig'ilishiga erishishi zarur, qalin tomonli va usiz yog'och reykalar komplektidan iborat yig'ma deraza va eshiklar qo'lanishi mumkin. (qarang, ilova yig'ishni taxminiy xisob qitoblari). Buning uchun 13-rasmda ko'rsatilganidek deraza romkalarini (mahsus 133-2 qism) va boshqalarni yig'ish uchun mahsus mo'ljallangan yog'och qismlar ko'zda tutiladi. Deraza romkalarini yig'ish uchun mahsus tayyorlangan yog'och qismlar tegishli rangdagi moy bo'yoq bilan bo'yaladi va boshqa biror yig'ish ishlarida foydalanilmasligi kerak.


Spektakl uchun yig'ilgan deraza romkalari oynaga o'xshatib bo'yalgan to'r tortib qo'yiladi. Oldinga qiytiq qilib ishlangan qalin tomonlar uch romka ko'rinishida reykalaridan yig'iladi. Bulardan ikki yon va bir yuqori tomonlari o'zaro o'yma izma yordamida briktiriladi. Qalin tomoning butun qaropkasiga oddiy chitdan tiqilgan yahlit oq g'ilof kiydiriladi Bunday g'ilof qirlansa yuvish oson bo'ladi.

Deraza romkalari va eshik kesakilarini osish uchun ham kesilgan izmadan foydalaniladi. deraza tokchasi burish shtirlariga mahkamlanadi (14-rasm)

Derazaning tekis yoki o'yma chaspagi burchaklar bo'yicha yig'ilgan o'yma izmalarda qilinadi. Aylanish shtirlarida mustahkam to'ruvchi deraza tokchasi ostiga yupka reykaga mahkamlangan mato bo'lagi osib qo'yiladi, uning rangi pavilonidagi butun umumiy o'rniga yoki bezagiga mos kelishi kerak.

Shu princip asosida eshik quriladi (12-rasmga qarang). Oyna - yig'ish eshik

kitobi misollaridan ko'rinadiqi eshikni mahkamlash uchun romka - arka yig'iladi. Unga eshik kesakisi mahkamlanadi, o'yilgan kesaki qalin tomonning yig'ma qutisi qo'yiladi. Qismlar miqdorini kamaytirish uchun eshik va derazalar uchun perspektiva nishabi bir hildagi qismlardan yasaladi, ularning ostiga mufta yordamida kerakli uzunlikdagi reyka mahkamlanadi bu qalin tomon qutisini tushirish yoki ko'tarish imkonini beradi.



14- rasm

Devor sinchidagi deraza.


1-Burash qisqichi, 2-tokcha, 3-tiqinli mahkamlagich, 4-deraza va eshik orasi uchun qiytiq.

Eshik qanotlarini yig'ish uchun 126-1 va 126-2 (o'yilgan joyi bilan) mahsus tayyorlanadi. Bu eshik qanotlarini sinchini tashkil etadi (13-rasmga qarang) eshik qanotlari sinchlariga eshik rangiga bo'yalgan qalin matodan tikilgan g'ilof kiydiriladi. Bunday mustahkam g'ilof matoda chizilgan tasvirlar qiyshayib ketmasligi va spektakl paytida eshik yopib ochilganda qimirlab turmasligi uchun zarur bo'ladi. Tashilganda eshik matosi qanotga qiydirilgan holda yoki uni chiqarib olib o'ralgan holda bo'lishi mumkin. Amalda eshiklar va derazalarni to'la yig'ish kamdan-kam uchraydi. G'ilofdagi eshik qanotlari, qalin korobkaning barcha tomonlari, shuningdek to'r tortilgan deraza romlari yig'ilgan holatda tashilaveradi, Buning uchun ular mahsus engil karkasli yashikka solinadi. Spektakl oldidan sahnada deraza va eshiklarni yig'ish chaspak burchaklarini kertmak izmalar bilan ulash, qalin korobka burchaklarini birlashtirish va deraza hamda eshiklarni qalin korobkaga osish ishlaridan iborat bo'ladi. Garchi bu kuproq mehnatni talab qilmasada lekin deraza va eshiklarni qichikroq hajmdagi yashiklarda tashish imkonini beradi. Bulardan tashqari eshik qanotlarini chiqarib olinadigan g'iloflardan foydalanib ayni bir sinchdan eshik tasvirlarining bir necha variantlarida foydalanish va ko'p kuch talab qilmay eshik kattaliklarini o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Eshik va deraza tutqichlari chiqarib olinadigan qilinadi va tutqich ohiriga birlashtirilgan mahkamlash sterjenlari avaldan tayyorlangan teshiklarga mahkamlanadi.(15-rasm)

Mahsus chaspakli va qoplamali gotik va boshqa derazalar qo'shimcha fasonli bezaklar bilan tayyorlanadi.

Ammo yuqorida aytilganidek deraza va eshiklarni yig'ishning bu usuliga faqat o'ta zarurat bo'lgandagina murojaat qilish lozim, negaki murvatlarni ortiqcha ko'paytirib yuborish ishni qiyinlashtiradi.



15 rasm.

1-Chaspak, 2-Oraliq, 3-G'ilof, 4-Sinch,

Karkasdagi eshikka tutqichni o'rnatilishi.

Zarur bo'lganda aynan o'sha murvatlardan ochiladigan derazali ayvonning sinchli devori va yassi ochilib yopiladigan eshik va derazali uylarning tashqi devori sinchlari va boshqalar yig'ilishi mumkin.(33-45 betlarda keltirilgan yig'ish xisob-qitoblari misoliga qarang).

Pavilonni yig'ish

16-rasmdan ko'rinadiqi, shift matosini tortish uchun shtanket ham teatr uchun zarur bo'lgan hajmga bog'liq ravishda ayrim reykalardan yig'iladi .

Faqat shuni yodda tutish ,kerakli Bunday bir necha reykalardan ulangan shtanket ba'zi joylarda osib qolishi mumkin va uni bir necha joyidan tros

(arqon) bilan mahkamlash lozim bo'ladi.

Sinchlardan iborat pavilon devoriga bezak matolar yopiladi. Negaki bu mato olinishi mumkin, sinchga butun pavilon uchun bir hil bo'lgan g'ilof yopgan ma'qul. Buning uchun tasvir tushirilgan bezak matosi yahlit blok g'ilof qilib tikiladi, u shakli va kattaligiga ko'ra pavilon qiyofasiga mos bo'ladi. Xar bir spektakl uchun hajmi yig'ish albomida aniq belgilar qo'yiladigan hajmdagi deraza va eshiklar uchun g'ilof bezak matosi chetlari eshik va derazalar chetlariga kirib turadigan qilib o'yib qo'yiladi. Bezak matosining quyi cheti keng cho'ntak qilib tikiladi, unga ingichka yog'och reyka qo'yiladi. (bu reykaning uzunligi pavilonning bir burchagidan ikkinchisigacha bo'lgan masofa bilan belgilanadi.)



16-rasm. Shift yopqichini mahkamlash


1- Shtanket ko'targich, 2-Troslar, 3-Mufta, 4- Mato, 5-Qisqich. 6-G'ilofli pavilon.

Bezakning yuqori chetiga ham shunday reyka qiydiriladi. Cho'ntak qilib qo'yilishi lozim, bulardan tashqari bezak g'ilofning metall xalqalar tiqiladi. Agar pavilon karnizsiz bezatilayotgan bo'lsa bezakning yuqori cheti reykasini sinchni yuqori reykasiga tashlab qo'yiladi va halqa orqali tutqichlarga arqon bilan bog'lanadi.

Bezakka tiqilgan quyi reyakalar bir necha joyidan sahna poliga yoki sinchni quyi g'o'lalariga mahkamlanadi.

Eshik va derazalar chetlari chaspaklariga ulab qo'yiladi va arqon bilan mahkamlab qo'yiladi.

Agar pavilonni bezash uchun karniz qo'llanadigan bo'lsa, g'ilof quyidagi tartibda mahkamlanadi: Sinchni yuqori reykasiga oshiq-moshiq yoki mahsus ilmoqlar yordamida ichki tomonidan soddaroq bloklar bilan jihozlangan qarniz kiydiriladi 17 rasm.



17-rasm

1-Blok, 2-Karniz shifti, 3-Ilmoq, 4-Karabin, 5-G'iloflar.

Qarnizga changgakni o'rnatish uslubi.

Bu bloklar orqali sinchni yuza qismi bo'ylab karniz tagidan pastga tushiriladigan arqon yoki ip tashlanadi. Bu arqonlar uchlari sodda qisqichlar bilan jihozlangan. Bu qisqichlar bilan arqon bezakning yuqori chetidagi xalqaga bog'lanadi. qarnizdagi bloklar orqali sinchning ichki tomonida osilib turgan arqonlarning bo'sh uchini tortganda bezak yuqoridagi reyka karnizning orqasida ko'rinmay ketgunicha ko'tariladi. Orqa tomondagi arqonlar uchlari tutqichlarga mahkamlanadi.

Mahkamlashning Bunday tizimi teatrlardagi spektakllarda sinab ko'rilgan.

Albatta qarniz va yahlit g'ilofni qo'lanishi teatr rasomining ijodiy tashabusi bo'g'ib qo'ymasligi kerak. U xar bir alohida holatda karnizning zarurligi va butun pavilonga mato tortish yoki har bir devorning alohida o'rash lozimligini o'zi hal qiladi. Faqat shuni taqidlash lozimki katta hajmdagi karniz yordamida mahkamlash sinch devorlari miqdorini ancha kamaytirish imkonini beradi. Anchayin mustahkam karniz anchagina oraliq bilan o'rnatilgan devorni qoplashi mumkin, bu komplekt qismlarini anchagina qisqartirishi va butun bezakni tezroq o'rnatish imkonini berishi mumkin.

Chiqarib olinadigan g'iloflar uchun matolarga tasvirlar tushirish zarur, yuqorida aytilganidek Buning uchun anilin bo'yoqlaridan foydalaniladi. elim bo'yoqlar matoni o'ragan sari to'kilib ketaveradi.

Xulosa o'rnida yana bir marta shuni takidlash lozimki, kitobda keltirilgan chizma va rasmlarni albatta hamma bajarishi shart emas. Ular sinchlarni yig'ishning asosiy principini aniq tushuntirish uchun keltirildi. Biz taklif etayotgan qurilmalarga o'tishga qaror qilgan teatrlar o'z ishinig hususiyati ni xisobga olib bunga ijodiy yondashishlari lozim.

Ilova. Pavilon devorlari turli qismlarini yig'ish hisob kitoblariga misollar.

IV- qism.

Sahna pavilonlarining yig'ma portativ konstrukciyasi

Takrorlash uchun nazorat savol va topshiriqlar:

1. Sahna pavilonlarining yig'ma portativ konstrukciyasi nimalardan tashkil topgan.
2. Qurilmalarning umumiy tasvirini sharqlang.
3. Yog'och murvatlar nimaga xizmat qiladi, sharxlab bering.
4. Yog'och qismlari va reykalari nima uchun tag'malanadi?
5. Mahkamlash sterjeni nima?
6. Ishchi yashigida nima saqlanadi?
7. Changgaklar nimalarda ishlatilishini sharqlang.
8. Deraza eshiklar o'zgaruvchi eshiklar nimaga asoslanib o'zgarishini tushuntiring.
9. Pavilon qanday yig'ilishini aytib bering.
10. Qarnizlar qanday mahkamlanadi?

Mustaqil ish

(Vazifalar kompyuterda bajariladi)

1. Bezaklarni portativ usulda tayyorlashdan nima maqsad?
2. Qurilmalarni nimalar bilan berkitiladi?
3. Tag'malar nimaga xizmat qiladi?
4. Sterjen qaysi joylarda ishlatiladi?
5. Ishchi yashik nimaga ishchi yashik deb atalgan.
6. Changgaklar qaysi paytda ishlatiladi?
7. Deraza eshiklarni yasashda nimalar ushlab turadi? O'zgarish xollarini tushuntiring.
8. Pavilon karnizlar yig'ilishi va qanday mahkamlanishini tushuntirib bering.

V - QISM

SPEKTAKLNING TASHQI SHAKLINI IZLASH TEATRDA BADIY SAHNALASHTIRISHNI ISHLAB CHIQUARISH-IJODIY JIHATDAN TASHKIL ETISH

Spektaklning tashqi shaklini ishlashning texnologik jarayoni.

Aktor ishtiroq etadigan muhit obraz vujudga kelishga yordam beruvchi tegishli shart-sharoitni talab qiladi. Bunga aktyor "yashayotgan" muhit va uning grim, libos, rekvizit, mebel, bezaklar, chiroq, ovoz kabi tarkibiy qismlar kiradi. Ular bilan ko'p yillar ishlash jarayonida rejissyorning rassom bilan va rassomning sahnalashtirish qismi, maket yaratish, sahnalashtirish texnik hujjatlar tayyorlash, bezaklar yaratish kabilar bilan ishlashdek texnologik jarayonni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ularning tartibi o'zgarishi mumkin, ammo ularning har birini bajarish muvaffaqiyatli ishlash garovidir.

1. Rejissyorning rassom bilan ishlashi. Rassom faqat fon yaratgan davrlar o'tib ketdi. Bugungi kunda rassom ham sahna ijodkori, spektaklni vujudga kelishida etakchi mutaxassis hisoblanadi. Rassom rejissyor va aktyor kabi o'z tasviriy san'ati bilan bo'lajak spektakl g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi. Rassom ham boshqa ijodkorlar qatori spektakl yaratishda faol ishtirok etadi.

Birinchi bosqichdagi ishning muvaffaqiyati rejissyor va rassom o'rtasidagi ijodiy aloqaga bog'liq. Bir qator muloqotdan so'ng pesa, spektakl uslubi, vaqti, g'oyaviy mazmuni haqida yakdil yondashuv paydo bo'lishi zarur. Bunda rassom rejissyor bilan barobar ishlaydi, uning ko'rsatmalarini bajarmaydi.

Rejissyor va rassom o'rtasidagi to'qnashuv yoki fikrlarning mos kelmasligi umuman spektaklni muvaffaqiyatsiz chiqishiga olib keladi. Rassom dastlabqi qoralamadan boshlab mizansahnaning tuzilishi bilan bog'liq jihatlarni ishlaydi. Bu dastlabqi ishni rassom rejissyor bilan hamkorlikda amalga oshiradi. So'ngra u sahnani bezash, liboslar eskizini tayyorlash, rang tanlash ishlarini bajaradi. Ammo

keyingi ishlar uchun eskizning o'zi kamlik qiladi. Faqat boshqa ijodkorlar bilan birga to'laonli maketni ishlash mumkin.

2. Spetakl tayyorlashning dastlabki davrida badiiy sahnalashtirish mudiri bilan ishlash.

Bu qizg'in ishlash davri hisoblanadi. Pesa bilan tanishgach, sahnalashtirish mudiri rejissyor va rassom g'oyasini o'rganadi, mebel, butaforiya, liboslarni tanlaydi. Bunday muloqot unga rejissyor va rassom bilan barobar ishlashga imkon beradi, spektaklning moddiy ta'minotini hal qilishga yo'l ochadi, sahna ishchilari guruhni tashkil qilish mumkin bo'ladi. Bunda sahnalashtirish mudiri va uning yordamchilarining spektaklning tashqi shaklini yaratishga ijodiy yondashuvi haqida gap ketayapti.

MAKET - SPEKTAKL TASHQI SHAKLINING YARATILISHIDAGI YAKUNIY BOSQICH

Teatr bezagi maketi – bu bo'lajak spektakl bezagining ixcham ko'rinishi. Maket yordamida ma'lum makondagi ko'rinishning kichraytirilgan nushasi yaratiladi.

Maketda faqat ijodiy emas, balki texnik va texnologik vazifalar ham hal etiladi. Eskizning ikki o'lchamli yassi ko'rinishi ko'p narsa bermaydi, maketda esa shakl, montaj, bezak haqida to'la tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi.

Teatr maketi uchun 5 sm: 1m xajm, ya'ni sahna kattaligiga qarab hajmlar o'zgarishi mumkin.

Teatr maketi uchun oson ishlov beriladigan har qanday materialdan foydalaniladi. Buning uchun qog'oz, karton, fanera, penoplast, yog'och bo'laklari va reykalaridan foydalangan ma'qul.

Maketda bo'ljak bezakning uch o'lchamlik namunasini ko'rish mumkin, unda barcha jihozlarning, mizansahnaning xajmi belgilab olinadi. Teatr maketida bezak, shakl, rangli yoritgich qo'llab spektakl obrazini aniqlab olish mumkin.

Ba'zan rejissyor eskiz bilan cheklanib vaqtini iqtisod qilish uchun maket qildirmaydi. Bu yondashuv noto'g'ri, negaki sahna yuzasini maketda tekshirib olinmasa, eskizni sahnada noto'g'ri aks ettirishga va bezaklarning haqiqiy xajmini qayta ishlashga hamda xarajatni ko'payishiga olib keladi.

Maket bezak va libos eskizi kabi badiiy kengash tomonidan qabo'l qilinadi va bu bayonnomada aks etadi. Bu ishni boshlash va xarajatlar uchun huquqiy hujjat hisoblanadi.

TEXNIK MAJLIS. IJROCHI RASSOMLARNI IJODIY JARAYONGA JALB ETISH

Yangi spektaklni bezashga tayyorlashda maketni rassomning ishtiroqida muhokama qilinadi. Bu texnik majlis deb yuritiladi. Uni badiiy sahnalashtirish mudiri va unga sahna va ishlab chiqarish guruhlar rahbarlari taklif etiladi. Texnik yig'ilishda sahnani bezash orqali butun spektakl davomida amalga oshiriladigan yumushlar muhoqama qilib olinadi. Har bir ishtirokchi o'z variantini taklif etadi, eng yahshisi qabul qilinadi.

Badiiy sahnalashtirish mudiri majlisni ijodiy izlanish tomon burib yuborishi, ishtirokchilarning fantaziyasi va faolligini ishga solish, bezaklar tayyorlashning eng maqbul variantlarini tavsiya etish zarur. Texnik majlis qarori montajlash hujjatida aks etadi. Ish chog'ida unga o'zgartirishlar qiritish mumkin.

REJA – SAHNA TUZILISHINI HAR TOMONLAMA TEKSHIRISH USULI

Spektaklning tashqi tuzilishini yaratish bo'yicha ishlarni bajarishga qirishishdan avval bo'lajak sahna bezaklarini rejalashtirish va ularni turli tomosha zalidan mo'ljallash muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Reja sahnada bezaklarni qayta ishlashdek ortiqcha yumushdan asraydi.

Badiiy kengash qabul qilgan maketdan rejalashtirish olib tashlanadi, u bosmalangan sahna to'zilishga kiritiladi. Sahn rejasini har bir teatr uchun alohida

bo'ladi, lekin u odatda 1:100 va 1:20 hajmda bajariladi. Rejalashtirish yana bezak yoymasida amalga oshiriladi.

Bu hujjatlar asosida sahna mashinachisi sahna yuzasidan bo'lajak bezak rejasini yaratadi. Buning uchun u boshqa ijrochilarga ham rejissyor va rassom niyatini tushuntiradi. Sahnaga maket olib chiqiladi.

Rejissyor reja yordamida tomoshabin zalidan aktyorlar ijrosi, mizansahna imkoniyatlarini kuzatishga yo'l ochadi. Rassom esa maketdagi xajmlarni, bezaklarning ayrim qismlarini muvofiqligini belgilab oladi.

Reja jiddiy ishlab chiqiladi, zarur bo'lganda unga kerakli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

TEXNIK HUJJATLAR TUZISH

1. Montaj hujjati. Bu hujjat spektakl tashqi shaklini yaratish bo'yicha barcha ishlarni nazorat qilish imkonini beradi. Montaj hujjatiga sahna bezaklarining barcha tarkibiy qismlari, chizmalar, tashqi shaklini yaratishda ishtiroq etgan guruhlar kiritiladi. Har bir spektakl bezaklari alohida raqamlab chiqiladi. SHundan so'ng ro'yxatga butaforiya va mebel qiritiladi.

Ro'yxatni ishlab chiqarish guruhlari soniga qarab to'zilmaydi, negaki ko'pgina detallarni nechta guruh bo'lsa shuncha yozishga to'g'ri keladi. Shuning uchun har bir detalni alohida ko'rsatgan ma'qul. Bu hujjatni texnik kengashda tuzish imkoniyati bo'lmaganligi tufayli sahnalashtirish mudiri uni avvaldan to'zib faqat ayrim kataklarini ochiq qoldiradi.

2. Bezak chizmalari. Chizmalar konstruktorlik hujjatlariga binoan tayyorlanadi. Bezakning har bir qismi alohida varaqda chiziladi. Dastlab bo'lajak bezak asosi chiziladi, unda spektakl nomi, detallar va materiallar ko'rsatiladi. Bezaklar chizmasi umumiy ko'rinishda yoki qismlar bo'yicha bo'lishi mumkin.

Umumiy ko'rinishdagi chizmalar bezak detallari murakkab bo'lmasa yoki u an'anaviy tarzda tayyorlansa bajariladi. Qismlar bo'yicha murakkab, noyob

qurilmalar bajariladi. Teatr bezaklari uchun 1:20 xajm qabul qilingan. Mebel chizmalari ko'p masshtabni talab qiladi. Sodda geometrik shaklga ega bo'lgan mebel qismlari 1:10 masshtabda chiziladi. Qiytiq, bukilgan mebel qismlari shablon bo'yicha tayyorlanadi.

Chizmalar aniq, ortiqcha izohlardan xoli bo'lishi zarur. Bunda ustalarning mahorati hisobga olinadi.

Barcha chizmalarda teatr, pesa, ko'rinishi, varaq raqami, tayyorlagan shaxs nomlari ko'rsatilgan muhr bo'lish lozim. Texnik xodim tayyorlagan chizmalar rassom tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Tabiiy kattalikdagi chizmalarda razmer ko'rsatilmaydi.

3. Yangi spektaklga xarajtlar smetasi. Bu ham montaj hujjatidek tayyorlanadi. Ish bezak va mebel chizmalari bilan birga tayyorlab boriladi. Smeta shakli turlicha bo'lishi mumkin, teatrlar o'ziga mosini tanlab olaveradi, ammo barchasi spetaklning tashqi shakliga xarajatlarni aks ettirish kerak. Xarajatlar smetasiga moddiy xarajatdan tashqari, boshqa nomoddiy xarajatlar ham (rejissyor, rassom va boshqalarga to'lovlar) ko'zda tutiladi. Ularning barchasi teatr direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Xarajatlar smetasiga ko'ra badiiy sahnalashtirish qismi mudiri ta'minot bo'lishiga va direktor muoviniga buyurtma beradi.

Sahnaga spektakl bezaklarini chiqarish va taqdim etish bo'yicha ishlab chiqarish ustahonalarining ish tartibi. Bu bezaklar tayyorlash ishlari boshlanguniga qadar badiiy sahnalashtirish mudiri tomonidan tuziladi. Bunda ishlab chiqarish quvvati va bezak tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqt hisobga olinadi. Jadvalda rejissuraga muvofiq sahnaga bezaklarni uzatish tartibi belgilanadi.

SAHNADA YIG'ISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

1. Yig'ish usullari. Teatr rivoji, spektaklni bezashning turli shakl va usullarini ishlab chiqilishi tufayli bezaklarning yig'ish yo'llari paydo bo'ladi. Spektaklni montajlash usuli sahnadagi mexanik uskunalarini turiga bog'liq.

Spektaklni kulis orqali bezash usuli paydo bulgach bezaklarni shtanket ko'targichlar yordamida montajlash usuli paydo bo'ldi, negaki u yumshoq yassi bezaklarni sahna oynasiga parallel o'rnatishni nazarda tutadi. Hozir Bunday usul balet spektakllarda mavjud. Zamonaviy spektakllarda shtanket ko'targichlardan qattiq xajmdor bezaklarni ilish.

Sahnada pavilion bezaklarni paydo bo'lish boshqacha montajlash usulini talab qildi. Dastlab har bir bezakni navbati bilan yig'ish, tanaffus paytida almashtirish zarur bo'ldi. Bunday usul 15-16 minut davomida butun bezakni shovqinsiz almashtiriladigan ko'p sonli mutaxassislarni talab qilardi. Aylanuvchi sahna paydo bo'lgach, bezaklarni doira ustida montajlash imkoniyati vujudga keldi. Bu usul pavilion bezaklarini yig'ish ishlarini tezlashtirdi va engilroq qildi. Aylanuvchi doiradagi bezak aylanishi bilan zaruriy ko'rinishni namoyon qiladi. Cho'ntakli va siljuvchan sahnalarni kashf etilishi ham bezaklarni montajlashni engillashtirdi.

Ko'p kartinali spektakllarda tanaffuslarni qisqartirish uchun furqalar keng qo'llanila boshlandi. Furqalar yordamida bezaklarning ayrim qismlarini qo'yish va yig'ishtirish mumkin bo'ladi. Spektakllarda montajlash usullari kompleks holda uchraydi.

2. Montajlash tartibi. Spektaklni tayyorlash chog'ida sahnada bezaklar ketma-ket, ularni ustahonada tayyorlanish tartibi bo'yicha montajlab boriladi. To'la tayyor bo'lgan bezaklar sahnaga uzatiladi. Sahnaga maydoniga olib chiqadi. Ishni engillashtirish mashina-bezak guruhi a'zolarida o'lchash asboblari bo'lishi lozim.

Bezaklar ma'lum ketma-ketlikda montajlanadi. Dastlab sahnaga to'shama yoyiladi. To'shamaga bezak o'rnatiladigan joy belgilab qo'yiladi. Bezaklarni o'zaro va polga mahkamlagach shift o'rnatiladi. Eng so'nggida mebel, rekvizit, rasm parda va boshqalar o'rnatiladi.

Barcha sahna guruhlari a'zolari ishini to'g'ri tashkil etish muhimdir. Yuqoridagi barcha ishlarni to'g'ri tashkil qilishga teatring badiiy sahnalashtirish mudiri mas'ul hisoblanadi.

3) Montajlash hujjatlari. Premera-spektaklning tug'ilishi, so'ngra u yashashi va rivojlanishi kerak. Ammo unga va ayniqsa uning tashqi shakliga to'la ma'nodagi e'tibor zarur bo'ladi. Spektaklni sof holatda saqlab turish kerak. Badiiy teatrdan spektaklni doimiy kuzatib borish an'anasi bor. Tashqi shaklni badiiy sahnalashtirish mudiri va uning yordamchilari bo'lgan texnik xodimlar kuzatadi. Kamchiliklarni bartaraf etish va uzoq tanaffusdan keyin spektaklni qayta tiklash uchun montajlash hujjati yuritiladi.

Eng avvalo bu hujjatga har bir ko'rinishning rejasi qiradi. Ushbu hujjatga qarab sahna mashinachisi bezaklarni to'g'ri o'rnatilganini nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Har gal bezaklarni to'g'riligini tekshiravermaslik uchun to'shama, devorlarga belgi qo'yiladi. Belgilar tomoshabinga ko'rinib qolmasligi kerak. Montajlash guruhi samarali ishlashi uchun har bir xodimga texnologik qartochka beriladi. U montaj usullarini tez egallash, spektaklni oson tiklash imkonini beradi.

Mebel-rekvizit guruhi xodimlari ham ba'zan ayrim mebellar o'rnini to'shamalarga belgilab qo'yadi. Bu belgilar rangi bilan mashina-bezak guruhi belgisidan ajaralib turishi kerak.

Spektaklni yoritishda regulyatorga yorug'lik yozish va yorug'lik montajlash hujjatlaridan foydalaniladi. Chiroqlarning yorug'lik rangi perfoqarta yoki magnit lentasiga yozib qo'yiladi. Har bir ishchi xududga texnologik qarta tuziladi, undan foydalanib yorituvchilar o'z vazifalarini darhol tushunib oladi.

Radio shovqinni belgilovchi hujjat tuziladi.

Libos va grim guruhlarida barcha ashyolar pesa inventar daftariga qiritiladi.

Yahshi tuzilgan montaj hujjati spektakl tashqi shaklini saqlashga imkon beradi.

BADIIY BEZAKLAR ISHLAB CHIQUARISH VA ISHLAB CHIQUARISH USTAHONALARINI (GURUHLARINI) TASHKIL QILISH

Zamonaviy teatrlarda spektakllar turli tuman usulda bezaladi. Hozirgi paytda tashqi shaklni tayyorlash uchun faqat turli materiallardangina emas, balki turli texnologiyalardan ham foydalanilayapti, bu har hil mutaxassislarga ehtiyoj tug'diradi. Zamonaviy teatr ijodiy, ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab olgan murakkab organizm hisoblanadi. Badiiy bezak ishlab chiqarish ulardan biridir.

Ko'rinadiki, badiiy bezak ishlab chiqarish tushunchasining o'zi san'at sohasidagi spektakl obrazini ochishga imkon beruvchi bezaklar tayyorlash, badiiy bezak ishlab chiqarishni mehnatni tashkil qilishning eng yangi usullari bilan muvofiqlashga intilishni anglatadi.

BADIIY BEZAK ISHLAB CHIQUARISHNI TAKIL ETISH

Yangi spektaklning tashqi shaklini yaratish, shuningdek uncha katta bo'lmagan teatrdah sahna ashyolarini ta'mirlash ishlarini ishlab chiqarish guruhlari amalga oshiradi. Ishlab chiqarish guruhi tarkibi ish hajmiga qarab belgilanadi.

Yirik teatrlarda ishlab chiqarish guruhi badiiy ishlab chiqarish ustahonasi tarkibiga kiritiladi. Bu holatda badiiy ishlab chiqarish ustahonasi mudiri odatda teatr badiiy sahnalashtirish qismi mudirining o'rinbosari bo'lib qoladi. Badiiy sahnalashtirish qismi oldida turgan vazifalarni xal etish uchun ustahonalar turli dargohlar bilan jihozlanadi. Badiiy ishlab chiqarish ustahonalarini tashkil etishda ustahonalarning ishlab chiqarish quvvati teatr ehtiyojini qondirish, ustahonalar turli dargohlar bilan ta'minlanishi, ustahona maydoni sahna yuzasiga mos kelishi, ustahonada uzluksiz texnologik jarayon ta'minlanishi, texnika xavfsizligi tartiblari qo'llanilishi lozim bo'ladi.

USTAHONA TARKIBI VA MAYDONI. USTAHONALAR VA JIHOZLAR.

1. Duradgorlik ustahonasi. Qattiq karkasli katta hajmdagi bezaklar tayyorlash, shuningdek sahnada ketayotgan spektakllar bezaklarini ta'mirlash ishlarini bajaradi. Ustahona maydoni sahna uchun har qanday bezakni tayyorlash imkoniyatiga ega bo'lish zarur. Ustahona poli 60 mm qalinlikdagi taxtadan yotqiziladi. Ustahona poliga moybo'yoq bilan metrli kataklar chiziladi, bu bezakni haqiqiy kattalikda chizish imkonini beradi. Agar sahna aylanadigan bo'lsa ustahonada ham diametri mos keladigan aylana chizib qo'yiladi. Ustahona shifti balandligi kamida 5,5 m. bo'lishi kerak.

Ustahona tabiiy va sun'iy yoritish tizimi bilan ta'minlanishi zarur. Barcha stanok va o'lchagichlar ham teatr ishlab chiqarishga hos bo'lgan texnologik jarayon bilan ta'minlanishi zarur. Ish joyida o'lchov asboblari, materiallar qulay joylashtiriladi. Shamollatish qurilmalari ham yaxshi ishlashi kerak bo'ladi, elim qaynatish uchun plita o'rnatiladi, ochiq olovdan foydalanilmaydi.

Duradgorlik ustahonasida materiallar tayyorlash honasi bo'lgani ma'qul. Uning shovqinidan boshqa honalar ajratilishi zarur. Ustahona uzunligi 15-16 metr bo'lishi lozim. Honaga taxtani tilish uchun dumaloq arra o'rnatiladi.

Ustahona tarkibida bezakni to'la o'rnatish mumkin bo'lgan hona bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday honalarda bezaklarni to'la o'rnatib ishlov berish imkoni bo'ladi va sahnani egallab repetitsiyaga xalaqit berilmaydi.

2. Chilangarlik-mexanik ustahona. Bu erda metallardan hajmdagi bezaklar tayyorlash uchun mo'ljallanadi. Hona quruq, shamollatiladigan bo'lishi zarur. Har bir ish joyida taglik va uskunalar yashigi bo'ladi. Taglikka tunuka qoplanadi, qisqich o'rnatiladi. Ish joyi kamida 1,6 m²kv belgilanadi. Texnologik jarayon va texnik havfsizlik talabalariga ko'ra o'tish joylari va ish o'rinlari oralig'i belgilanadi. Mexanik dastgohlar beton yostiqlarga o'rnatiladi va unga mahkamlanadi.

Chilangarlik – mexanik ustahonada payvandlash ishlarini bajaradigan hona bo'lishi kerak. Unga alohida yong'inga qarshi talablar qo'yiladi, poli betonlanadi.

Unga metall stollar va shkaflar o'ratiladi, shamollatish uskunasi qo'yiladi. Mahsus hona bo'lmasa payvand ishlari tashqarida bajariladi.

3. Haykal-butafor ustahonasi. Ko'p material ishlatiladigan butafor mahsulotlari tayyorlash uchun mo'ljallanadi. Ustahona mustahkam stol, haykal yasash uchun dastgoh, butafor quritiladigan shkaf kabilar bilan jihozlanadi. Shamollatish uskunasi, gips, bo'r saqlaydigan joy va vanna bo'lishi kerak.

4. Rangtasvir bezak ustahonasi. Ohirgi bezak tayyorlash honasi hisoblanadi. Ham yumshoq, ham qattiq bezaklar albatta rassom qo'lidan o'tish zarur. Bu erda yumshoq orqa pardalar, panorama, gorizont, kulislar, padugalar tayoyrlanadi, yumshoq bezaklar tikiladi.

Ustahona xajmi sahnadagi gorizont xajmi barobar bo'lishi lozim. U duradgorlik ustahonasi bilan bog'liq bo'ladi, negaki karkaslarga mato tortilib, tayyor bo'lishi kerak.

Bezak zali balanligi 6-7 m bo'lishi lozim, 3,5-4 m balandlikda tomosha galereyasi montaj qilinadi. Galereya va ko'prik polda joy egallamasin uchun osma bo'ladi. Tomosha galereyasi bezakchi rassomlar ishini ko'rishi uchun zarur bo'ladi.

Qoplash ishlarini bajarish uchun ustahonada 3-4 yog'och shtanket ko'targichlar bo'ladi.

Rangtasvir – bezak ustahonasiga ikki tomondan tabiiy yorug'lik tushib turishi kerak. Bezaklarni chiroq yorug'ligida ko'rinishini sinab ko'rish uchun rangli sofitlar o'rnatish maqsadga muvofiq.

Matolarga badiiy bezak berish uchun ustahonada 3x1,5 m. Stol, taxta shift, bo'yoq qo'yiladigan kursilar, mato tortiladigan romkalar (60x95 – 65 x100 sm), narsalar saqlanadigan shkaf bo'lishi talab qilinadi.

Rangtasvir – bezak ustahonasi yonida bo'yoq tayyorlash, elim qaynatish, idishlar, cho'tkalar va boshqalar saqlanadigan hona bo'lishi kerak. Bu honada sovuq va issiq suv keladigan jo'mraklar, bo'yoq, elim qaynatiladigan elektr plitka, bo'yoq sepgich uchun kompressor bo'lishi kerak. Har ikkala honada ham havo almashtiradigan shamollatish qurilmasi bo'ladi. Ustahonada olovlanishi mumkin bo'lgan narsalar borligi uchun yong'in havfsizligi choralari ko'rilishi zarur.

5. Mato qoplash ustahonasi. Yumshoq bezaklar, bezakdor pardalar tikish, mebellarni qoplash kabi ishlar bajariladi. Bu erda tikuv mashinalari, bichish stollari, narsalar saqlanadigan shkaflar o'rnatiladi. Hona ham tabiiy, ham so'n'iy yoritilgan bo'lishi lozim.

6. Tiqish ustahonasi. Erkak va ayol liboslari tikiladi. Bunda tikiladigan va kiyib ko'riladigan honalar alohida bo'lishi zarur. Yirik teatrlarda kiyib ko'riladigan hona erkaklar va ayollar uchun alohida-alohida bo'ladi.

Ustahona tabiiy va chiroqlar yordamida yoritiladigan bo'ladi. Polga gilam to'shalishi, derazalarga parda tutilishi, oynalar o'rnatilishi zarur. Tayyor liboslarga ilgichlar nazarda tutiladi.

Bosh kiyim tikadigan ustahona ham tikuvchilik tarkibida bo'ladi, ammo u alohida honada joylashishi ham mumkin. Hona zaruriy uskunalar bilan jihozlanadi.

7. Poyafzal ustahonasi. Teatr poyafzali tayyorlash uchun mo'ljallanadi. Ustahonada cheti to'silgan bichish stoli o'rnatiladi. Har bir ustaga qichik to'garaka kursi, asboblari uchun shkaf bilan jihozlanadi. Tikish mashinasi va jilvirlash qayrog'i zaruriy dastgohlar hisoblanadi.

8. Bo'yash ustahonasi. Turli mato va materiallar bo'yaladi. Teatr hajmiga qarab alohida yoki biror ustahona tariqibiga qirish mumkin. Devorlarga plitka yopishtiriladi, poli suv oqib ketadigan so'yri qilib ustiga yog'och panjara qo'yiladi. Ustahonada matolarni bo'yash uchun bak, chayqab olish uchun vanna o'rnatiladi. Chiroqlarga qolpoq qiydiriladi.

9. Kimyoviy ustahona. Matolar, materiallar va bezaklarga yong'indan saqlash so'yuqligini singdirishga xizmat qiladi. Bunday ustahona faqat yirik teatrlarda bo'ladi, qichikroqlarida kimyochi-singdiruvchi xodim ishlaydi. Uskunalaridan purkagich va so'yuqlik solinadigan katta idish zarur bo'ladi. Matolar ko'rish ko'prigi tutqichi yoki shtanket ko'targichlarda quritiladi.

BEZAKLARGA QO'YILADIGAN BADIY-TEXNOLOGIK TALABLAR

Ko'rinadiqi, badiiylilik bezaklarga qo'yiladigan asosiy talab hisoblanadi. Bezak obrazi spektaklga tegishli barcha jihatlarini aks ettirishi lozim. Bularsiz bezak ma'nosiz bo'lib qoladi. Bulardan tashqari bezaklar bir qator texnik va texnologik talablarga javob berishi zarur.

Avvalambor ular qimmat bo'lmasligi kerak. Bu demak spektakllar chog'ida bezak xarajati o'zini qoplashi zarur. SHuning uchun bezak ishlash chog'ida uning ham badiiy talabga javob beradigan, ham arzon bo'lishi lozim.

Bezaklar og'irligi muxim o'rin tutadi. Og'ir bezaklar tez sinib ishdan chiqadi. SHuning uchun bezak qurilmasi rejalashtirilayotganda uni imkon qadar engil bo'lishini ta'minlash zarur. Shu bilan birga uning mustahkam bo'lishini ham yodda tutish kerak bo'ladi. Ayniqsa bezakning og'irlik tushadigan qismlari qattiq va mustahkam bo'lishga e'tibor beriladi.

Barcha bezaklarni yig'ish va qismlarga ajratish oson bo'lishi talab qilinadi. Agar shu ish ta'minlansa bezaklarni almashtirish oson bo'ladi, spektakl jadal namoyish etilaveradi.

Teatr bezaklarini ishlab chiqish va tayyorlash mahorati bilan yondashibgina bu sohada vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldi olinadi.

ISHLAB CHIQRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH VA ME'YORLASH

Teatr ijodiy, ishlab chiqarish va iqtisodiy sohalarini o'zida jamlagan murakkab ko'p-qirrali organizm hisoblanadi. Barcha davlat korhonalari singari unga ham tashkiliy, boshqaruv, rejalashtirish qonuniyatlariga amal qiladi. Tomoshabinlarning tashrifi teatr mavqeini belgilovchi omillardandir. Teatrda tomoshabinni jalb etish uchun tashqi shakl yaratiladigan yangi postanovkalar tayyorlab repertuarni doimiy ravishda boyitib borishi zarur. Ko'pchilik teatr

asboblari rassom, ijodiy faoliyatini me'yorlab bo'lmaydi deydi. Lekin mahoratli, o'z kasbining ustasi bo'lgan rassomlar ijodiy ish qanchalik murakkab bo'lmasin ma'lum muddatda tugatadilar, ya'ni vaqt me'yoriga rioya qiladilar.

BEZAKLAR QURISHDA ISH VAQTINI ME'YORLASH

Bezak qismlarining turli-tumanligiga qaramasdan ular bir nechta texnologik usullar bilan ishlanadi. Har bir bajariladigan ish uchun asosli me'yor belgilanishi mumkin. Ammo bajariladigan bo'yicha asosli me'yorlar mahsulotni umuman to'g'ri me'yorlash imkonini bermaydi. Shuning uchun me'yorlashga qirishganda ma'lum qism qurilmasi, texnologik jarayon tartibi, mahsulotning to'la chizmasiga ega bo'lish zarur. Chizma bo'yicha qurilma, bajariladigan ishlar belgilab olinadi, me'yoriy so'rovnomadani tegishli me'yor tanlanadi. Alohida ishlarga ketadigan ishlarni jamlab, butun bezak tayyorlashga ketadigan vaqt belgilab olinadi.

Agar zaruriy material miqdori belgilab olinsa, uni tayyorlash bilan bog'liq vaqt me'yori aniqlanadi. SHuning uchun ishlar me'yori bo'yicha zaruriy materiallar miqdori belgilanadi. Asosli me'yorlash faqat vaqtning hisoblash imkonini beribgina qolmasdan, mehnat mahsuldorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

YANGI SAHNA ASARIGA XARAJAT SMETASINI TUZISH

Xarajatlar smetasi spektaklning tashqi shaklini tayyorlash bo'yicha faoliyatini tartibga soluvchi hujjat hisoblanadi. Xarajat smetasi spektakl tashqi shakl uchun ajratilgan limit doirasida tuziladi. Smetalar shakliga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin, lekin ularda bezakka ketgan material va ishchi kuchi narhi ko'rsatilishi zarur bo'ladi.

Biror bezak qismini tayyorlashga ketadigan vaqt ishchi soatga ko'paytirilsa ishchi kuchi narxi kelib chiqadi. Ko'pchilik teatrlarda ishchi kuchi va vaqtbay ishlagani uchun o'z smetalarida ishchi vaqt narxi ko'rsatilmaydi.

Bezak hususiyati bo'yicha smeta tuzilganda bezak qismi bir marta ko'rsatiladi, ammo uni tayyorlovchi barcha xodimlarni ko'rsatish zarur. Smetada ko'rsatilgan har bir bezak qismining xajmi yoki maydoni belgilanishi zarur.

Ishlab chiqarish ustahonasi bo'lgan teatrlarda smetalar nakladnoy xarajatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Bu xarajatlar mavjud uskunalariga ketgan sarfdan kelib chiqadi. Agar tuzilayotgan smeta limitdan ortib ketsa, uni qayta ko'rib chiqib qisqartirish yo'lini qidirish lozim. Yangi spektakl smetasi direkciyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Turli mutaxassislarga to'lovlar moddiylashmagan harajatlar sirasiga qiradi. Smeta har bir bo'lim bo'yicha alohida tuziladi va raqam ko'rinishida ustunlarga to'latiladi, so'ngra harajatlarning umumiy yig'indisi chiqariladi. Xarajatlar smetasi asosida materialga buyurtma beriladi.

FAKTURA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Spektakl tashqi shaklini hal qilib, obraz talqinining qurilmasi va texnologiyasini belgilab topilgan obrazni talqin etish mumkin.

Rassom va texnologlarning tashqi shaklga fakturani kiritishga intilishi bejizga emas, negaki faktura topilgan obrazni ifodaviyroq va badiiyoq bezakni boyroq qilish imkonini beradi.

Bezaklar uchun material va faktura tanlayotib, ular teatr, sahna ifodaviyligi nuqtai nazardan ma'qulligidan kelib chiqiladi. Shuning uchun sahnalashtiruvchi rassom va teatr badiiy, texnik va texnologik vazifalarga mos keladiganlaridan foydalanganlar

Yuqorida ta'sdiqlanganidek, maishiy turmushda foydalanilgan ashyolardan bir qator sabablarga ko'ra ishlatib bo'lmaydi. Xususan ularning ko'pchiligi o'z ifodaviyligini yo'qotadi, shuning uchun ularni butaforlik yo'li bilan xal etgan ma'qul.

Bir qator teatrlar faktura tayyorlash va namoyish etish bo'yicha shakliga ijobiy ta'sir etadi.

Faktura rangtasvir bezagi bilan birga spektaklning tashqi shaklini yaratishda etakchi omillardan bo'lganligi tufayli unga rassom va butun ijodiy guruhni e'tibor bilan qarashini talab qiladi. Faktura bilan birga yangi materiallar, yangi texnologik usullarni izlashda davom etish zarur. Faqat faktura, usul, yangi material spektakl obrazini ochib berishga xizmat qilsagina tomoshabin e'tiborini tortadi.

YANGI SPEKTAKL USTIDA ISHLASH

Spektakl tayyorlash va chiqarish butun teatr xodimlar ishining muhim jarayoni hisoblanadi. Spektakl ustida ishlash odatda teatr bo'yicha barcha xodimlar uchun chiqarilgan buyruqdan boshlanadi. Aslida esa undan ham avvalroq pesani o'qish, sahnalashtiruvchi brigadani aniqlash, rol taqsimlashdan boshlanadi.

Spektaklning tashqi shaklini yaratish jarayoni to'rt bosqichda kechadi. Bular sahna maketini ishlab chiqish, liboslarni tayyorlash, repeticiya va bezak bezaklarni joylashtirish, bosh repeticiyani o'tkazish va premeradan iborat.

Tayyorgarlik davri

Ustahonalarda bezak tayyorlash ishi besh bosqichda kechadi: maket ishlab chiqish, spektaklni sahna ko'rinishi nuqtai nazaridan eskizni o'rganish har bir bezak bo'yicha texnologik tavsif, texnik hisob-kitob tuzish, bezaklar tannarhini aniqlash kabilar ana shu bosqichlardir.

Tayyorgarlik davri spektakl poydevori hisoblanadi, shuning uchun bu bosqich yangi spektakl tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

MAKET VA REJA USTIDA ISHLASH

Rassom fikri bezaklarni sahnada joylashtirish bilan amalga oshadi. Shu o'rinda sahnaning puxta ishlangan rejasi muxim o'rin tutadi.

Sahna xajmi, uskunalar haqiqiy o'lchami ishchi loyihadan farq qiladi. Shuning uchun sahnani aniq o'lchab olib reja tuzilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Sahnaning turli qism har chiziq bilan shartli ravishda rejaga qiritiladi. Bulardan tashqari sahna rejasiga yorug'lik uskunalari ham qiritiladi.

Bezaklarni qulay rejalashtirish uchun sahna rejasiga ingichka chiziqlar bilan masshtab turi chiziladi. Gorizontal chiziqlar sahnaning qizil chizig'idan, vertikallari uning markazidan boshlanib kvadratlar hosil qilinadi. Har bir shtanket ko'targich va sofitlar raqamlari chizma chetidagi katakchalarga yozib qo'yiladi. Bu osma bezaklarni to'g'ri joylashtirish imkonini beradi.

Sahna rejasi tomosha zalining old qismi va yon tomonlaridagi yoritish lojalarini ham qamrab olishi zarur. Chizmaning bu qismida parterning birinchi qatori chetlaridagi o'rindiqlardan bezaklar ko'rinishi va sahna libosi qanday namoyon bo'lishi muhimdir.

Sahna reja va kesmalari chizmachilik uchun yaroqli bo'lgan qog'ozga bosma usuli bilan bajariladi. Blankaga spektaklga oid asosiy materiallar qiritiladi. Raqamlar, yozuvlar aniq ko'rinishi uchun sahna rejasi moviy yoki och yashil rangda bosiladi. Sahna rejasi ustida ishlash bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab rassom bezakni joylashtirishni mo'ljallab chiqadi, ko'rinish sohasini belgilaydi. Bu reja asosida qoralama maket qilinadi. Maket qilish orqali spektaklning tasviriy tomonini ishlashning muxim jihati hisoblanadi. Karton to'siq ichida bo'lajak spektakl ko'rinishi namoyon bo'ladi.

Qoralama maketdagi rejali to'xtamlar sahnaning yangi rejasida belgilanibgina qolmasdan, qo'shimcha qurilmalarni to'g'ri joylashtirish imkonini ham beradi. Bir so'z bilan aytganda, sahna rejasida spektaklning butun tashkiliy qismi xal qilinadi. (120-rasm).

Bu bosqichda ishga sahna bosh mexanigi va chiroq bo'yicha rassomni taklif etish foydali. Rassom va sahnalashtiruvchi qism mudiri qanchalik tajribali bo'lmasin mashinist sahna imkoniyatlarini tuzukroq biladi. Sahna xodimlari bilan avvaldan maslahatlashib olish bezaklarni loyihalashda vujudga keladigan xatolarning oldini oladi.

Toza maket tayyorlash spektakl tashqi shaklini yaratishdagi navbatdagi bosqich hisoblanadi. U aniq xajm va shaklda tayyorlanadi. Teatr maketi – bu eng avvalo makonda ifodalangan spektaklning tasviriy tomoni, badiiy obrazidir. Toza maket tayyorlash bu faqat tayyorlangan sahnagina emas, balki tinimsiz ijodiy izlanish jarayonidir.

Sahnalashtiruvchi rejissyor qabul qilgan tayyor maket teatrning badiiy va texnik kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Texnik kengashda faqat bezash tomoni emas, balki aktyorlarning havfsizligi tomonlari ham asosli ravishda muhoqama qilib olinadi.

Ishchi chizmani chizishdan avval ayrim teatrlarda bo'lajak bezaklarni sahnada aniq joylashtirish masalasi hal qilib olinadi. Bezaklarni aniq joylashtirish rol o'ynaladigan maydonni belgilab olishga xizmat qiladi. Sahnalashtirish qismi mudiri boshqa bir qator xodimlar bilan birga bezakning ayrim qismlarini tanlash imkoniyatini belgilaydi. SHu asnoda ularning barchasi ishchi chizmaga o'tkaziladi.

ISHCHI CHIZMALAR

Chizmaning aniqlik darajasi bezak tayyorlash sharoiti va murakkabligiga bog'liq. Tajribali xodimlar uchun barcha sahna qurilmalarini chizmada ko'rsatish shart emas, lekin ayrim bezak qismlariga o'zgarishlar kiritilganda ular albatta chizmada aks etishi lozim. Boshqa ustahonalarga buyurtma berilganda ham to'la qurilmaviy ishlanmani ko'rsatish zarurati paydo bo'ladi.

Teatr bezagi chizmalari uchun 1:20 masshtab o'rnatilgan. Ayrim qismlar yirikroq hajmda berilishi mumkin. Ular uchun yig'ish chizmalari ham ko'rsatilishi mumkin.

Yig'ish chizmasi odatda yuqoridan ko'rinish tarzida bajariladi. Yig'ish chizmasi varaqning pastki chap burchagida joylashadi.

O'ng burchakda teatr nomi, spektakl, akt, kartina nomi bilan to'rtburchak muhr qo'yiladi. Chizma tayyorlangan sana va masshtabi belgilanib rassom imzolaydi, badiiy – sahnalashtirish qismi mudiri viza qo'yadi.

Pavilon chizilganda chap tomonda uning rejasi bo'ladi. Sodda pavilonlarda butun devorning o'zi tasvirlanadi. Choklar o'mi to'g'ri, buklamlar uzuk-uzuk chiziq bilan beriladi.

Eshik, deraza, qarniz va boshqalar devor bilan birga tasvirlanadi. Turli usullarda tayyorlangan eshik va derazalar turlicha chiziqlar bilan ifodalandi. Qattiq shiftlar chizmasi yuqoridan ko'rinish tarzida beriladi. Shift shakli pavilon rejasida ko'rsatiladi. Xajmi – karkasli va stanokli bezaklar ikki proekciyada beriladi. Xajmli – stanokli bezaklar alohida qismlardan iborat bo'lsa-da, chizmada yig'ilgan ko'rinishda tasvirlanadi. Murakkab, yoy shaklidagi, turli qiytiqlik va balandlikka ega bo'lgan stanoklar reja va kesimda beriladi.

Mebel murakkabligiga qarab 1:10 masshtabda yoki to'la kattaligida chiziladi. Yumshoq bezaklar uchun 1:50 dan 1:200 gacha masshtabda chizma beriladi. Butaforiya va rekvizit chizmasi 1:10 yoki 1:5 masshtabda chiziladi.

Ishchi chizma mahsulot va uning qurilmasining xajmi haqida tasavvur beradi.

TEKNOLOGIK TASVIR VA SMETA

Texnologik tasvir badiiy sahnalashtirish qism mudiri va spektakl rassomi tomonidan tuziladi. Unda spektaklni bezash ashyolarining to'la ro'yxati va qisqacha tayyorlash texnologiyasi beriladi.

Texnologik tasvir tuzishga misol 123 – rasmda keltirilgan. Unda mahsulot, xajm va maydon haqida ma'lumotlar beriladi. Eshik, derazalardan iborat pavilon devorlarini alohida devorlar sifatida bergan ma'qul. Shunda "mahsulot" texnologiyasi katagini to'latish oson bo'ladi.

“Tayyorlash texnologiyasi” katagi asosiy hisoblanadi. Odatda texnologik tasvir spektaklni umumiy bezaklaridan boshlanadi. Ularning ro'yxati rejissyor yordamchisi tayyorlagan zaruriy rekvizitlardan boshlanadi. Repeticiya paytida ro'yxat o'zgarishi mumkin.

Texnologik tasvir aniq tayyorlansa, bezak tayyorlovchilarda tushunmovchilik bulmaydi. Albatta ish davomida bezaklarni arzonroq va qulayroq qilish mumkin bo'lgan boshqa to'xtamlar paydo bo'ladi, lekin ular umumiy ishga xalaqit bermaydi. Har bir ishlab chiqarish cexiga etkazilgan texnologik tasvir mehnatni aniq tashkil qilishga xizmat qiladi.

Smeta ishchi chizmalar va texnologik tasvir asosida tuziladi. Bu paytga kelib sahnalashtirish qismi mudiri qaysi bezaklarni teatr zahirasidan olish, qaysilarini ustahonada yasash, boshqa tashkilotlardan sotib olinadigan bezak kismalarini belgilashi zarur. Teatrda mavjud bezaklar narxi smetaga qiriltimaydi, yangi ashyolar narxi smetaga qiritiladi. Sotib olinadigan va ustahonalarda tayyorlanadigan mebellar va rekvizitlar narxi jiddiy farq qiladi, shuning uchun ularni rassom va rejissyor bilan kelishib olish lozim.

Agar teatr ustahonalari ishchilari byudjetdan maosh olsa, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ashyolargina smetaga qiriltiladi. Ashyolar nomlarini to'g'ri belgilash uchun mahsulot xajminigina emas, ularni tayyorlash texnologik jarayonini ham bilish lozim bo'ladi. SHuning uchun smeta tuzishda ham ishchi chizma, ham texnologik tasvirdan foydalaniladi.

Zaruriy ashyolar miqdorini hisoblashda eng avvalo ular bo'yicha hisob olib boriladigan o'lchov birligini belgilash lozim. Teatrda ishlatiladigan mahsulotlarning nostandartligi va o'ziga hosligi bezaklar uchun ashyolarning sarfi me'yori ishlab chiqish imkonini bermaydi. Ashyolarni chizmalar bo'yicha hisoblash ma'qul bo'ladi.

Ashyolarni qattiq yassi bezaklarga sarfi me'yori keng tarqalgan me'yori hisoblanadi. Bu me'yori 1 kv.m devorni tayyorlash uchun ketadigan ashyo miqdorini belgilaydi. Barcha matolar enidan qat'iy nazar pogonometr bilan o'lchanadi.

Ashyolar narxi ma'lum o'lchov birligi uchun narx bilan belgilanadi. Ashyolar narxi ko'tara, chakana, o'rtacha me'yordan narx bilan belgilanadi. Bo'yoqlar narxini o'rtacha miqdor uchun olinadi.

Dastlabqi hisob-kitobda yordamchi ashyolarning miqdori va narxini belgilash qiyin. Ularga nina, ip, sovun, va boshqalarni qiritish mumkin.

Ishchi kuchi narxini hisoblangan smeta bir nechta yozuv shakllariga ega. Eng ko'p tarqalgan shakl 124-rasmda ko'rsatilgan. Olovdan asrovchi ishlov beriladigan suyuqlik va kimyoviy bo'yoq har bir mahsulot uchun alohida yoki umumiy o'lchoviga qarab belgilanadi. Har qanday aniq ishlangan smetada ham birdan paydo bo'lib qoladigan xarajatlarni avvaldan ko'rib bo'lmaydi. Tayyor smeta badiiy sahnalashtirish qism mudiri, spektakl rassomi, katta iqtisodchilar tomonidan yaxshilab tahlil qilib chiqiladi. Agar xarajat limitidan ortib ketsa smetani qayta ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Smeta texnologiyani qisman o'zgartirish, ayrim bezaklarni, uskuna yoki asboblarni rad etish bilan qisqartiriladi. Ammo spektaklning badiiy tomoniga putur etsa, hech qanday qisqartirishni oqlab bo'lmaydi.

Tuzatilgan va kelishilgan smeta badiiy sahnalashtirish qism mudiri, spektakl rassomi teatrning katta iqtisodchisi tomonidan imzolanadi, teatr direktori tasdiqlaydi. Sahnalashtirish qismi mudiri smetada belgilangan mablag'ni aniq sarflanishni qat'iy nazorat qiladi.

LIBOS

Odatda rassom bezak eskizi topshirilgach, libos ustida ishlashga qirishadi. Rassom eskizda topgan obraz libosni qiyadigan aktyorga ham ma'qul bo'lishi kerak. Shuning uchun eskiz barcha tomon uchun ma'qul bo'lmagunicha uni tikishga qirishilmaydi. Eskiz tasdiqlanganidan so'ng rassom bosqichi modeler bilan barcha liboslar ro'yxatini tuzadi. Libosni yana boshqa aktyor ham kiyishi lozimligini yodda tutish zarur. Rassom bosh qiyim va poyafzal uchun ham alohida eskizlar qiladi. To'la tasdiqlangan liboslar ro'yxati va harakatlar smetasi teatr ustahonalariga ijro uchun beriladi.

BEZAKNI ISHLAB CHIQUARISH

Spektaklni bezashni ishlab chiqarishga tushirib yuborish tayyorgarlik jarayonining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Ishchi chizmalar, texnologik tasvir va smeta ishlab chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin ustahonalar ishga qirishishdan avval ularni tegishli material bilan ta'minlash zarur.

Spektaklning badiiy bezagi tarkibiy qismlarini tayyorlashning tartibini to'g'ri belgilash mehnatni repeticiyani rejali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Repeticiya paytigacha bezaklarning barcha qismi tayyorlanib, sahnaga olib chiqilishi lozim. Bezaklarni tayyorlash, ularni rejali tarzda sahnaga olib chiqilishini va umuman ishlab chiqarish jarayonini badiiy sahnalashtirish qismi mudiri qat'iy nazorat qilib turadi.

SAHNA CEXLARINING YANGI SPEKTAKL USTIDA ISHLASH

Ishlab chiqarish va sahna cexlaridagi barcha ishlar direkciyaning spektakl chiqarish bo'yicha rejasiga asosan olib borilishi kerak. Taxminiy rejani sahnalashtiruvchi rejissyor tuzadi va repeticiyalar boshlash muddatini belgilaydi.

Shunday qilib repeticiyadan boshlab spektaklni chiqarishgacha bo'lgan ishlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

To'siqlar yonida repeticiya;

Ko'rinish va aktlar bo'yicha repeticiya;

Progon;

Yakuniy repeticiya;

Spektaklni topshirish;

Prem'era.

Repeticiya jarayonida spektaklning ayrim qismlariga tuzatishlar va aniqlik kiritiladi.

BEZAKLARNI MONTAJLASH

Rassom reja va maket bilan ishlash chog'ida dastlabqi joylashtirish ishlari boshlanadi, unda sahna bosh mashinisti ham ishtiroq etadi. Teatr texnik kengashi maketni qabul qiladi, unda bosh mashinist o'z fikrlarini aytadi. Repeticiyalarda aktyorlar rejissyorlar birinchi marta o'zlari rol o'ynaydigan bezaklar o'rnatilgan makon bilan tanishadilar. Uning xajmi tasdiqlangan rejaga mos kelishi eng muhim xislati hisoblanadi. Bu ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun montajchilar maket, ba'zan pesa bilan tanishtirildi.

Bezak qismlari tayyor bo'laverishi bilan mashinachi boshchiligida ular bir-biriga ulanaveradi. Ulash va yig'ishda bezak qismlar chokini mustahkam bo'lishiga e'tibor beriladi. Bulardan tashqari mashinachi sahnadagi barcha texnikaning soz ishlashini tekshirib chiqadi.

Ba'zi teatrlarda to'la tugallanmagan bezaklarni yig'ish amaliyoti mavjud. SHunday holatda ular repeticiyalarga uzatilishi ham mumkin. Lekin montajchilarni qoniqtirgan bezaklar rejissyor yoki aktyorni qoniqtirmasligi mumkin. Xomakilar asta haqiqiy bezaklar bilan almashtirilishi jarayonida aktyorlar va rejissyorlar ularga ko'nikib boraveradi.

Montajlashning yakunlovchi qismi o'zgarishlarni sinab ko'rish va ularni mahkamlashdan iborat. Bezakning umumiy kompozitsiyasi turli joylardan turib nazardan o'tkaziladi. YAhsilab tekshirilgan bezaklarga belgilar qo'yiladi. Ustahona bezaklarni yanada takomillashtirish ustida ish olib boraveradi.

YORITISH ISHLARI

Sahnani badiiy yoritish spektaklning tasviriy mohiyati bilan chambarchas bog'liq va zamonaviy teatrning muhim tasviriy vositalaridan biri hisoblanadi. Teatr yoritqichlari spektakl g'oyaviy-badiiy ma'nosini ochishga xizmat qiladi, tomoshabinga emocional ta'sir o'tkazadi.

Maket ishlash chog'ida spektakl rassomi va yoritish bo'yicha rassom spektaklning yoritish ishlarini mo'ljallab oladi. Maketga ega bo'lgan yoritish bo'yicha rassom qaysi chiroqdan nur yuborish maqsadga muvofiqligini aniqlab oladi. Maket bilan ishlash sahnada chiroqlarni o'rnatish ishini ancha engillatadi. Lekin har qanday yahshi maket ham yoritish haqida to'la tasavvur beravermaydi.

Chiroqlar sahnada bezaklar yig'ilgachgina dastlabqi sinovlar boshlanadi, mebel, butaforiya o'rnatilganidan keyin esa yoritish bo'yicha mahsus repeticiya tayinlanadi. Yoritish anjomlarini o'rnatish aktyorlar ishtiroqisiz bajariladi. Shuning uchun rassom faqat bezaklarni mosini qaytadan boshlashi kerak bo'ladi. Aktyor va bezaklarning mutanosib yoritilishini ta'minlash teatr yoritish ishlarining bosh vazifasi.

Yorug'lik repeticiyasi muvaffaqiyati ko'pincha tayyorgarlik ishlari sifati va qo'yilgan vazifalarning aniqligi bilan belgilanadi. Yoritish repeticiyasida montaj natijasini tasdiqlagan paytida yoritish ishlari yanada takomillashtirib boriladi. Umumiy yoritish partiturasini yozib qo'yiladi, unda yorug'lik manbasi, turi, o'rni, filtr rangi, yorug'lik oqimi quvvati belgilab qo'yiladi.

MEBEL VA REKVIZIT

Mebel, yirik butaforiya va boshqa ashyolar eskiz, maketda belgilanadi va texnologik aks ettiriladi. Zaruriy rekvizitlar ro'yxatini rejissyor yordamchisi tuzadi. Maket bilan tanishib va ro'yxatni olgach mebelchi-rekvizitor mebel, butaforiya va rekvizit tanlash ishini tashkil etadi. Rekvizitorlarning amaliy ishlari aktyorlar sahnaga chiqquniga qadar boshlab yuboriladi.

Repeticiya mebellarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Ular spektakldagina o'xshash bo'lishi lozim. Aktyor qo'liga beriladigan ovqat, ichimlik, sigaret va boshqalar ham rekvizitga qiradi, ularning rekvizitni sotib olish va oziq-ovqat tayyorlash ishlarini ham bajaradi. Ko'p marta ishlatiladigan rekvizitlarga ma'lum muddatda ishlov berib turiladi. Spektakllarga kiritilishi mumkin bo'lgan jonvorlar

ham rekvizitor ixtiyorida bo'ladi. Sahna uchun zarur bo'lgan mebellar mahsus ro'yxat blankasiga qiritiladi. Har repeticiya davomida o'zgarishlar belgilanib boriladi, mebel va rekvizit ro'yxati bo'yicha ohirgi to'xtamga kelinib, u asosiy qo'llanma bo'lib qoladi.

LIBOSLAR BILAN ISHLASH

Teatrning liboslar bo'limi ham ishlab chiqarish va ham foydalanish faoliyati bilan shug'ullanadi. Liboslar tayyorlash bilan bichuvchi modelerlar shug'ullanadi. Libos qismining tashkiliy tarkibi gruppaning miqdori va janrga bog'liq. yirik teatrlarda xizmat qiluvchi qism ishlab chiqaruvchidan ajralibgina qolmasdan, ayollar va erkaklarga xizmat qiluvchi ikki guruhga ajraladi.

Bichuvchi va tikuvchilar rassom va aktyorlar bilan yaqindan hamkorlikda ishlaydi. Ustalarning mahorati, aktyorlar xususiyatini bilishi rassom yaratgan libosni obrazga moslash imkonini beradi. Tikuvchilar va kiyintiruvchilarga katta modeler-bichuvchi raxbarlik qiladi. Tikuvchilarga ish taqsimlaydi, liboslarni tayyorlash navbatini belgilaydi. Aktyorlarga liboslarni o'lchash, qayta ishlash ishlari olib boriladi. Liboslar tayyor bo'lgach ularni sahnada ko'rinishini ko'rib olish uchun mahsus vaqt ajratiladi. Ko'rikda rejissyor, rassom, sahnalashtirish qismi mudiri va libos cexidan ma'sul ishtiroq etadi. Repeticiyalarda liboslar yanada ko'proq tekshiruvdan o'tkaziladi, kamchiliklari tuzatiladi. Tarixiy mavzudagi liboslarni tayyorlashda mahsus mutaxassislar bilan maslahatlashib olinadi.

Tayyor liboslar kiyintiruvchi-liboschilarga doimiy saqlash uchun topshiriladi.

GRIM USTIDA ISHLASH

Libosda ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilar alohida ishlasa rassom-grimchilarda bu ishlar bir jamoa tomonidan amalga oshiriladi. Faqat yirik teatrlarda soch-soqollar bilan ishlaydigan mahsus mutaxassislar bo'ladi. Ular turli davrlarga oid pariklar tayyorlash bilan shug'ullanadi.

Grim bo'yicha izlanish aktyor bilan alohida ishlash chog'ida kechadi. Aktyorga ma'qul bo'lgan grim rejissyorga ko'rsatiladi. Grim bilan ishlash chog'ida grimyor sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilishi lozim. Grim asboblari har bir aktyorga alohida beriladi.

OVOZ BEZAGINI TAYYORLASH

Spektaklni ovoz bilan bezagi musiqa va shovqindan iborat bo'ladi. Spektaklni musiqiy bezagiga teatrning musiqa bo'limi mudiri raxbarlik qiladi. SHovqinni radistrLAR hosil qilib beradi. Rejissyor spektaklning ustida ishlashning boshidanoq tovush bilan ta'minlash, uning xajmi, usullari haqida topshiriq beradi.

Shovqin va tovushlar teatrda shovqin asboblari va tovush yozish uskunalari orqali hosil qilinadi. Turli o'ziga hos shovqinlarni hosil qilish uchun badiiy did ham zarur bo'ladi. Teatr radisti o'z ishini shovqin asboblarini tanlashdan boshlaydi.

Barcha musiqa va shovqin yozuvlari rejissyor va aktyorlar tomonidan tinglanadi. Tanlangan bo'laklar ma'lum tartibda montajlanadi va repeticiyalarda tekshiriladi.

Rejissyor yordamchisi pult ovoz kuchaytirgich va spektaklni boshqaradigan boshqa joylar bilan ikki tomonlama aloqa uskunalari bilan jihozlanadi. Rejissyor uchun tomosha zaliga ko'chma ovoz ko'paytirgich qo'yiladi. Barcha uskunalar spektakl tayyorlash, repeticiya o'tkazishda faol ishtiroq etadi. Ishning muvaffaqiyati ularning aniq va puxta ishlashiga bog'liq.

SPEKTAKLNI CHIQARISH

Aktyorlar, montajlash va yoritish repeticiyalaridan keyin spektakl ustidagi ish yakuniy bosqichga qiradi. Qoralama va toza progonlar, bosh repeticiyalar o'tkaziladi.

Progon paytida yorug'lik manbalari, bezaklar, aktyorlar harakatlanadigan yuzalar, texnikalar o'rnini almashtirish kabilar hal qilinadi. Bunda bir ish bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Progon boshlangunicha barcha cexlar ishlari aniq taqsimlangan bo'lishi lozim. Progon repeticiyalari natijasi rejissyor, rassom va barcha sahnalashtirish ishlari xabarlarining ishchi yig'ilishida muhokama qilinadi. Yig'ilishda bosh repeticiyaga cexlarning tayyorgarligi ko'rib chiqiladi, uni o'tkazish vaqti, sharoiti, usullari kelishib olinadi. Ishchilar tarkibi o'z ishlarini ertaroq boshlaydi, barcha texnik asbob-uskunalar qayta tekshirib chiqiladi.

Bosh repeticiyaga bezaklarni tayyorlash spektaklga tayyorgarlik kechadi. Bezak qismlari belgilangan tartibda olib chiqiladi va o'rnatiladi.

Rejissyor yordamchisi avvaldan bezaklarni tayyorligi, mustahkamligi, to'g'ri yig'ilganligi, radio-aloqaning sozligini tekshirib chiqadi. Joriy va o'yin rekvizitlari tayyorlab qo'yiladi. Aktyor kelishiga libos, ichki kiyim, poyafzal tayyor holatga keltiriladi. Liboschi aktyor qiyinishiga yordam beradi va uning qiyimini yaxshilab kuzatadi.

Barcha ma'sul xizmat xodimlari o'z sohalari bo'yicha ko'rilgan xavfsizlik choralari haqida axborot beriladi.

Yangi postanovkani chiqarish ishlari premera bilan yakunlanadi. Spektakl birinchi marta tomoshabin xukmiga olib chiqilganda barcha xodim va aktyorlar hayajonda bo'ladi. Barcha sahnalarning o'zaro muvofiq ishlashi spektakl muvaffiqiyatini ta'minlaydi

Premera chiqarilgach, badiiy sahnalashtirish qismi mudiri spektakl pasportini tuzadi.

SPEKTAKL PASPORTI

Spektakl pasportiga yong'indan saqlash texnik komissiyasi hujjatlari, osma bezaklarni shtaketlarga taqsimlash, spektaklni yig'ish, o'tkazish va yig'ishtirish tartibi, xarajatlar smetasi, texnologik tavsif, mebel va rekvizitlar ro'yxati kabilar qiritiladi.

Yuqoridagi barcha hujjatlar bir papkaga yig'iladi, uning ustiga teatr, spektakl nomi, rejissyor va rassom familiyasi, premjera kuni yozib qo'yiladi. Hujjat boshida eskiz, maket va bezaklar fotografiyalari qo'yiladi. So'ngra reja, texnologik tavsif va smeta, bezaklarni shtaketlarga osish rejasi, yig'ish tartibi, spektaklni yig'ish, o'tkazish va yig'ishtirish tartibi, texnika va yong'in xavfsizligi hujjatlari tartib bilan qo'yib chiqiladi.

SPEKTAKL JIHOZLARINI RO'YXATGA OLIISH VA SAQLASH

Spektakl jihozlari quyidagi tartibda saqlashga qo'yiladi: joriy repertuar ashyolari spektakl nomi bilan, repertuarlardan olingan spektakllarniqi esa yo'nalishi, turi, uslubi, davri kabi hususiyatlarga ko'ra guruhlab saqlanadi.

Spektakl qabul qilingach, unda ishlatilgan bezaklar, ashyolar ro'yxatga olinadi va tamg'alab saqlashga qo'yiladi. Bezaklarning barcha turlari guruhlashtirilgan holda texnika va yong'in xavfsizligiga rioya qilib saqlashga ko'yiladi.

Takrorlash uchun nazorat savol va topshriqlar:

1. Spektaklning tashqi shaklini izlashning texnologik jarayonini aniqlash.
2. Rejissyorning rassom bilan hamkorligi.
3. Texnik majlis. Ijrochi rassomlarni ijodiy jarayonga jalb etish.
 - a. Reja sahna to'zishini har tamonlama tekshirish.
 - b. Texnik xujjatlar usulini tuzish.
 - v. Sahnada yig'ish ishlarini tashkil etish,

- g. Badiiy bezak ishlab chiqarishni tashkil etish.
- 4. Ustahona tarkibi va maydoni. Ustahona va jihozlar.
- 5. Yangi spektakl ustida ishlash.
- 6. Maket va reja ustida ishlash.
- 7. Texnologik tasvir va smeta va libos.
- 8. Bezakni ishlab chiqarish.

Mustaqil ish

(Vazifalar kompyuterda bajariladi)

1. Spektaklning tashqi shaklini izlashning texnologik jarayoni qimlar ishtirokida va qanday muhit bo'lishi kerakligini tushuntirib bering?
2. Rejissyor bilan rassom nimalar ustida ish yuritadilar va bo'lajak spektaklning nimasi ustida tortishuv ketadi?
3. Texnik majlis nimani hal qiladi?
 - a. Ijrochi rassom qaysi paytda ijodiy jarayonga jalb etiladi?
 - b. Reja sahna tuzilishining har tamonlama tekshirish usuli, nimalarni tayyorlashi kerak?
 - v. Texnik xujjatlar nimalarga asoslanib ish yuritiladi?
 - g. Sahnada yig'ish ishlarini kimlar tashkil qiladi?
 - d. Badiiy bezaklar ishlab va ishlab chiqarish ustahonalarini guruhlar qanday tashkil qilinadi?
4. Ustahona tarkibi va maydoni qaysi ko'rinishlardan iborat. Nomlarini sharhlab bering?
 - a. Ustahona jihozlari nimalardan tashkil topgan?
5. Yangi spektakl ustida ishlashda qaysi hodimlar ish olib boradilar?
6. Maket va reja ustida qimlar ish olib boradilar?
7. Texnik tasvir va smeta nimaga asoslanib tuziladi?
 - a. Libos ustida kim ish olib boradi?

8. Bezakni ishlab chiqarishda nimalar talab qilinadi va spektaklning qaysi bosqichiga kiradi?
 - a. Sahna cexlarining yangi spektaklini ishlab chiqarish jarayoniga qim rahbarlik qiladi va nimaga asoslanib ishchi rejasi tuziladi?
 - b. Bezaklar qanday montaj qilinadi.
 - v. Teatrda yoritish ishlari qanday va nimaga asoslanib boriladi?
 - g. Mebel rekvizitlarni, butafor ishlarini kim boshqaradi va kim tanlaydi?
9. Grim ustida qimlar ishlaydi?
10. Ovoz berish jarayonini kimlar boshqaradi va qanday tadbirlar yo'lga qo'yiladi?
11. Spektaklni chiqarishda qanday tadbirlar yo'lga qo'yiladi va qimlar tamonidan?
12. Spektakl pasportiga qanday majburiyatlar qiritiladi va qanday xujjatlar qiritiladi?
13. Spektakl jihozlarini ro'yxatga olishda va ularni arxivda saqlashda qanday tartib va intizom asosida saqlanadi?

STANDART O'LCHOVLAR BIRLIGI

1. O'rtacha o'lchovli eshiklar buyi 220-18sm (eng past, o'tish qiyin bo'lgan buyi 160sm).
2. Derazagacha bo'lgan past qism oraliq 70-90sm.
3. Yakka eshiklar eni 65,70,90sm, ikki tabaqali eshiklar 100-140sm.
4. O'rtacha balandlikli povilonlar 250-360sm va udan balandroq.
5. Balkon va zinapoyalarning tutqichlari balandligi 75-85sm.
6. YAssi stanoklar , panduslar, baland tomoni 1m, enining past tomoni 8,10,12sm; tik pandus (yurish-chiqish qiyin bo'lgan, faqat reykalar qoqilganda chiqish mumkin) balandligi 25-27sm eni 1m.
7. Chorbog' 120dan 140 smgacha.
8. To'qima Chorbog' 140sm.
9. Kursi balandligi 42-45sm, eni 22-30sm, buyi 40-50sm bitta o'rin uchun.

10. Devat kushetka balandligi 39-43sm buyi 170-200sm eni 70-95sm.
11. Zamonaviy o'tiradigan mebel balanligi 38smgacha.
12. Stol balanligi o'rtacha 75-85sm.
13. Divan oldiga qo'yiladigan stol 70-60sm.
14. O'rtacha dumaloq stol, hona uchun diometri 80-110sm.
15. Laryok stoyka 95-110sm.
16. Kravat balanligi 50,55,60sm eni 65-95sm.
17. Ko'ylaklar uchun shkaf 170-190sm. Eni 140sm. Chuqurligi 60smgacha.
18. Eski bufer balanligi 220sm, eni 140sm, chuqurligi 35-50sm.
19. Pionina balandligi 130sm, klaviaturagacha 82sm, buyi 145sm eni 75sm.
20. Royal balanligi 135sm, klaviaturagacha 82sm, buyi 240sm, eni 145sm.
21. Kravat oldiga qo'yiladigan tumbochka balandligi 60-70sm, eni 40sm, chuqurligi 40sm.
22. Ishchi stol balandligi 95sm.
23. Kitob jovoni eni 25-35sm, polkalar orasi 35-50sm.
24. Teatr bezaklarini tarnsportda olib yurish uchun ruxsat etilgan o'lchov birligi 2,2m, 3.5-4mgacha, og'irligi 25-40kg.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi tufayli barcha soxalar kabi teatr san'ati ham xukumatning g'amxo'rligidan keng ravnak topmoqda va bu san'at soxasiga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik tufayli spektakllarni sahnalashtirishda rassomlikdan va dizayn imkoniyatlaridan foydalanish ishlari yanada kengaymoqda.

Teatr va rassomlik san'atida sahna bezakiari turli moslamalar va ularni xar hil yo'llar bilan tayyorlash hamda o'rnatish ishlari keng kamrovli va ko'p qirrali o'z navbatida o'ta muhim ma'suliyatli faoliyatlardan biridir. Uning murakkab texnik vositalari va uni ishlatish yo'llari sahna xodimlaridan tortib to raxbarlargacha ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Spektakllarning mazmuni va mohiyatiga qarab sahna bezaklarini joy joyiga ko'yish rejissyor va sahna ustalaridan ayniqsa

dekoraciylar uchun ma'sul bo'lgan rassomlardan katta iste'dod va ijod talab etadi. Bu bilan esa tomoshabinlarning zavqini oshirish teatlarga bo'lgan qiziqishlarni kengaytirish eng muhimi esa ma'naviy ma'rifiy madaniyatni yanada chuqur singdirishda xizmat qiladi.

Mamlakatda milliy kadriyatlarimizni chuqur o'rganish ularning ibratli tomonlarini ulug'lash va aholiga ayniqsa yoshlarga singdirish maqsadida juda ko'p ommaviy madaniy tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Mustaqillik kuni bayrami Navruz bayrami »Umid nixollari», «Barkamol avlod» kabi ko'p bosqichli sport musobakalarning o'tkazilishida maydonlar stadionlarda ijrochilar va tomoshabinlar uchun turli qurilmalar yasali b o'rganilmoqda. Ularda esa rassomlar va sahna bezagi dekoratciya qurilmalari ustalarining ijodiy mehnatlari beqiyos.

Yurtimizda o'tkazilayotgan bayram va tadbirlar folklor "Fond forum" tadbirlari maketlashtirish mashg'ulotlarisiz o'tmasligi ma'lum. SHunday ekan qo'lingizdagi o'quv qo'llanma siz uchun kelgusida spektakllar, yurtimizda o'tkaziladigan "Navro'z bayrami", "Mustaqillik bayrami" va boshqa mumtoz ashulalar bayramida quriladigan teatr bezaklari albatta maket qurilmalarida sinovdan o'tgach amalga oshirilishi ma'lum. Ushbu tadbirlar stadiondami, yoki tezkorlik bilan barchasi teatr maketida ijro etilib, keyin sahna qurilmalarini qurishga tavsiya etiladi. Shuning uchun teatr maketining roli amalda juda kattadir.

IZOHLI LUG'AT

- Akrilat** - bo'yoqlarning zamonaviy yangi turi.
- Anilin** - sahna bezaklariga purkaladigan siyoxli bo'yoq.
- Aplikatsiya** - teatr tyuliga matolar tikib yoki elimlab bezak tayyorlash usuli.
- Arersahna** - sahnaning davomi, ichki ohirgi qismi.
- Avansahna** - tomosha zaliga chiquvchi sahna qismi.
- Batik** - matoni bo'yash usuli.
- Butafor san'ati** - sahna uchun so'niy buyumlar yasash usuli.
- Drapirovka** - materialni bukib yig'ish.
- Ekspluatatsiya** - bezaklar, rekvizitlardan foydalanish.
- Elastik** - sun'iy egiluvchan sintetik xom ashyo.
- Faktura** - bezaklarga ishlov berganda sunniy burtmalar hosil qilish.
- Fon** - sahnaning orqa tomoni ko'rinishi.
- Furka** - dekoratsiyalarni sahnaga olib chiquvchi aravacha.
- Grim** - Aktyor yuzini obraz asosida bo'yash.
- Grun** - Bezaklarga ishlov berishdan oldin suriladigan yog'och elim aralashtirilgan bo'tqa.
- Ilyuziya** - obrazga qirish.
- Inventar** - spektaklda ishlatiladigan bezaklar, buyumlar, jihozlarni hisob qitob qilish hujjati.
- Ish galereyasi** - ishchilar yuradigan osma ko'prik.
- Karkas** - qovurg'a.
- Kolosniklar** - sahna tepasining panjarali shift.
- Kompozitsiya** - asar echimini kompleks echish uslubi.
- Konstruktiv** - o'zak asosiy qism (yog'och, temir, qurilmalar).
- Konstruktor** - quruvchi ijodkor.
- Kulis** - sahnaning chap va o'ang tomoniga ilinadigan pardalar .
- Kulis mashinasi** - relesda yuradigan g'ilidirakli arava.
- Mashina golereyasi** - shtanketlarni ko'tarib tushirish joyi.

Mastika – yog’li, gips, bur, qog’oz, plastik qorishmasi.

Mizansahna – sahnaga qurilgan bezaklarning bir qismi.

Montaj – spektakl bezaklarini sahnaga qurish.

Nakladnoy – spektaklga sarflangan xarajatlar hujjati.

Orgsteklo – sun’iy sintetik oyna.

Pandus– qiya tekislik yaratuvchi stanok turi.

Panorama – sahnaning orqa qismini yarim doira shaklida to’sib turuvchi mato.

Paralon – sintetik yumshoq xomashyo.

Partitura – spektakl davomida ishtiroq etuvchi yorug’lik shu’lari majmuasi.

Pavilon – sahnada uy-joy qurilmalari.

Penoplast – po’kak.

Perspektiva – sahnada bezaklarni ketma-ket qurish.

Pilyaster – devordan bo’rtib to’ruvchi yarim ustunlar.

Pistolet – sahnaning kerakli joyiga yorug’lik bruvchi elektr chiroq.

Planshet – yog’och pol qilingan sahna ko’rinishi.

Plastik – suniy faner.

Podmaketnik – maket yasashda qo’llaniladigan quticha.

Polimer – butafor yasashda ishlatiladigan suniy xomashyo.

Portal – arxitektura arkasi.

Portal minorasi – yoritqichlar o’rnatilgan, siljiydigan temir karkasli moslama.

Premera – asarni birinchi marta sahnaga qo’yilishi.

Progon – spektaklni badiiy kengashga topshirish oldidan o’tkaziladigan mashq.

Prostsenum – orkestr xandaq.

Proyekciya – sahna ekranida fotohujjatlarni namoyish qiluvchi aparat.

Qizil chiziq – tomoshabin pardasi osiladigan joy.

Radio oqustik – sahnani ovoz bilna ta’minlash markazi.

Rekvizit - sahna anjomlari, kiyim, butafor va boshqa atributlar.

Relief – bezaklarda ishlatiladigan burtma san’at.

Repetitsiya – aktyorlar mashqi.

Seksiya – zina qismlari.

Smeta – sahna jihozlariga ketadigan moddiy xarajatlar xisob-qitob xujjati.

Sofit – sahna chiroqlari.

Stanok – sahna supasi.

Super parda – spektakl sahnada ketayotgan paytda osiladigan ijro paradasi.

Tomoshabin pardasi – antrkt paytida yopiladigan parda.

Tryum – sahna tagidagi hona yoki quyi sahna.

Tyul – sahnaga osiladigan shaffof to'r parda.

Viniplast – teatr bezaklarida ishlatiladigan sintetik xomashyo turi.

Vitraj – oynaga, tetar tyuliga bosmahona bo'yoqlarida bezaklar tayyorlash usuli.

Yoritish galereyasi – yoritish chiroqlari o'rnatilgan maydon.

Zadnik – sahna ortini to'sib turuvchi parda.

Shablon – andoza.

Shtanket – sahna bezaklarini qo'tarib tushiradigan moslama.

Cho'ntak – sahnaga tutashgan bezaklar turadigan honalar, chap va o'ng tamonlarda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Rasmiy manbalar

- 1.1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" T:2008.
- 1.2. Karimov I.A. "Ma'naviyat yuksalish yo'lida" T: "O'zbekiston" 1998.
- 1.2.Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir". T: "O'ZBEKISTON" 2010.
- 1.4. Karimov I.A. "O'ZBEKISTON XX! Asrga intilmoqda". T: 1999.
- 1.5 Karimov I.A. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin" T:1995.
- 1.6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqidagi" farmoni. 1997 yil 23 yanvar. 1- son.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni. 1998yil 26 mart 4-son.

II. Kitob va monografiyalar.

- 2.1. Bazanov V.V "Scena, texnika, spektakl". M.1963.
- 2.2. Kozlovskiy V.I, Freze E.P. "Xudojnik i teatr". M. 1975.
- 2.3.Sosnovskaya.A.G "Puti razvitiya teatralno iskusstva". O'. T:1987.
- 2.4. Bogomolova.M.T "Deqoracionn'e material- Xudojnikam teatra". 1988.
- 2.5.Abdumalikov Sh.R. "Zamonaviy teatr sahna bezagi san'ati" TDPI. P.2005.
- 2.6. Qurbonqulov. N. "Teatr butafoiyasi san'ati" T: Sharq.2007.
- 2.7. Abdumalikov Sh. "Sahna texnikasi va texnologiyasi". T:-2009.
- 2.8. Ibrohimov. B. "Sahna texnikasi va bezaklar tayyorlash texnikasi texnologiyasi". T: I. 2010.
- 2.9. Ibrohimov.B "Teatr maketi".T: I. 2009.
- 2.10. Ibrohimov.B "Teatr butaforiyasi". T: I. 2009.
- 2.11.D.Qodirova. "XX asr o'zbek teatri scenografiyasi" doqtorlik monografiyasi. 2010.
- 2.12.A.K.Dmitriev. Kak sdelat teatralnuyu dekkoraciyu Moskva 1930.A.X.R.

2.13.D.A.i O.P.Selivanovi. Razbornie portativnie konstrukcii scenicheskix pavilonov. "Iskusstvo i Moskva" 1956.

2.14.O'zbekiston sanati. 1991-2001 yil.

2.15.B.Ibrohimov. 2009. Teatr bezagi va Ashyolar texnologiyasi.

2.16. .B.Ibrohimov. 2009.Teatr fakturasi.

B.Ibrohimovning chop etilgan maqolalari

3.1. "Teatr" jurnali. T.1985.

3.2. "Scena" jurnali. M.1984.

3.3. Sirdaryo haqiqati. 1985. gazetasi

3.4." O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1988. gazetasi

Mundarija

1. Kirish.....	4
O'quv fanining maqsadi va vazifalari.	4
Fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar.	5
Asosiy qism.	5
Amaliy mashg'ulotlar.	6
Mustaqil (ta'lim) ish.	6
O'zbekiston Respublikasida badiiy ta'limni rivojlanish yo'nalishlari.	7
Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.	7
Dasturning informacion -uslubiy ta'minoti.	8
Maketlashda amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:.....	9
Maketlashda ishlatiladigan ashyolar.	9
I - QISM	15
Maketlashning tashqi ko'rinishi tahlili.....	15
I- qism. Takrorlash uchun nazorat savol va topshiriqlar.....	51
Mustaqil ish.....	51
II – QISM	51
Maketlash qutisi, maketlash uslubi	51
Qoralama maket	56
Qoralama maketda ishlash usullari	57
Toza maket.....	58
Asboblarda va anjomlar.....	58
Karton va qog'ozlarda ishlash	59
Yog'och va fanera bilan ishlash.....	62
Sim va yupka metall bilan ishlash.....	66
Gips bilan ishlash	66
Maket qismlarni tayyorlash. Pavilion va devorlar	68
Eshik va derazalar.....	69

Ustunlar va pilyastirlar	72
Narvonlar	74
Butalar va daraxtlar	77
Yumshoq osma bezaklar. O'yma bezaklar	79
Bezalgan arka tyul pardalari	80
Sahna suknasi va drapirovka	82
Mebel	84
Maketga shakliy ishlov berish	89
Maketni bo'yash va bezash	91
Maketni yoritish	92
II- qism. Meketlash uslubi (maketlash qutisi)	95
Mustaqil ishi	95
III- QISM	96
Umumiy qism	96
Turli holatlarda bezatish imkoniyatlari materialning shakl va ishlatilishiga bog'liqligi.	97
Bezatish asoslari.	98
Bezatish elementlari, kompoziciya.	99
Kompoziciya, sahna makonini tashkil etish	99
Sahnada shakl va rang xaqida	100
Maket xaqida	101
Libos va dekoraciya	104
Maket va libos ustida jamoa bo'lib ishlash zarur	104
Siljilatidigan movut pardalar va turi dekoraciya bilan uskunalar sahna uchun bezaklarning eng sodda qismlari	105
Sahnani movut mato bilan sodda uskunalar qurilmasi	106
Ayrim dekoraciya qismlari va tuzilishi	107
Hona (voqea hona ichida bo'lib o'tadi)	107
Hona dekoraciylari bezak qismlaridagi rang xaqida	112

Binodan tashqarida ruy beradigan voqea joylarni tasvirlash uchun bezaklarning sodda qurilmalari	114
Daraxtlardan iborat bezaklar xususiyatlari (o'rmon, bog', xiyobon)	115
Bezashning boshqa usullari	120
Bezak qisimlari.....	122
Sahnadan vertikaliga foydalanish	122
Shitlar	125
Pardalar	126
Aylanuvchi pardalar	127
Sinch-pardalar	128
Qo'shimcha bezak qisimlar	129
Bezak mantaji.....	131
Bezakning tashqi ko'rinishi	135
Spektakl uchun qurilma qanday barpo etiladi va joylashtiriladi	136
Qisimlarni mahkamlash, elimlash.....	137
Burchaklarni birlashtirish	138
Oshiq-moshiq	141
Elim bo'yoqlari va grunt xaqida	142
Anilin bo'yoqlari xaqida.....	145
Loklash va sayqallash	146
Ishkor (tezob)	147
Loklash.....	147
Mumlash.....	147
III- qism.....	148
Teatr bezaklari qanday tayyorlanadi	148
Mustaqil ish.....	149
IV-QISM	150
Sahna pavilonlarining yig'ma portativ konstruksiyasi	150
Qurilmalarning umumiy tasviri.....	152
Yog'och murvatlar.....	154

Mahkamlash sterjeni	164
Burchak changak.....	167
Oshiq moshqlik changak	169
Ajratuvchi changak	171
Karnizni sharnirli skoba bilan qo'shish va ajratish.	172
Burash shtirlari.....	173
Karkasdagi eshikka tutqichni o'rnatilishi.	180
Pavilonni yig'ish.....	180
Qarnizga changgakni o'rnatish uslubi.	183
IV- qism.	184
Sahna pavilonlarining yig'ma portativ konstrukciyasi.....	184
Mustaqil ish	184
V - QISM	185
Spektaklning tashqi shaklini izlash teatrdagi badiiy sahnalashtirishni ishlab chiqarish-ijodiy jihatdan tashkil etish.....	185
Maket - spektakl tashqi shaklining yaratilishidagi yakuniy bosqich	186
Texnik majlis. ijrochi rassomlarni ijodiy jarayonga jalb etish.....	187
Reja – sahna tuzilishini har tomonlama tekshirish usuli	187
Texnik hujjatlar tuzish	188
Sahnada yig'ish ishlarini tashkil etish	190
Badiiy bezaklar ishlab chiqarish va ishlab chiqarish ustahonalarini (guruhlarini) tashkil qilish.....	192
Badiiy bezak ishlab chiqarishni takil etish.....	192
Ustahona tarkibi va maydoni. ustahonalar va jihozlar.	193
Bezaklarga qo'yiladigan badiiy-texnologik talablar	196
Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va me'yorlash	196
Bezaklar qurishda ish vaqtini me'yorlash.....	197
Yangi sahna asariga xarajat smetasini tuzish.....	197
Faktura tayyorlash texnologiyasi.....	198
Yangi spektakl ustida ishlash	199

Tayyorgarlik davri	199
Maket va reja ustida ishlash	200
Ishchi chizmalar	201
Texnologik tasvir va smeta	202
Libos	204
Bezakni ishlab chiqarish	205
Sahna cexlarining yangi spektakl ustida ishlash.....	205
Bezaklarni montajlash	206
Yoritish ishlari	206
Mebel va rekvizit.....	207
Liboslar bilan ishlash.....	208
Grim ustida ishlash	208
Ovoz bezagini tayyorlash.....	209
Spektaklni chiqarish	209
Spektakl pasporti	211
Spektakl jihozlarini ro'yxatga olish va saqlash	211
Takrorlash uchun nazorat savol va topshiriqlar:.....	211
Mustaqil ish	212
Standart o'lchovlar birligi.....	213
Xulosa	214
Izohli lug'at	216
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Rasmiy manbalar	219



B.Ibrohimovning teatr bezagi rang tasviri kafedrası, teatr va film tasviriy echimi guruxlar talabalari bilan mashg'ulot payti tushirilgan rasmlar.

BOLTABOY IBROHIMOV
(BOLTABOY IBRAGIMOV)

MAKETLASH

Toshkent — «ISTIQLOL» — 2016

Muharrir *A. Savonov*
Rassom *Mirvosil Odilov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Odilov*

2016 - yil 04-sentyabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×84¹/₁₆.
Bosma tabog'i 113.8. 200 nusxa.

«Istiqlol nashriyoti», 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

XT «Razzoqov O.D.» bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh., 100129,
Navoiy ko'chasi, 30-uy. Buyurtma № 215.



Болтабой Иброҳимов

Ўзбекистон Бадий Академияси Камолиддин Бехзод
номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институтининг
профессори. Ўзбекистон Бадий Академияси ижодкорлар
уюшмасининг аъзоси. Театр, кино ва телевидениенинг
сахналаштирувчи рассоми.

Шоир, таржимон.

ISBN 978-9943-338-56-2

